

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

R.A.SUVONOVA, M.BOLTAYEV

**“O‘zbek tili”dan talabalar mustaqil
ishini tashkil etish**
(uslubiy qo‘llanma)

SamDU o‘quv-uslubiy
kengashi majlisida muhokama
qilinib, nashrga tavsiya etilgan
(2015-yil 13-iyun, 8-bayonnoma)

Samarqand – 2016

UDK: 494.3
BBK: 81.Uz
O' 16

“O‘zbek tili”dan talabalar mustaqil ishini tashkil etish.
Uslubiy qo‘llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2016,
108 bet.

Mazkur uslubiy qo‘llanma universitetning 1-kurs rus va tojik giruhlari talabalariga “O‘zbek tili” fanidan mustaqil ishlari mavzulari, mavzular bo‘yicha yoziladigan referatlar, ularning rejasi, qamrab oladigan materiallari, foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati, matnlarni o‘z ichiga olibgina qolmasdan, talabalarning amaliy mashg‘ulotlarda o‘rgangan nazariy va amaliy bilimlarini tekshirish, baholash, talabalarning mustaqil ishlash jarayonida o‘z bilimlarini mustahkamlashlariga ko‘maklashish maqsadida tuzildi. Unda talabalar fanni o‘zlashtirish jarayonida bilishlari lozim bo‘lgan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, stilistik hodisalar bo‘yicha topshiriqlar, savollar, mashqlar, tarjima uchun materiallar hamda o‘zlari mustaqil ravishda tuzishlari talab etiladigan matnlar mavzulari, ular bo‘yicha rejalar keltirildi. Uslubiy qo‘llanma “So‘zboshi”, “Mustaqil ta’lim mavzulari”, “Mustaqil ta’lim bo‘yicha variantlar”, “Mustaqil o‘rganish uchun matnlar” kabi shartli qismlarga bo‘lindi.

Tuzuvchilar: **SUVONOVA R.A., BOLTAYEV M.**

Mas’ul muharrir: f.f.n, **MUHIDDINOVA B.M.**

Taqrizchilar: f.f.n. **RO‘ZMONOVA R.,**
f.f.n. **JO‘RAYEV T.**

©Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti. 2016-yil.

S O ‘ Z B O S H I

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunicha til o‘rgatish va ma’lum bir tilning grammatik qonun-qoidalarini o‘rgatish bir-biridan jiddiy farqlanmay kelindi. Natijada respublikamizda tillarni o‘rganish muammolari ham, amaliyoti ham davr talablaridan ortda qolib keldi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tilini barcha sohalarda to‘liq joriy etish hamda mamlakatimiz miqyosida yuksak nutq madaniyatiga erishishimiz uchun, eng birinchi navbatda, o‘zbek tilini o‘rgatishning samaradorligini oshiruvchi usullar joriy etilmoqda, zamonaviy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy ishlarda o‘zbek tilining o‘ziga xos tomonlari hisobga olinmoqda. Bunday xususiyatlar tilning tovushlar tarkibi, lug‘at boyligi, morfologik xususiyatlari, sintaktik bog‘lanishi va qurilishi, bo‘laklar tartibi, uslubiy xoslanganlik kabi muhim masalalarni qamrab oladi.

O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqi uchun qadimdan ikki va undan ortiq tillarni bilish an‘ana bo‘lib kelgan. Arab, fors-tojik tillarini maktab-madrasa ko‘rgan har bir o‘zbek yaxshi tushungan va shu tillar orqali boy Sharq adabiyoti, madaniyati, san‘atidan bahramand bo‘lgan. XX asr boshlariga kelib, zamon taqozosi va davr talabiga ko‘ra rus tili ham xalqimiz bilishi lozim bo‘lgan tillardan biriga aylandi. Davr mahsuli o‘laroq o‘zbek – rus, rus – o‘zbek ikki tilliligi vujudga keldi. Bu ikki tillilikni rivojlantirish uchun ko‘pgina ishlar amalga oshirilganligiga qaramay, XX asr o‘rtalaridan boshlab, milliy tillarni o‘rganish va rivojlantirishga e’tibor susaydi.

XX asr oxiriga kelib, O‘zbekistonning mustaqil davlatlar qatoriga kirishi bilan uning davlat tilini o‘qitish-o‘rgatishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Chunki O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning farzandlari o‘z ona tili bilan bir qatorda, davlat tilida erkin muomala qila bilishi, ish qog‘ozlari yurita olishi yangi davrning muhim talabi bo‘lib qoldi. Shunga ko‘ra oliy o‘quv yurtlarining boshqa tillarda ta’lim olayotgan talabalari o‘z mutaxassisliklarini chuqur o‘rganish bilan birgalikda o‘zbek tilini ham puxta o‘zlashtirishlari shart.

Davlat ta’lim standartlariga tayanib yaratilgan o‘quv dasturlari asosida o‘tiladigan mashg‘ulotlar davomida o‘zbek tili tovushlarini, o‘zbekcha so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz eta olishlari, quyi o‘quv yurtlarida o‘rgangan lug‘at boyligini yanada ko‘paytirishlari, og‘zaki va yozma nutq bo‘yicha kelgusidagi talab va ehtiyoj uchun yetarli darajada ko‘nikma hamda malaka hosil qilishlari, berilgan savollarni tushunib yetishlari va ularga to‘g‘ri javob qaytara olishlari, tavsiya etilgan matnni to‘g‘ri va ifodali o‘qiy olishlari, zaruratga qarab har qanday materialni har ikkala tilga tarjima qila olishlari, matn mazmunini o‘qib tushinishlari, matn bo‘yicha savollar tuza olishlari va matn mazmunini og‘zaki hikoya qila olishlari, ma’muriy idoralar, muassasa, xizmat ko‘rsatish korxonalari, do‘kon va boshqa jamoat joylarida o‘zbek tilida nutq madaniyatiga rioya etgan holda erkin muomala qila olishlari, kundalik hayotda zarur bo‘lgan ish qog‘ozlarini to‘g‘ri to‘ldirish, savodxonlik bilan yoza olish kabilarni chuqur o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan. Mashg‘ulotlar jarayonida talabalar rus va tojik tillarida

uchramaydigan yoki uchrasa ham farqli bo'lgan grammatik qonun-qoidalarini, chunonchi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, rod kategoriyasi, olmoshlarning turlari va qo'llanishlaridagi farqli jihatlar, fe'llardagi tuslanish, otlardagi turlanish, otlarning jonli yoki jonsiz predmetlik ma'nosini anglatuvchi guruhlarga bo'linish-bo'linmasligi, fe'l zamonlaridagi o'ziga xosliklar, so'zlarning yasalishi, gapda bo'laklar tartibi kabilarni matnlar ustida ishlash, mashqlarni bajarish va turli mavzudagi suhbatlar yordamida o'zlashtira boradilar.

Ushbu uslubiy qo'llanma orqali talabalar "O'zbek tili" fanidan o'rgangan nazariy va amaliy bilimlarini mustaqil bajariladigan topshiriqlar yordamida sinab ko'rish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Mazkur uslubiy qo'llanmadan barcha oliy o'quv yurtlarining talabalari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarida boshqa tillarda tahsil olayotgan o'quvchilar ham foydalanishlari mumkin.

F O N E T I K A

O'zbek tili tovushlar tizimi. Unli tovushlar va ularning yozuvdagi ifodasi. Undosh tovushlar va ularning yozuvdagi ifodasi. Yozuvda o'z ifodasini topmagan undosh tovushlar. Tutuq (') belgisi va uning qo'llanishi. Alfavit. O'zbek tilining o'ziga xos tovushlari va ularni ifodalovchi harflar. Harflar birikmasi. Bo'g'in va uning turlari. Bo'g'inning ahamiyati. Urg'u va uning turlari. Urg'u olmaydigan qo'shimchalar.

L E K S I K O L O G I Y A

O'zbek tilining lug'at boyligi. O'z va o'zlashma qatlam. Fors-tojik, arab, rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan qatlam. Umumturkiy va o'zbekcha so'zlar. So'zning bosh va ko'chma ma'nosi. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli va talaffuzi o'xshash so'zlar. Tasviriy ifodalar. Turg'un iboralar, ularning nutqda tutgan o'рни. Atamalar va ularning ahamiyati.

M O R F O L O G I Y A

Asos va qo'shimcha morfemalar. Qo'shimcha morfemalarning turlari. So'z yasovchi, shakl yasovchi, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari: sodda so'zlar, sodda tub so'zlar, sodda yasama so'zlar, qo'shma so'zlar, juft so'zlar, takror so'zlar. Suz turkumlari. Mustaqil so'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh. fe'l, ravish. Yordamchi so'zlar turkumi: bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar. Alohida guruh so'zlar turkumi: undovlar, modal so'zlar, taqlid so'zlar.

Ot: atoqli, turdosh, aniq, mavhum, yakka, jamlovchi otlar. Otlarda ko'plik. Ko'plik qo'shimchasisiz ham ko'plikni ma'nosini ifodalaydigan so'zlar. Egalik

kategoriyasi. Egalik qo'shimchasini olib, asosida o'zgarish yuz beradigan so'zlar. Kelishik kategoriyasi: bosh, qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari. Kelishik qo'shimchalarini qabul qilganda asosida o'zgarish yuz beradigan so'zlar. Otlarning morfologik va sintaktik usullar bilan yasalishi. Otlarning gapdagi sintaktik vazifasi.

Sifat: asliy va nisbiy sifatlar. Sifat darajalari. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar. Sifatlarning otlashuvi. Sifatlarning morfologik va sintaktik usullar bilan yasalishi. Sifatlarning sintaktik vazifasi.

Son va uning turlari: sanoq va tartib sonlar. Miqdor, dona, chama, taqsim, jamlovchi va kasr sonlar. Sonlarning arab va rim raqamlari bilan yozilishidagi xususiyatlar. Sonlarning otlashuvi. Sonlarning sintaktik vazifasi.

Olmosh va uning turlari: kishilik, o'zlik, so'roq, ko'rsatish, belgilash, bo'lishsizlik, gumon olmoshlari. Olmoshlarning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi. Egalik va kelishik qo'shimchalari bilan turlangan ayrim olmoshlar imlosi. Olmoshlarning sintaktik vazifasi.

Fe'l. Bo'lishli, bo'lishsiz, o'timli, o'timsiz fe'llar. Fe'lning noaniq shakli. Fe'l zamonlari. O'tgan zamon fe'li va uning shakllari: aniq o'tgan zamon, yaqin o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon davom, o'tgan zamon maqsad shakllari. Hozirgi zamon fe'li: hozirgi zamon davom va hozirgi-kelasi zamon shakllari. Kelasi zamon fe'li: kelasi zamon maqsad va kelasi zamon gumon shakllari. Fe'l mayllari. Xabar, shart va buyruq-istak mayllari. Fe'l nisbatlari. Aniq, o'zlik, majhullik, birgalik va ortirma nisbatlar. Fe'lning xoslangan shakllari: sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi. Fe'llarning morfologik va sintaktik usullar bilan yasalishi. Fe'llarning sintaktik vazifasi.

Ravish va uning turlari: holat, o'rin, payt, daraja-miqdor, maqsad va sabab ravishlari. Ravish darajalari. Ravishlarning morfologik va sintaktik usullar bilan yasalishi. Ravishlarning sintaktik vazifasi. Ravishlarning otlashuvi. Yordamchi so'zlar turkumi: bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar. Ularning nutqda tutgan o'rni. Alohida guruh so'zlar turkumi: undovlar, modal so'zlar, taqlid so'zlar. Ularning nutqdagi ahamiyati.

S I N T A K S I S

So'zlarning o'zaro teng va tobe bog'lanishi. So'z birikmalari: boshqaruvli, moslashuvli va bitishuvli birikmalar. Maqsad ifodalashiga ko'ra gap turlari: darak, so'roq, bo'yruq va undov gaplar. Gap mazminiga qarab tinish belgilarining qo'llanishi. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari: sodda va qo'shma gaplar. Sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirish. Gap bo'laklari. Gapning bosh bo'laklari: ega, kesim. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol. O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi. Gapda mantiq urg'sining o'rni.

Mustaqil ta'lim mavzulari

Birinchi semestrda bajarish uchun tavsiya etiladigan mustaqil ish mavzulari:

1. O'zbek tilining unli tovushlari.
2. O'zbek tilining undosh tovushlari.
3. O'zbek tilida bo'g'in va urg'u.
4. Kirill yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi.
5. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi.
6. O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili.
7. O'zbek tilida so'z tarkibi (o'zak, negiz, qo'shimchalar).
8. O'zbek tilida so'z turkumlari (mustaqil, yordamchi, alohida guruh).
9. O'zbek tilining lug'at boyligi.
10. O'zbek tilida so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari.
11. O'zbek tilining frazeologizmlari.
12. O'zbek tilida ot so'z turkumi.
13. O'zbek tilida egalik kategoriyasi.
14. O'zbek tilida kelishik kategoriyasi.
15. O'zbek tilida omonim, sinonim, antonim va paronim so'zlar.
16. O'zbek tilida fe'l so'z turkumi.
17. O'zbek tilida fe'l zamonlari.
18. O'zbek tilida sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi.
19. O'zbek tilida fe'l nisbatlari.
20. O'zbek tilida fe'l mayllari.
21. O'zbek tilida sifat so'z turkumi.
22. O'zbek tilida son so'z turkumi.
23. O'zbek tilida olmosh so'z turkumi.
24. O'zbek tilida ravish so'z turkumi.

25. O'zbek tilida so'zlarning otlashuvi (sifat, son, ravish va sifatdosh).
26. O'zbek tilida yordamchi so'zlar turkumi.
27. O'zbek tilida alohida guruh so'zlar turkumi.
28. O'zbek tilida so'zlarning bog'lanish yo'llari va so'z birikmasi.
29. O'zbek tilida gapning ma'nosiga ko'ra turlari.
30. O'zbek tilida gapning tuzilishiga ko'ra turlari.

Tanlangan mavzudan referat yozish bo'yicha taxminiy reja:

1. O'zbek tilining mustaqil mamlakat davlat tili ekanligi, uning tarixi, unda yaratilgan badiiy, ilmiy asarlar, davlat tilining turmushdagi o'rni, uni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj.
2. O'zbek tili morfologiyasi haqida qisqacha ma'lumot.
3. Tanlangan mavzu bo'yicha nazariy material.
4. Tanlangan mavzuni biror she'riy yoki nasriy asar parchasi asosida tahlil qilish.
5. Nazariy va faktik material tahlili xulosalanadi.
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Namuna

Mavzu: O'zbek tilining unli tovushlari.

Reja

1. O'zbek tilining mustaqil mamlakat davlat tili ekanligi, uning tarixi, unda yaratilgan badiiy, ilmiy asarlar, davlat tilining turmushdagi o'rni, uni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj.
2. O'zbek tili fonetikasi haqida qisqacha ma'lumot.
3. Tanlangan mavzu bo'yicha nazariy material.
4. Unli tovushlarni biror she'riy yoki nasriy asar parchasi asosida tahlil qilish.
5. Unli tovushlar haqidagi nazariy va faktik material tahlili xulosalanadi.
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

O'zbek tilining unli tovushlari

Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli tovush mavjud bo'lib, ular kirill alifbosida o'nta harf bilan yozib kelingan. Ular quyidagilar: **а, о, у, ё, и, э, е, ё, ю, я**. Yangi alifboda esa unli tovushlar uchun oltita harf qabul qilingan: **а, о, u, o', i, e**.

1. **Aa** harfi orqali til oldi, lablashmagan, keng unli tovush ifodalanadi. Kirill va lotin yozuviga asoslangan har ikki alifboda bosma shakli ham, yozma shakli ham bir xil. Bu tovush **q, g', x** chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelgan hollarda til orqa unlidek talaffuz qilinishi mumkin: **qarg'a, g'alaba, qalin, xalq, xamir, g'azab** kabi. Qolgan hollarda til oldida talaffuz etiladi: **mana, ona, aka, ota** kabi.

Misollar: *adib, adir, adolat, albatta, alla, amal, ammo, anor, aqlli, arava, ariza, arxar, asbob, atama, axir, axloq, baxt, baqa, buqa, taqa, chaqa, hammom, aholi, mahalla.*

2. **Oo** harfi til orqa, lablashgan, keng unli tovushni yozish uchun xizmat qiladi. Uning ko‘rinishi ham har ikki alifboda bir xil. Masalan: **olim, opa, olma, bola, xola, chol, navo, davo, ibo** kabi. Faqat o‘zlashma baynalmilal so‘zlarda [o‘], [a], [i] tovushlariga yaqin talaffuz etiladi: **opera, rol, traktor, direktor, okean** kabi.

Misollar: *obod, odat, odim, oila, oktabr, olim, omonat, oqim, operator, orol, oson, ozod, ochiq, og‘ir, ochko, ocherk, podshoh, poema, qassob, qor, qozon, sochiq, toza, bozor.*

3. **Uu** harfi lablashgan, til orqa, tor unli tovushning yozuvdagi ifodasidir. Kirill alifbosida **У у** ko‘rinishiga ega edi. Rus tilidagi [y] tovushiga nisbatan qisqaroq talaffuz etiladi: **kuz, uz, buz, uzun** kabi.

Misollar: *ukki, ulug‘, umid, umuman, urush, uslub, ustoz, uyqu, uzoq, uzum, ushoq, uch, uchqun, mushuk, muchal, quduq, quvur, qum, quruq, buzoq, burun, buyrak, tugun, kukun.*

4. **O‘o‘** harfi lablashgan, til orqa, o‘rta keng unli tovushni ifodalaydi. Kirill yozuviga asoslangan alifboda **Ÿ ŷ** ko‘rinishiga ega edi. Rus tilida bunday tovush yo‘q. Shunga ko‘ra bu tovushni [o] va [y] unli tovushlari o‘rtalig‘idagi tovush deb hisoblash mumkin. Asosan so‘zning boshida ko‘proq uchraydi, o‘zlashma so‘zlar oxirida ham uchrab turadi: **o‘n, o‘lka, o‘rtoq, qo‘rq, to‘rt, bo‘g‘in, cho‘qqi, qo‘pol, navro‘z, obro‘** kabi.

Misollar: *o‘jar, o‘lan, o‘pka, o‘rdak, o‘roq, o‘tkir, o‘zak, o‘g‘il, o‘choq, g‘o‘ra, g‘o‘za, sho‘r, sho‘rva, cho‘mich, cho‘qqi, to‘rt, to‘siq, to‘qay, to‘g‘ri, ro‘yxat, ro‘zg‘or, so‘ri, so‘z, no‘xat, mo‘yna.*

5. **Ii** harfi orqali o‘zbek tilidagi til oldi, lablashmagan, tor unli tovush ifodalanadi. Kirill alifbosida **И и** shakliga ega edi. Bu tovush ham chuqur til orqa [q], [g‘], [x] undosh tovushlari bilan yonma-yon kelganda rus tilidagi [ɣ] unli tovushiga yaqin talaffuz etiladi: **tiqin, biqin, chaqin, og‘iz, bo‘g‘iz, qiziq, taxir, oxir** kabi. Qolgan hollarda qisqa unli tovush tarzida talaffuz etiladi: **bil, til, biz, siz, bilak, bilan, tilak, tish, ish** kabi.

Misollar: *idish, idora, ijod, ilon, imlo, imzo, igna, inson, iroda, imkon, ixtiro, ixcham, ixtiyor, iqtisod, iqlim, himoya, ahil, ruhiy, hikoya, og‘ir, bag‘ir, qo‘ng‘ir.*

6. **Ee** harfi til oldi, lablashmagan, o‘rta keng unli tovushni yozuvda berish uchun xizmat qiladi. Kirill alifbosida **Э э** shakliga ega edi. Asosan so‘zning boshida uchraydi: **el, eshik, ekin, ertak, erkak, elak** kabi. Yangi alifboga o‘tilgandan so‘ng har ikkala holatda ham bir harf qo‘llanadigan bo‘ladi. Shuningdek, o‘zlashma so‘zlar o‘rtasi va oxirida ham uchraydi: **poeziya, poema, duet, duel, karate** kabi.

Misollar: *egri, ellik, endi, eski, echki, etik, e‘tibor, e‘tiqod, e‘lon, etak, eshak, esdalik, erkin, epchil, enaga, egov, eshkak, e‘tiroz, eman.*

Kirill yozuvi asosidagi alifboda yana **е, ё, ю, я** harflari ham mavjudki, ular [y] lashgan tovushlarni yozuvda ifodalashga xizmat qiladi. **E** harfi [y] undosh tovushi bilan [e] unli tovushining birikuvidan, **ё** harfi [y] undosh tovushi bilan [o] unli tovushining birikuvidan, **ю** harfi [y] undosh tovushi bilan [u] unli tovushining

birikuvidan, **я** harfi esa [y] undosh tovushi bilan [a] unli tovushining birikuvidan hosil bo'lgan tovush birikmalarini yozuvda ifodalaydi. **Masalan:** етти - *yetti*, елка - *yelka*, ер - *yer*, емоқ - *yemoq*, ёлғон - *yolg'on*, ёғ - *yog'*, ёмғир - *yomg'ir*, ёстик - *yostiq*, юлдуз - *yulduz*, юмшоқ - *yumshoq*, юммоқ - *yummoq*, ютмоқ - *yutmoq*, яшил - *yashil*, яқин - *yaqin*, янтоқ - *yantoq*, ярим - *yarim* kabi.

Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,
Suhbat aylaylik kelinglar, jo'ralar, o'rtog'lar.

Xush mahfilda tiriklik ulfat-u ahbob ila
O'ynashib, gahi tabiatni qilaylik chog'lar.

Ruh ochib ko'zdin nihon bo'lsa paridek, naylayin,
Ayrilib hush-u aqldin telba bo'lmay sog'lar.

Hayfkim ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog'lar.

Marham istab kimsadin, zahmi dil izhor aylasang,
Choraye qilmoqdin o'zga, ustig'a tirnog'lar.

Tobakay mundog' malomat kunjida doim Muqim,
Bu zamon ko'z tutgin emdi senga bo'lsin tog'lar.
(Muhammad Aminxo'ja Muqimiy)

Ikkinchi semestrda bajarish uchun tavsiya etiladigan mustaqil ish mavzulari:

1. "O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari"(madhiya, bayroq, gerb) matni tarjimasi va unda qo'llangan so'zlarning morfologik tahlili.
2. "Alp Er Tunga" matni tarjimasi va unda qo'llangan so'zlarning turkumlar bo'yicha tahlili.
3. "To'maris" matni tarjimasi va unda qo'llangan so'zlarning kelishiklar bo'yicha tahlili.
4. "O'zbekiston" matni tarjimasi va unda qo'llangan ot turkumiga oid so'zlar tahlili.
5. "Shiroq" matni tarjimasi va unda qo'llangan so'zlarning turkumlar bo'yicha tahlili.
6. "Toshkent" matni tarjimasi va unda qo'llangan sodda so'zlar tahlili.
7. "Mahmud Koshg'ariy" matni tarjimasi va unda qo'llangan ot, sifat, ravish turkumiga oid qo'shma so'zlar tahlili.
8. "Ibn Sino" matni tarjimasi va unda qo'llangan egalik hamda kelishik qo'shimchalari tahlili.
9. "Beruniy" matni tarjimasi, unda qo'llangan so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar tahlili.
10. "Forobiy" matni tarjimasi, unda qo'llangan qo'shma va juft so'zlar tahlili.

11. “Hadisshunos vatandoshlarimiz” matni tarjimasi va unda qo‘llangan kelishiklar tahlili.
12. “Spitamén” matni tarjimasi, unda qo‘llangan ot va olmosh turkumiga oid so‘zlar tahlili.
13. “Sohibqiron Amir Temur” matni tarjimasi va unda qo‘llangan yasama so‘zlar tahlili.
14. “Alisher Navoiy” matni tarjimasi va unda qo‘llangan sifat, son hamda yordamchi so‘zlar tahlili.
15. “Mirzo Ulug‘bek” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra tahlili.
16. “Bobur” matni tarjimasi va unda qo‘llangan soda, juft va qo‘shma so‘zlar tahlili.
17. “Nodira” matni tarjimasi, unda qo‘llangan sifat, son va ravish turkumiga oid so‘zlar tahlili.
18. “Samarqand” matni tarjimasi va unda qo‘llangan turdosh otlar tahlili.
19. “Kamoliddin Behzod” matni tarjimasi, unda qo‘llangan so‘zlarning turkumlar bo‘yicha tahlili.
20. “O‘zbekistonning hayvonot olami” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning morfologik tahlili.
21. “O‘zbekistonning o‘simliklar dunyosi” matni tarjimasi va unda qo‘llangan kelishiklar tahlili.
22. “Cho‘lpon” matni tarjimasi va unda qo‘llangan ot va fe‘l turkumiga oid so‘zlar tahlili.
23. “Abdulla Qodiriy” matni tarjimasi, unda qo‘llangan egalik va kelishik qo‘shimchalari tahlili.
24. “Oybek” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra tahlili.
25. “Abdulla Qahhor” matni tarjimasi va unda qo‘llangan sodda, juft, qo‘shma otlar tahlili.
26. “Abdulla Oripov” matni tarjimasi va unda qo‘llangan qo‘shimchalar tahlili.
27. “Erkin Vohidov” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning turkumlar bo‘yicha tahlili.
28. “Sharafli kasb” matni tarjimasi va unda qo‘llangan qo‘shimchalar tahlili.
29. “Salomatlik – tuman boylik” matni tarjimasi va unda qo‘llangan sifat, ravish, olmosh turkumiga oid so‘zlar tahlili.
30. “Yil fasllari” matni tarjimasi, unda qo‘llangan soda, juft va qo‘shma so‘zlar tahlili.
31. “O‘zbek kurashi” matni tarjimasi va unda qo‘llangan turdosh otlar tahlili.
32. “O‘zbek tili – davlat tili” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning morfologik tahlili.
33. “Samarqand davlat universiteti” matni tarjimasi va unda qo‘llangan ot, sifat turkumiga oid so‘zlar tahlili.
34. “Dam olish kuni” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning turkumlar bo‘yicha tahlili.

35. “Mening ish kunim” matni tarjimasi, unda qo‘llangan so‘zlarning turkumlar bo‘yicha tahlili.

36. “Milliy va zamonaviy bayramlar” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra tahlili.

Matnlar ustida mustaqil ishlash va referat yozish bo‘yicha taxminiy reja:

1. Tanlangan mavzudagi matn o‘zbek tilida husnixat qoidalariga rioya etgan holda oq qog‘ozga ko‘chiriladi.
2. Shu matnning rus(tojik) tiliga tarjima qilingan varianti ham qo‘lda ko‘chirib yoziladi.
3. Mavzuning nazariy qismi bo‘yicha grammatikaga oid material beriladi.
4. Mavzu bo‘yicha statistik material beriladi.
5. Statistik material asosida matn tahlil qilinadi.
6. Tahlil xulosalanadi.
7. Matn asosidagi o‘zbekcha-ruscha lug‘at ilova qilinadi.
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati beriladi.

Namuna

Mavzu: “Alp Er Tunga” matni tarjimasi va unda qo‘llangan so‘zlarning turkumlar bo‘yicha tahlili.

Reja

1. Matn husnixat qoidalariga rioya etilgan holda oq qog‘ozga ko‘chiriladi.
2. Matnning tarjima varianti qo‘lda oq qog‘ozga chiroyli qilib ko‘chiriladi.
3. O‘zbek tilining so‘z turkumlari haqida nazariy material (mustaqil so‘z turkumlari, ularning turlari, yordamchi so‘zlar turkumi, ularning turlari, alohida guruh so‘zlar turkumi, ularning turlari haqida axborot tarzidagi ma’lumotlar) beriladi.
4. Mavzu bo‘yicha statistik material beriladi.

Statistik material bo'yicha namuna

Gap	Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l	Ravish	Yordamchi va alohida guruh so'zlar
1.	Alp Er Tunga, milod, asr, turk, hukmdor, rivoyat	jasoratli, g'ayrat- shijoatli, vatanparvar, oldingi	VII	-	yashab, o'tgan, bo'lganligi	g'oyat, ko'plab	haqida, mavjud
2.	Forslar, Alp Er Tunga, Afrosiyob	-	-	-	deb, ataganlar	-	-
...							
...							

5. Matn statistik material asosida tahlil qilinadi.

6. Tahlil xulosalanadi.

7. Matn asosidagi o'zbekcha-ruscha(tojikcha) lug'at ilova qilinadi.

Lug'at

milod -

jasoratl -

hukmdor -

g'oyat -

vatanparvar -

rivoyat -

8. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

ALP ER TUNGA

Alp Er Tunganing miloddan oldingi VII asrda yashab o'tgan g'oyat jasoratli, g'ayrat-shijoatli, vatanparvar turk hukmdori bo'lganligi haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Forslar Alp Er Tungani Afrosiyob deb ataganlar. Afrosiyob va Alp Er Tunganing aslida bir kishi ekanligidan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarlari ham guvohlik beradi. Alp Er Tunga haqida xalq orasida doston ham yaratilgan bo'lib, bizgacha to'liq holda yetib kelmagan. Dostondan parchalar "Devonu lug'otit turk" asarida so'zlarni asoslash uchun misol tariqasida keltirilgan. Unda tasvirlanishicha, Alp Er Tunga turk beklari orasida nomi mashhuri, baxt-saodatlisi, katta bilim, ko'p hunar egasi bo'lgan hukmdordir.

Alp Er Tunganing ismi va qahramonliklari haqida turli tarixiy manbalar, badiiy asarlarda har xil fikrlar yuritilgan. Ammo bu manbalar Alp Er Tunganing shaxsi, hukmronlik qilgan davlati, yuritgan siyosati to'g'risida yetarlicha ma'lumot bera olmaydi.

Samarqandda Afrosiyob nomi bilan bog'liq shahar xarobalari saqlanib qolgan. Bu xarobalar Samarqandning miloddan oldingi VI asrdan melodiy XIII asrgacha bo'lgan hududi hamda o'sha davr hayotidan darak beradi. Afrosiyob xarobalaridan uy-joy qoldiqlari, turli-tuman ro'zg'or buyumlari, zargarlik bezaklari topilgan. Ayniqsa, Samarqand hukmdori saroyining xarobalari, uning devorlariga ishlangan ajoyib suratlar diqqatga sazovordir.

Alp Er Tunga vafoti haqida xalq orasida mashhur bo'lgan marsiyadan olingan quyidagi parchalar ham uning buyuk hukmdor bo'lganligidan dalolatdir:

Alp Er Tunga hoqon o'ldimi,
Yovuz ochun ortda qoldimi.
Falak undan o'chin oldimi,
Endi g'amgin yurak yonadir!

Zamon qurg'ur fursat poylaydi,
Unga maxfiy tuzoq shaylaydi.
Beklar begin yerga joylaydi,
Qochib qaydan imkon topadir?

Endi putur ketdi zamondan,
Ellar azob chekar yomondan.
Mehr-u shafqat kutma nodondan
Jahongir Er o'tar olamdan.

Adabiyotlar

1. Абдурахмонов Х., Рафиев А., Шодмонова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. 2-нашри. – Т.: Ўқитувчи, 1992.

2. Азизов А., Сафоев А., Жамолхонов Х. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1986.
3. Boltayev M. “O‘zbek tili”dan rus filologiyasi yo‘nalishi taalabalari uchun uslubiy tavsiyalar. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 2006.
4. Boltayev M. Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 2007.
5. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. Elektron darslik. www.samdu.uz/files/veb/index.htm
6. Исмоилов А.К., Лафасов У. II Ўзбек тили. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
7. Махмудова З., Усмонова Г. Рус гуруҳлари учун “Ўзбек тили”. Ўқув қўлланма. – Т.: 2002.
8. Mirzayev I., Boltayev M. O‘zbek tili. Darslik. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
9. Mirzayev I., Boltayev M. O‘zbek tili. Elektron darslik. www.samdu.uz/files/veb/index.htm
10. Muhiddinova X.S., Saliyeva S.I., Po‘latova X.S. O‘zbek tili. Darslik. – Т.: O‘qituvchi, 2012.
11. Rasulov R., Mirazizov A. O‘zbek tili. – Т.: “Aloqachi”, 2005.
12. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Т.: Ўқитувчи, 1965.
13. Сувонова Р. Ўзбек тилида метонимия. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. -108б.
14. Suvonova R. “Turkiy filologiyaga kirish” fanidan amaliy mashg‘ulot ishlanmalari. – Samarqand – 2010. -35b.
15. Узоқов Х., Мирзакаримова У., Саидова Р. Ўзбек тили амалиёти – Т.: Ўқитувчи, 1993.
16. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
17. Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: Фан, 1975.
18. Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг лингвистик луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2002.
19. Choriyev T., Safarova N., Istamova Sh. O‘zbek tili. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2008.
20. www.thinsan.com
www.dersimiz.com
www.altinmiras.com
www.zoyonet.uz

Mustaqil ta'lim bo'yicha variantlar

1-VARIANT

1. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Shoirning Hirotida tug'ilishi. 2. Shoir oilasidagi madaniy muhit. 3. Shoir ijodining boshlanishi. 4. Hirotidagi notinch vaziyat. 5. Alisher Navoiyning shoh va shoir Husayn Boyqaro bilan do'stligi. 6. Alisher Navoiy Samarqandda. 7. Husayn Boyqaro saltanat egasi. 8. Alisher Navoiy davlat arbobi. 9. Alisher Navoiyning xalq farovonligi yo'lidagi faoliyati. 10. Alisher Navoiy yaratgan asarlar. 11. Alisher Navoiy va fors-tojik adabiyoti. 12. Alisher Navoiyning umri oxirida yaratgan asarlari. 13. Alisher Navoiyning o'zbek adabiyoti va adabiy tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. 14. Alisher Navoiy xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Bo'g'in va urg'u mavzusiga doir tushunchalaringizni yozma bayon eting. Fikrlaringizni asoslash uchun bo'g'in va urg'u turlariga bir nechtdan misollar keltiring.

3. Nuqtalar o'rniga "d" yoki "t" harflaridan mosini qo'ying, so'zlarni tarjima qiling.

darax...	ozo. ...	... yelpak	...abrik
umi...	tan...ir	tobu. . .	dar.. .
...utun	davla. . .	tin. . .uv	oma . . .
...iyonat	ta...bir	maqsa. . .	...abassum
tax...	mar...	qa...iq	chigi...
...anbur	tanqi...	...anqis	...in
a...ala	ka...ak	...aqiqa	...utor
...anak	...oira	...ol	...erak

4. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мне подарили в день рождения интересную книгу. 2. Я поступил на исторический факультет СамГУ в 1999 году. 3. Моя старшая сестра учится в медицинском институте. 4. Анатолий попросил помощи у друзей. 5. Зулфия, когда вы были в кинотеатре в последний раз?

5. Quyida berilgan so'zlar ishtirokida darak, so'roq va buyruq gaplar tuzing. Ayting, keling, qanday, qayerda, so'radik, buyuraman.

6. So'zlarni tartib bilan qo'yib gaplar tuzing.

1. Bergan, bajardik, biz, o'qituvchi, vazifani.
2. Kunlari, yakshanba, bog'ida, istirohat, bo'ladi, ko'p, odam.
3. Fakultetimiz, joylashgan, ilmiy, universitet, yonida, kutubxonasi.
4. Bugun, faqat, qatnashmadi, majlisga, Feruza.
5. Bor, Samarqand, va, yodgorliklar, Xiva, tarixiy, Buxoro, o'nlab.
6. Olimpiadada, oldi, birinchi, kursdoshimiz, o'rinni.
7. Qiladi, hamma, hurmat, kishini, xushmuomala.

8. Qilishni, sayr, men, tongda, ko‘raman, yaxshi.
9. O‘z, kim, bajarsin, har, vazifasini.
10. Siz, bering, aytib, ko‘rganlaringizni, sayohatda, bu yil.

2-VARIANT

1. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Boburning Andijonda tug‘ilishi. 2. Uning o‘n ikki yoshida taxtga o‘tirishi. 3. Bobur va Samarqand. 4. Bobur Afg‘onistonda. 5. Boburning Hindistonga yurishi va Boburiylar imperiyasining tashkil topishi. 6. Boburning oilasi, farzandlari. 7. Boburiylar saltanatining davomchilari. 8. Bobur davlat arbobi, sarkarda, shoir, adabiyotshunos va tarixchi olim. 9. Bobur hayotining so‘nggi damlari. 10. Boburiylardan yetishib chiqqan ijodkorlar. 11. Bobur haqida yaratilgan asarlar. 12. Bobur xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Unli tovushlar va harflar mavzusiga doir o‘rganganlaringizni yozma bayon eting. Har bir unliga 5 tadan so‘z misol keltiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: aka, taraf, bag‘ir, sharshara, an‘ana. Nargizaning **akasi** bog‘da ishlashni yaxshi ko‘radi.

3. Nuqtalar o‘rniga “**p**” yoki “**f**” harflaridan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

...archa	..aydo	...aranji	...arzand
...uqaro	...ustin	qa. . .as	na...aqa
...ursat	...ast	ka...alak	ka...t
...arhyez	...alak	...arishta	ikr
sar...	sa...ar	ka...an	...arq
...o‘lat	tavsi...	tasodi...	...aqir
to‘...on	to‘...	tur...	tu...roq
...o‘st	...asl	na...as	...arvarda

4. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Эту работу нужно закончить сегодня. 2. Сейчас сюда должен прийти Уткир и мы с ним пойдем в музей. 3. Ты сейчас должен повторит вот это стихотворение. 4. Мне можно прочитатъ эту статью? 5. Эту работу должны выполнить старшекурсники.

5. Quyida berilgan so‘zlar ishtirokida ikkitadan darak, so‘roq va buyruq gaplar tuzing.

Tarjima qiling, o‘qing, qayoqqa, kimga, terdik, ko‘raman.

6. So‘zlarni tartib bilan qo‘yib gaplar tuzing.

1. Yuving, ovqat, qo‘lingizni, oldin, yeyishdan, sovunlab.
2. Daraxtlar, barcha, bog‘imizdagi, gullaydi, bahorda.
3. Tabrikladim, bayrami, yangi yil, men, onamni, bilan.
4. Sen, o‘qiding, davlat tili, haqida, gazetadan, maqola.
5. Samarqand, oqib o‘tadi, yonidan, daryosi, Zarafshon, shahri.
6. Kaliti, baxt, mehnat.

7. Sog‘, doimo, bilan, badantarbiya, bo‘lay, shug‘ullaning, desangiz.
8. Soat 8 da, chiqaman, ertalab, men, har kuni, uydan.
9. Bo‘sh, vaqtingizda, shug‘ullanasiz, siz, bilan, nima?
10. Ahmoq, ayblaydi, o‘zini, do‘stini, dono.

3-VARIANT

1. Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Kamoliddin Behzodning Hirotda tug‘ilishi. 2. Uning oilaviy ahvoli. 3. Behzodning iste’dodi. 4. Behzodning birinchi ustoz. 5. Behzodning Alisher Navoiy homiyligidagi ijodi. 6. Behzodning Husyn Boyqaro saroyiga taklif etilishi. 7. Behzod tasvirlagan buyuk shaxslar. 8. Behzod va Sharq miniaturachilik maktabi. 9. Behzod ijod qilgan davr. 10. Behzod xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Undosh tovushlar va harflar mavzusiga doir o‘zlashtirgan nazariy fikrlaringizni yozma bayon eting. Har bir undoshga bir necha misollar keltiring.

3. Nuqtalar o‘rniga “o” yoki “a” harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va ularni tarjima qiling.

jodug...r,	varr...k,	j... nli,	b. . la,	s . . vlat,
v. . .tan,	d...ira,	b...dan,	b...tqoq,	b...g‘cha,
b...xt,	janj...l,	d...no,	t...rt,	b. . .rvaqt,
j...nivor,	v...raq,	alb...tta,	g‘...rb,	bog‘b. . .n,
b...shoq,	bolg‘...	gavh...r,	...mal,	..shqozon,
t...ng,	b...ng	j...ng	z...ng	s...s
b...xil	s...xiy	s...hil	n...m	d...vlat
b...l...	qul...q	t...g‘...ra	q...rz	s...riq

4. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Его очень обрадовала телеграмма от родителей. 2. В Ташкенте очень много замечательных памятников искусства. 3. Меня разбудил уличный шум. 4. Рабочие закончивают строительство новой дороги. 5. Соседи за дверью тихо разговаривали.

5. Quyida berilgan so‘zlar ishtirokida ikkitadan darak, so‘roq va buyruq gaplar tuzing.

Ko‘ring, javob bering, kimdan, nimani, olaman, izladik.

6. So‘zlarni tartib bilan qo‘yib gaplar tuzing.

1. Ketadi, uchib, qaldirg‘ochlar, janubga, kuzda.
2. Kursdoshlarimiz, ertaga, bilan, boramiz, Registonga, darsdan so‘ng.
3. Chetida, yo‘l, to‘xtadi, avtobus, sekin.
4. Men, yozdim, haqida, tabiati, O‘zbekiston, insho.
5. Yetishtirdilar, hosil, mo‘l, paxtakorlar, paxtadan, bu yil.
6. Shanbalikda, tozaladilar, talabalar, bugun, universitetning, hovlisini.

7. Sifatli, yuqori, zig‘irdan, olinadi. moy.
8. Alisher Navoiyning, o‘qib berdi, o‘qituvchimiz, g‘azallaridan, bugungi, darsda.
9. Majlislar, universitetning, zalida, bilan, O‘zbekiston Qahramoni, bo‘ladi, uchrashuv, ertaga.
10. “Zarafshon”, obuna bo‘ldim, bu, men, yil, gazetasiga, ham,.



1. Shoira Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Mohlaroyim Nodiraning Andijonda tug‘ilishi. 2. Uning ilk saboqlari. 3. Shoira ijodining boshlanishi. 4. Nodira – malika. 5. Nodira va Qo‘qon adabiy muhiti. 6. Nodira hayotidagi fojea. 7. Nodira ijodidagi ayriliq, firoq mavzularining asosi. 8. Nodira xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. So‘z tarkibiga doir o‘rgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting. So‘zning o‘zagi hamda qo‘shimchalarning turlariga bir nechtdan misollar keltiring.

3. Quyidagi gaplardan atoqli va turdosh otlarni aniqlang. Otlarni ajratib yozib, yoniga qanday so‘roqqa javob bo‘lishini ko‘rsating.

1. Javohir Toshkentdagi amakisiga kecha xat yozdi va uni konvertga solib jo‘natdi. 2. O‘qituvchi darsni tushuntirdi, o‘quvchilar diqqat bilan tinglashdi. 3. Tong otdi, quyosh chiqdi va havo isidi. 4. Rahima kitob o‘qidi, Salima xat yozdi. 5. Majlis tugadi, yosh havaskorlar to‘garagi a‘zolari ota-onalarga konsert qo‘yib berishdi. 6. Karim uni ko‘rdi, qo‘lida kitoblar borligi uchun to‘xtatmadi. 7. Yomg‘ir tindi, ammo hali ham kuchli shamol esmoqda. 8. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar.

4. O‘rtoq, telpak, singil so‘zlarini egalik qo‘shimchalari bilan birlik va ko‘plik sonda turlang, ular ishtirokida 3 ta gap tuzing. **Namuna:**

Birlikda		Ko‘plikda	
I shaxs	ism im	I shaxs	ism imiz
II shaxs	ism ing	II shaxs	ism ingiz
III shaxs	ism i	III shaxs	ism lari

1. Tarjimayi holingizda **ismingiz** va familiyangizni to‘g‘ri va to‘liq yozishga odatlaning. 2. Kishilarning **ismi** va familiyasi o‘rniga laqabini tutib chaqirish yaxshi odat emas. 3. Ota-onaning farzand oldidagi eng muhim vazifalaridan biri unga chiroyli **ism** qo‘yishdir.

5. Nuqtalar o‘rniga tegishli kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Men farg‘onalik do‘stim Baxtiyordan... xat oldim. 2. Biz har yili bahor... oilamiz bilan Nurato tog‘i... chiqamiz. 3. O‘ktam bilan Aktam tibbiyot instituti... o‘qishadi. 4. Shu kitobingiz... men... ham bering. 5. 1996-yil buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur... 660 yillik to‘yi nishonlandi. 6. Nargiza xalqimiz

tarixiga oid ilmiy kitoblar... o'qish... yaxshi ko'radi. 7. Qo'shnimiz... o'g'li teatr..., qizi esa viloyat televideniyesi... ishlaydi. 8. Uning ko'zi dugonasi... barmog'idagi uzuk... tushdi. 9. Mehmonlar shahrimiz... ko'pgina tarixiy joylari... bo'lishdi. 10. Siz bu safar savollar... noto'g'ri javob berdingiz.

6. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Скоро день рождения моего младшего брата Анвара. 2. Почему ты не хочешь посоветоваться с братом? 3. На улице она встретила подругу и долго разговаривала с ней. 4. Мы попросили продавца показать нам чёрные брюки. 5. Вчера к нам приехали гости из Турции.

5-VARIANT

1. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat tug'ilgan davr. 2. Uning yoshlik yillari. 3. Shoir ijodining boshlanishi. 4. Furqat va Qo'qon adabiy muhiti. 5. Furqatning Toshkentdagi hayoti, ijodi. 6. Furqat va o'zbek publitsistikasi. 7. Furqatning chet ellardagi hayoti va ijodi. 8. Furqat ijodiy merosi. 9. Furqat ijodida ayriq mavzusi. 10. Furqat xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari bo'yicha o'rgangan bilimlaringizni yozma bayon eting. Sodda, qo'shma va juft so'zlarga bir nechtdan misollar keltiring hamda ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: *kitob, kitobxon, toshbaqa, yeryong'oq, ota-ona, oq-qora.* Kitob – bilim manbayi. Bugun kutubxonada kitobxonlar anjumani bo'ladi. Toshbaqa uzoq umr ko'radi. Yeryong'oq qandolatpazlikda keng qo'llaniladi. Biz ota-onamizga mehribon bo'lishimiz kerak. Oltimishinchi yillarda oq-qora tasvirli televizorlar ko'plab ishlab chiqarilgan edi.

3. Istak, qishloq, shahar, nutq, erk so'zlarini egalik qo'shimchalari bilan birlik va ko'plik sonda turlang hamda ular ishtirokida gaplar tuzing.

4. Nuqtalar o'rniga "o'" yoki "u" harflaridan mosini qo'ying va so'zlarni tarjima qiling.

t...rmush,	t...rt,	... lug',	ng,	...zum,
...yin,	...n,	...mid,	q. . .rt,	q....ruq,
q...m,	...g'il,	...nvon,	...zun,	...yinchoq,
...y,	...roq,	...rush,	t...g'ri,	m...shuk,
k...z,	...nli,	q...riq,	...yqu,	k...mush,
...zr,	z...r,	t...z,	b...z,	q...shiq,
s...y,	t...nli,	b...loq,	...loq,	q...loq,
...g'ri,	...zuk	q...sh,	t...sh,	b...sh,

5. Nuqtalar o'rniga tegishli kelishik qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Akam do'stlari bilan erteleb kutubxona... ketdi. 2. Amakim... bog'i... mevali va manzarali daraxtlar, rang-barang gullar o'sadi. 3. Bibisora, siz dars...

so'ng qayer... borasiz? 4. Intizor o'zbek tili va adabiyotiga oid bu kitoblar... kim... oldi? 5. Biz har yili kuz... qishloq... qovun sayli... boramiz. 6. Bugun qo'shnimizniki... Toshkent... mehmonlar kelishdi. 7. Men bo'sh vaqtim... musiqa tinglash, badiiy asarlar o'qish, sport bilan shug'ullanish, ota-onamga yordam berish bilan o'tkazaman. 8. Dars qilib bo'lgach, daftarlarim..., kitoblarim... kitob javoni... qo'yaman. 9. Men u qiz... taniyman, u ham universitet... o'qiydi. 10. Men o'qiyotgan fakultet shahar... markazi... joylashgan.

6. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Все народы земли мечтают о мире. 2. Собир пригласил их к себе в гости. 3. Учитель похвалил её письменную работу. 4. Я хочу познакомиться с вашей семьей. 5. Вчера он позвонил по телефону своему другу.

6-VARIANT

1. Muhammad Aminxo'ja o'g'li Muqimiy hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Muhammad Aminxo'ja o'g'li Muqimiy tug'ilgan davr. 2. Uning yoshlik yillari. 3. Muqimiy tahsil olgan maktab va madrasalar. 4. Shoir ijodining boshlanishi. 5. Muqimiy hayotidagi o'zgarishlar. 6. Muqimiy va Qo'qon adabiy muhiti. 7. Muqimiyning sayohatlari va ularning shoir ijodidagi o'rni. 8. Muqimiy ijodiy merosi. 9. Muqimiy hajviyalari. 10. Muqimiy xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Ish qog'ozlari yuritish bo'yicha lug'at tuzing.

3. Turdosh, atoqli, aniq, mavhum otlarga doir o'rgangan nazariy fikrlaringizni yozma bayon eting, otning har bir turiga bir nechtdan misol keltiring va ular ishtirokida 4 ta gap tuzing.

Namuna: yaproq, qaldirg'och, Samarqand, Zatarshon, gul, quyosh, bolalik, quvonch... 1. Kuzda yaproqlar sarg'ayadi. 2. Qaldirg'ochlar bahorda issiq o'lkalardan o'z inlariga uchib keladi.

4. Hovli, bog', eshik, xalq so'zlarini kelishik qo'shimchalari bilan turlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

5. Nuqtalar o'rniga tegishli egalik qo'shimchalarini qo'ying va gaplarni ko'chiring.

1. O'zbek tili kitob...ni o'qituvchi...ga berdim. 2. Universitet...ning katta majlislar zal... bor. 3. O'rtoq...ning singil... ikkinchi kursda o'qiydi. 4. Men har kuni uka...ni bolalar bog'cha...ga olib boraman. 5. Do'st... , aqlli odam yaqin kishi...ni hech qachon xafa qilmaydi. 6. Sizning bog'...da qanday daraxtlar bor? 7. Ertalab yuz-qo'l...ni yuvib, nonushta tayyorlayman. 8. Men bo'sh vaqt...ni bekor o'tkazmayman. 9. Tish... og'risa, til...ni, ko'z... og'risa, qo'l... ni tiy. 10. Qo'ng'iz bola...ni oppoq..., tipratikan bola...ni yumshoq... der ekan.

6. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Больному срочно нужна была медицинская помощь. 2. Моя дочь хотела поступить в университет. 3. Через пять минут спектакль начался. 4. В субботу у нас была лекция о международном положении. 5. Он был занят трудом с раннего утра до позднего вечера.

7. Nuqtalar o‘rniga “ye” harflar birikmasi yoki “e” harfidan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring va ularni tarjima qiling.

...rka,	...lka,	...chki,	...rk, .
...gri,	...naga,	...chmoq,	...ngli,
...’lon,	...ski,	...llik,	...ngmoq,
...rtak ,	...lpig‘ich,	...giz	...rtapishar,
...lak,	...tak,	...tuk,	...mish,
...tti,	...tmish,	... ng ,	... pchil,
...ngiltak,	... tim,	... l,	... lchi,
...’tibor,	...lim,	...htimol,	...kin

7-VARIANT

1. Buyuk davlat arbobi Amir Temur hayoti va faoliyati haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Amir Temur tug‘ilgan davr. 2. Uning yoshlik yillari. 3. Amir Temur qiziqqan sohalar. 4. Mamlakatda mo‘g‘ul istilochilari olib borgan siyosat. 5. Amir Temurning yurt mustaqilligi uchun qilgan sa’y-harakatlari. 6. Amir Temur tuzgan buyuk davlat. 7. Samarqand Amir Temur saltanati poytaxti. 8. Amir Temur davlatida ilm-fan, madaniyat, qurilish, mamlakatlararo aloqalar. 9. Amir Temurning “Temur tuzuklari” kitobi. 10. Amir Temur davlati va siyosatining ahamiyati. 11. Temuriylar sulolasi davomchilari.

2. Tarjimayi holingizni yozing.

3. Kelishiklar bo‘yicha o‘rgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting. Kelishik qo‘shimchalari bilan turlangan so‘zlar asosida 5 ta gap tuzing.

4. Quyidagi ustunlardan birini tanlab, undagi so‘zlarni egalik qo‘shimchalari bilan turlang va ular ishtirokida bittadan gap tuzing.

a) ko‘ngil	b) o‘rtoq	v) vatan
qarmoq	ustoz	qalpoq
xona	bo‘yin	singil
qalam	ko‘za	bilak

Namuna:

Birlikda

Ko‘plikda

I shaxs	qalpog‘ im	I shaxs	qalpog‘ imiz
II shaxs	qalpog‘ ing	II shaxs	qalpog‘ ingiz
III shaxs	qalpog‘ i	III shaxs	qalpoqlari

1. Avtobusda kimdir qalpog‘ini unutib qoldiribdi. 2. Shamol zo‘raygach, qalpog‘imizni bostirib kiyib oldik. 3. Do‘konning peshtaxtasiga turli-tuman

qalpoqlar terib qo'yilgan. 4. Bu masalada Hoshimjon Ro'ziyevning sehrli qalpog'i ham senga yordam bera olmaydi.

5. Quyidagi so'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozing:

Balandparvoz, zararsizlantirmok, tushunmovchilik, qaramog'imizdagi, sudraluvchilar, rejalashtirolmaganliklaringizdanmasmikan.

6. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Наш город находится на берегу реки Зерафшан. 2. В этом году я подписался на газету «Народное слово». 3. Все трудящиеся борются за мир во всем мире. 4. Мы раньше не знали историю своего города. 5. Здание физического факультета СамГУ новое, высокое и красивое.

7. Nuqtalar o'rniga "ye", "yo", "yu", "ya" harf birikmalaridan mosini qo'yib, ko'chiring va so'zlarni tarjima qiling.

qu...q	qi...q	tu...q	...ntoq
...gurmoq,	...maloq,	...zuvchi,	...lvormoq,
b...hayo,	...proq,	...ngi,	...lg'on,
...vinmoq,	...tuq,	...xlamoq,	...lmog'iz,
...mshoq,	...lg'iz,	...pqa,	...rak,



1. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Abu Ali ibn Sino yashagan davr. 2. Uning yoshlik yillari. 3. U tahsil olgan madrasalar. 4. Olim ilmiy faoliyatining boshlanishi. 5. Abu Ali ibn Sinoning yurtidan tashqaridagi hayoti. 6. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari. 7. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosi va ularning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni. 8. Abu Ali ibn Sino xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Tavsifnoma namunasini yozing.

3. Egalik kategoriyasi haqida o'rgangan nazariy fikrlaringizni yozma ravishda bayon eting. Egalik qo'shimchalari bilan turlangan so'zlar ishtirokida bir necha gap tuzing.

4. Nuqtalar o'rniga "i" yoki "u" harflaridan mosini qo'ying va ularni tarjima qiling.

...rmoq,	tuz...m,	yoz...sh,	yoz...v,
bul...t,	ko'r...k,	qur...q,	...t,
o'r...k,	bo'y...n,	ur... g',	kum...sh,
o'r...n,	ko'ng...l,	to'lq...n,	mud...r,
chiz...sh,	chiz...q,	to'q...moq,	mumk...n,
uchq...n,	huq...q,	qosh...q,	q...ziq.

5. Nuqtalar o‘rniga tegishli kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Biz... ko‘chamiz... chinor daraxtlari ekilgan. 2. Bobomlar... ko‘rgani qishloq... boramiz. 3. Siz go‘sh... qayer... sotib olasiz? 4. Biz kelgusi yakshanba... gerbariy to‘plash uchun tog‘... chiqamiz. 5. Tog‘am... qizi iqtisod fakulteti... bitirdi. 6. Kimdir eshik... taqillatmas... sinf... kirdi. 7. Bahor... hovlimiz... mevali daraxt va gul ko‘chatlari ekamiz. 8. Hamshira... qo‘li... ikkita qizil olma bor edi. 9. Uy... vazifa... o‘z vaqti... bajarish kerak. 10. Terimchilar bugun paxta dalasi... kech qaytishdi.

6. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Библиотека нашего университета открывается в восемь часов утра. 2. Эти предложения записывайте в тетрадь и переведите письменно. 3. Где и кем работает отец этого студента? 4. Мы шли пешком полтора километра. 5. Последние годы в Узбекистане построены сотни заводов и фабрик.

7. Quyidagi darak gaplarni so‘roq gaplarga aylantiring.

1. O‘qituvchimiz rahbarligida Qo‘qon shahriga va u yerdagi adabiyot muzeyiga bordik. 2. Qarchig‘ay qishlog‘ida ikki qavatli maktab qurilishi boshlandi. 3. Qishki imtihonlar sessiyasining boshlanishiga bir hafta qoldi. 4. Biz Turkmanistondan kelgan shoirlar va yozuvchilar bilan uchrashdik. 5. Mastura G‘afur G‘ulomning “Vaqt”, “Sen yetim emaccan” she‘rlarini yod oldi. 6. Talabalar chet ellik tengdoshlarini kutib olish uchun aeroportga chiqishdi. 7. Uyimizning derazalari ko‘chaga qaragan. 8. Bu fermada tovuq, o‘rdak, g‘oz va kurkalar boqiladi. 9. Natasha o‘zbekcha mantlarni tez va xatosiz o‘qiydi. 10. O‘zbekistonda o‘ttiz milliondan ortiq aholi yashaydi.



1. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Abu Rayhon Beruniy yashgan davr. 2. Olimning yoshlik yillari. 3. U tahsil olgan madrasalar. 4. Olim ilmiy faoliyatining boshlanishi. 5. Abu Ali ibn Sino bilan ilmiy va do‘stlik aloqalari. 6. Abu Rayhon Beruniyning yurtidan tashqaridagi hayoti. 7. Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi va ularning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o‘rni. 8. Abu Rayhon Beruniy xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Tavsiyanoma namunasini yozing.

3. Sifat mavzusi bo‘yicha o‘rgangan tushunchalaringizni yozma ravishda bayon eting. Sifatlar ishtirok etgan 4 ta gap tuzing.

4. Nuqtalar o‘rniga “x” yoki “h” harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va so‘zlarni tarjima qiling.

ba...t,	...azina,	guno...,	ollo...,
...alq,	...ozir,	ja...on,	a...vol,

ta...ir,	... osil,	...at,	...asis,
podsho...,	... ursand,	...arf,	do‘za...,
mi...,	tari...,	nar. . .,	sho‘...,
a...oli,	ni...ol,	...atar,	sa...ar,
mo...ir,	za...ar,	ba...or,	gav...ar

5. Nuqtalar o‘rniga tegishli kishilik olmoshlarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. ... bugun darsdan so‘ng biznikiga kelasanmi? 2. ... Alisher Navoiy va Amir Temur haykallari poyiga gullar qo‘ydik. 3. ... “O‘zbek tili” darsligini kitoblar rastasidan sotib oldim. 4. ... o‘zbek tilidan olimpiadaga tayyorlanyapti. 5. ... Bobur haqidagi yangi filmni ko‘rganmisiz? 6. ... bu chiroyli gullarni qanday o‘stirgansiz? 7. ... darsga kecha ham kelgani yo‘q. 8.... sport musobaqalarida faxrli o‘rinlarni egalladilar. 9. ... ertaga yangi gazeta va jurnallar olib keling. 10. ... ham mehmonlarni kuzatib qo‘yish uchun aeroportga chiqadilarmi?

6. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Без удобрений растения не дают высокий урожай. 2. Для студентов сегодня привезли учебные принадлежности. 3. Наш университет носит имя великого узбекского поэта Алишера Навои. 4. На улице Мирзо Улугбека находится областная больница. 5. За городом начинаются поля и зелёные сады.

7. Quyidagi sinonim so‘zlar qatorini davom ettiring.

1. Yuz, bet, ...
2. Yurak, qalb....
3. Chiroyli, go‘zal, . . .
4. Uyatsiz, benomus, . . .
5. Ozgina, bir oz, . . .
6. G‘am, qayg‘u, . . .
7. Yaramas, iflos, . . .
8. O‘rtoq, do‘st, . . .
9. O‘lmoq, vafot etmoq, ...
10. Sevinmoq, suyunmoq



1. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy hayoti va ilmiy faoliyati haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Abu Nasr Forobiy yashgan davr. 2. Abu Nasr Forobiy tahsil olgan madrasalar. 3. Olim ilmiy faoliyatining boshlanishi. 4. Abu Nasr Forobiyning yurtidan tashqaridagi hayoti. 5. Abu Nasr Forobiy ilmiy merosi va ularning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o‘rni. 6. Abu Nasr Forobiyning til

o'rganish mahorati. 7. Abu Nasr Forobiy dahosiga berilgan yuksak baho. 8. Abu Nasr Forobiy xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Tilxat namunnalarini yozing.

3. Sifat darajalari mavzusi bo'yicha o'rgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting va uning har bir turiga ikkitadan gap tuzing.

4. So'zlarni tartib bilan qo'yib gaplar tuzing.

1. O'zbek tilini, o'rganmoqdamiz, ikki, yildan beri, biz.

2. Keladi, akam, soat 17 da, bugun, ishdan.

3. Markazida, shahrining, Toshkent, yashaymiz, biz.

4. Dugonasiga, Madina, yozyapti, xat, qishloqdagi.

5. Sadriddin, o'qiyapti, kitob, xonasida, hozir.

6. Boramiz, ertalab, biz, har kuni, piyoda, ishga.

7. To'ldirib, uchyapti, kabutarlar, bir gala, osmonni.

8. O'rganyapsiz, qachondan beri, o'zbek tilini, siz?

9. Lug'at yordamida, tarjima qilyapman, men, matnni, rus tilidan.

10. O'rtoqlarimizni, kutib turibmiz, bir, soatdan beri, biz.

5. Quyidagi sifatlarni tarjima qiling, ular ishtirokida bir nechta gap tuzing.

большой

близкий

высокий

круглый

синий

великий

крупный

плохой

старший

белый

скромный

длинный

младший

светлый

отличный

сильный

красивый

голубой

тяжёлый

интересный

хороший

6. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

ОСЕНЬЮ

Осенью в сельских районах очень много работы. На полях созревает хлопок. На бахчах поспевают арбузы, дыни. На огородах – лук, капуста, помидоры, огурцы, редка и репа. Крестьяни вырастили богатый урожай. Надо его скорее убрать. Утром все идут в поле. Они собирают хлопок, овощи и фрукты. Крестьянам помогают студенты, рабочие, школьники.

7. Quyidagi so'zlarning antonimlarini toping.

aqlli –

baland –

bemaza –

kovlamoq –

oriq –

dangasa –

gunoh –

yengil –

muzlamoq –

oson –

yopiq –

yotmoq –

yig'i –

mag'lubiyat –

qora –

kalta –

katta –

kecha –

la'nat –

toza –

1. Hadisshunos olim Imom Ismoil Buxoriy hayoti va faoliyati haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Imom Ismoil Buxoriy tugʻilgan davr. 2. Ular oilasidagi madaniy muhit. 3. Ismoil Buxoriy ilmiy faoliyatining boshlanishi. 4. Ismoil Buxoriyning buyuk muhaddislardan olgan saboqlari. 5. Ismoil Buxoriy yaratgan ilmiy-diniy asarlar. 6. Ismoil Buxoriy Buxoro va Samarqandda. 7. Ismoil Buxoriyning hadis ilmiga qoʻshgan hissasi. 8. Ismoil Buxoriy maqbarasi.

2. Hisobot namunasini yozing.

3. Ravish soʻz turkumi va uning maʼno turlari mavzusi boʻyicha oʻrganganlaringizni yozma bayon eting. Ravishning turlari boʻyicha bittadan gap tuzing.

4. Quyidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Учитель узбекского языка объяснил задание и записал его на доске. 2. Девочки читали новую книгу и пользовались русско-узбекским словарём. 3. Природа нашей родной страны богата и разнообразна. 4. В этом году мой близкий друг поступил на лечебный факультет Самаркандского медисинского института. 5. Я только что получил от тебя письмо и сразу спешу на него ответить.

5. Oʻz ish kuningiz haqida kichik hajmli matn tuzing.

6. Quyidagi gaplarni soʻroq olmoshlari, soʻroq yuklamalari va ohang yordamida soʻroq gaplarga aylantiring.

1. Yaqinda akam harbiy xizmatdan boʻshab keladi. 2. Shundan soʻng biz gilos tagidagi salqin soʻriga chiqib dam oldik. 3. Biz hayvonot bogʻida yoʻlbars, arslon, boʻri, ayiq, tulki, jayra, burgut, kiyik va har xil ilonlarni tomosha qildik. 4. U doʻstini kuzatib qoʻyish uchun soat beshga taksi chaqirdi. 5. Boyoʻgʻli turli kemiruvchi va zararkunandalarni tutib, qishloq xoʻjaligiga katta foyda keltiradi. 6. Xonaki gullarga har kuni kechqurun ozgina suv quygan maʼqul. 7. Usmon Nosir qisqa hayoti davomida toʻrt sheʼriy kitob, bir doston va bir sheʼriy drama yozib qoldirdi. 8. Janubiy Amerikada yashovchi hindular yovvoyi holda oʻsgan kartoshkani bundan oʻn toʻrt ming yil ilgari topganlar. 9. Biz togʻda dam olib, lola, qizgʻaldoq, chuchmoma kabi gullardan terib qaytdik. 10. Hovuzda boʻyi bir metr keladigan laqqa baliqlar suzib yurardi.

7. Quyidagi parchadan avval kelishik qoʻshimchalarini olgan otlarni yozib oling, ularning qaysi kelishikdaligini koʻrsating, keyin feʼllarni koʻchirib yozing va qoʻshimchalarini izohlang.

Bir kuni shaharda it yetaklab yurgan kishi eʼtiborimni tortdi. Yaqinroq borib qarasam, aksincha, it egasini yetaklab yurgan ekan. Chunki haligi kishining koʻzlari ojiz edi. Ular koʻchani kesib oʻtishdi, doʻkondan non, sut xarid qilishdi va orqaga qaytishdi. Yoʻlda egasi sartaroshxonaga kirdi, it esa eshik oldida uni poylab oʻtirdi.

Namuna: shaharda, **-da**, o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi; yetaklab, **-la** fe‘l yasovchi qo‘shimcha, **-b** ravishdosh qo‘shimchasi. . .

12-VARIANT

1. Tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariy hayoti va faoliyati haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Mahmud Koshg‘ariy tug‘ilgan davr. 2. Mahmud Koshg‘ariy ilmiy faoliyatining boshlanishi. 3. Mahmud Koshg‘ariy yaratgan ilmiy asarlar. 4. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari. 5. “Devonu lug‘otit turk” asarining ilmiy qimmati. 6. Mahmud Koshg‘ariy xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Ishinch xati namunalarini yozing.

3. Yordamchi so‘zlar turkumi, ularning turlari va vazifalari haqida o‘rganganlaringizni yozma bayon eting. Yordamchi so‘zlar ishtirok etgan bir necha gap tuzib, misollar keltiring.

4. O‘zingiz o‘qiyotgan fakultetingiz haqida qisqa hajmli matn tuzing.

5. 1. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Все студенты слушали интересный рассказ известного писателя. 2. Я выполнил в срок работу, которую мне поручили. 3. Почему морская вода не годится для питья? 4. Если завтра будет хорошая погода, мы будем тренироваться на стадионе. 5. Мирзо Улутбек уделял большое внимание строительству городов и развитию наук.

2. N.Sherinaning “O‘zbekiston” she‘ridan olingan quyidagi parcha mazmunini o‘zbek tilida aytib bering.

Узбекистан – мой край родной,
Цветущая долина.
Не знаю Родины другой,
Мне только ты любима.

И больше нет для нас родней,
Дороже, краше и милей.
Любимый мой Узбекистан,
Я всю любовь тебе отдам.

6. Quyidagi ravishlarni rus tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

sekin	piyoda	darrov	majburan
kecha	eng	qo‘qqisdan	allaqachon
hamisha	keyin	mo‘l	aslo
yaqinda	ilgari	birga	ataylab
kechqurun	bultur	noiloj	mardlarcha

7. Gaplarni ko‘chiring. Gap bo‘laklarini aniqlang va ularning tagiga chizing. Yordamchi so‘zlar turkumiga xos so‘zlarni ajratib oling va izohlang.

1. Nahotki, siz ham menga ishonmasangiz? 2. Birpasdan so‘ng yalt-yult etib chaqmoq chaqdi va gumbur-gumbur qilib momaqaldiraq gulduradi. 3. Demak, siz hammasiga rozisiz. 4. Uf, yana shu odamga so‘z berildimi, endi kechgacha

gapiradi. 5. Siz o‘z so‘zingazda turishingiz mumkin, faqat so‘zlaringizga bizni ishontiring. 6. Bugun havo bulut bo‘ldi, ammo na yomg‘ir, na qor yog‘di. 7. Ikkala o‘rtoq suhbatlashib maktab tomon ketishdi. 8. Biz bu qadimiy shaharning tarixi haqida ko‘p narsa bilmaymiz. 9. Ayrim talabalar vaqtida dars tayyorlamaganliklari uchun sinovlarni topshira olishmadi. 10. Registongacha avtobus bilan bordik.

13-VARIANT

1. Shoir va yozuvchi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Oybek yashagan davr. 2. Oybek tahsil olgan va ta‘lim bergan o‘quv yurtlari. 3. Shoirning ijodiy faoliyati. 4. Oybekning she‘riy asarlari va dostonlari. 5. Adibning nasriy asarlari. 6. Oybek romanlari. 7. Oybek tarjima qilgan asarlar. 8. Oybek xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Tushuntirish xati namunalarini yozing.

3. Son va uning turlari mavzusi bo‘yicha o‘rganganlaringizni yozma ravishda bayon eting va uning har bir turiga bittadan gap tuzing.

4. Quyidaga she‘rdan sifatga oid so‘zlarni aniqlang va ularning ma‘nosini izohlang.

YAXSHI BOLA – HAYOT NAQSHI

Yaxshi bola – chiroyli gul,
Chiroyli qush – xushxon bulbul.
Qovoqlari ochiq doim,
So‘zi shirin va muloyim.
Kattalarga izzatda – u,
Oilada xizmatda – u.
Chaqqon oyoq, rostni so‘zlar,
O‘nta gapdan birni ko‘zlar.

Sevgan do‘sti – kitob-oftob,
Qoidasi axloq – odob.
Maqtanishning hech o‘zi yo‘q,
Gaplarida “sen” so‘zi yo‘q.
Biram sodda kiyinishda,
O‘qiydi u “to‘rt” va “besh”ga.
Yaxshi bola – hayot naqshi,
Yaxshilik nom qanday yaxshi!(Obid Rasul)

5. Nuqtalar o‘rniga tegishli egalik qo‘shimchalarini qo‘ying va gaplarni tarjima qiling.

1. Nasiba kecha ertalab o‘z... kirib keldi. 2. Avval o‘z...ga boq, so‘ngra nog‘ora qoq, degan maqol bor. 3. Hech qachon o‘z... bilaman deb mag‘rurlanmaslik kerak. 4. O‘z...ga kerakli barcha o‘quv qurollari, darslik va qo‘llanmalarni sotib oldim. 6. Aqlli kishi o‘z...ni maqtamaydi, uni ishiga qarab boshqalar maqtaydi. 7. O‘z...ning kamchiliklaringizni o‘z... sezmasligingiz mumkin. 8. Faqat o‘z...ni o‘ylaydigan odam el nazaridan qoladi. 9. Yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklarni o‘z... tuzatamiz. 10. O‘z vaqtida bajarilmay qolgan bu ish uchun ularning o‘z... javob beradilar.

6. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Поэты и композиторы в своих стихах и песнях славят родину. 2. Земля вращается вокруг Солнца. 3. Наш учитель рассказал нам много интересного об истории Самарканда. 4. Они интересуются историей и географией солнечного Узбекистана.

7. Quyidagi sinonim so‘zlar qatorini davom ettiring.

- | | |
|---------------------------------|----------------------------|
| 1. Avval, ilgari, ... | 7. Qarindosh, urug‘, ... |
| 2. Vatan, mamlakat. . . | 8. Hamma, barcha, ... |
| 3. Jilmaymoq, kulimsiramoq, ... | 9. Qobiliyat, layoqat, ... |
| 4. Istak, xohish... | 10. Puxta, pishiq, ... |
| 5. Katta, ulug‘, ... | 11. Yuz, bet, ... |
| 6. Mazali, lazzatli, ... | 12. Do‘st, o‘rtoq, ... |

14-VARIANT

1. Shoir G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. G‘afur G‘ulom yashgan davr. 2. G‘afur G‘ulomning og‘ir kechgan yoshlik yillari. 3. Shoir ijodining boshlanishi. 4. G‘afur G‘ulom she‘riyati. 5. G‘afur G‘ulomning qissalari. 6. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asari. 7. G‘afur G‘ulom hajviy-yumoristik hikoyalar ustasi. 8. G‘afur G‘ulom xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. E‘lon va reklama namunalarini yozing.

3. Olmosh va uning turlari mavzusi bo‘yicha o‘rgangan nazariy bilimlaringizni yozma ravishda bayon eting. Olmoshlarning har bir turi ishtirokida gaplar tuzing.

4. Nuqtalar o‘rniga tegishli kelishik qo‘shimchalarini qo‘ying va gaplarni tarjima qiling.

1. Matluba chizg‘ich, o‘chirgich, daftar va kitoblarini stol... usti... qo‘ydi. 2. Sohibqiron Amir Temur Samarqand shahri atrofi... o‘n ikkita bog‘ yaratgan edi. 3. Daraxtlar orasi... baland Urgut tog‘lari ko‘zga tashlansdi. 4. Universitet xiyoboni... barcha yo‘laklari atrofi... chiroyli skameykalar o‘rnatilgan. 5. Nigora hovlidagi gullar... sug‘orib, yo‘lak atroflarini supurdi. 6. Yolg‘onchi... to‘g‘ri so‘zi... ham hech kim ishonmaydi. 7. Sen... yoning... o‘tirgan yigit qaysi fakultetda o‘qiydi? 8. Xalqimiz mehnatsevar kishilar... hurmat qiladi. 9. Men o‘rtog‘im bilan teelefonda ertangi ishlar... to‘g‘risi... suhbatlashdim. 10. Guruh rahbarimiz talabalar bilan “Oila” mavzusi... suhbat o‘tkazdi.

5. Quyidagi raqamlar bilan berilgan sonlarni so‘zlar bilan yozing.

777, 85, 99, 112, 225, 394, 431, 555, 663, 746, 898, 999, 1991, 2013, 22789, 316975, 976797, 856739.

6. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Занятия кружка узбекского языка проходят по средам и пятницам. 2. Труженики села готовятся к севу хлопчатника. 3. Золото добывают из земли, а знания – из книги. 4. Найти друга трудно даже за год, но обидеть друга можно за одну минуту. 5. Моя старшая сестра умеет печь в тандире вкусные лепёшки.

7. Quyidagi soʻzlarning antonimlarini toping va tarjima qiling.

arzon –	boy –
botir –	dushman –
doʻzax –	ijobiy –
yigʻlamoq –	kam –
tor –	oʻt –
qattiq –	suyuq –
toʻgʻri –	achchiq –
uzun –	ogʻir –
kelmoq –	oʻgʻil –



1. Atoqli adib Abdulla Qahhor hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Abdulla Qahhor yashgan davr. 2. Abdulla Qahhorning ogʻir kechgan yoshlik yillari. 3. Abdulla Qahhor tahsil olgan taʼlim bergan oʻquv yurtlari. 4. Adib ijodining boshlanishi. 5. Abdulla Qahhor – mohir hikoyanavis. 6. Abdulla Qahhorning dramatik asarlari. 7. Abdulla Qahhor romanlari. 8. Abdulla Qahhor Abdulla qissalari. 9. Abdulla Qahhor komediyalari. 10. Abdulla Qahhor xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Ariza namunalarini yozing.

3. Feʼlning noaniq shakli, boʻlishli va boʻlishsiz feʼllarga doir oʻrgangan nazariy fikrlaringizni yozma bayon eting hamda ularga bir nechtdan misollar keltiring.

4. Quyidagi gaplarga kishilik olmoshlarini almashtirib, nuqtalar oʻrniga shu olmoshlarga tegishli egalik qoʻshimchalarini qoʻying, gaplarni tarjima qiling.

1. Gazetada **men** haq**im**da maqola chiqdi. 2. Gazetada ... haq...da maqola chiqdi. 3. Gazetada ... haq... maqola chiqdi. 4. Gazetada ... haq...da maqola chiqdi. 5. Gazetada ... haq...da maqola chiqdi. 6. Gazetada ... haq...da maqola chiqdi.

5. Quyidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. В ботаническом саду СамГУ выращивают разные сорта яблонь, груш, вишен, слив и винограда. 2. В нашем факультете часто проводятся вечера самодеятельности. 3. Из книг можно узнать о народах разных стран. 4. До рассвета осталось два часа двадцать минут. 5. Труд – основа нашей жизни.

6. 1. Quyidagi raqamlar bilan berilgan sonlarni soʻzlar bilan yozing va ular ishtirokida bir necha gap tuzing.

46, 95, 88, 224, 336, 445, 561, 697, 774, 889, 979, 2853, 3001, 23978, 39594, 867949, 1856658.

2. Quyidagi arab raqamlar bilan berilgan sonlarni rim raqamlari bilan almashtiring.

4, 18, 57, 66, 73, 85, 99, 112, 225, 394, 431, 555, 663, 746, 777, 898, 999, 1000.

7. Quyidagi frazeologizmlarning maʼnosini izohlang.

Aravani quruq olib qochmoq –

Boshiga koʻtarmoq –

Boshiga yetmoq –

Dovrugʻi ketgan –

Jon bermoq –

Istarasi issiq –

Koʻz tegmoq –

Mum tishlab qolmoq –

Oyogʻiga bosh urmoq –

Qoʻli uzun –

Suv quygandek –



16-VARIANT

1. Atoqli adib Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Abdulla Qodiriy yashagan davr. 2. Abdulla Qodiriy tahsil olgan oʻquv yurtlari. 3. Adib ijodining boshlanishi. 4. Abdulla Qodiriyning oʻzbek romanchiligiga qoʻshgan hissasi. 5. Abdulla Qodiriy qissalari. 6. Abdulla Qodiriy – qatagʻon qurboni. 7. Abdulla Qodiriy asarlari asosida yaratilgan filmlar. 8. Abdulla Qodiriy xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Maʼlumotnoma namunalarini yozing.

3. Oʻtgan zamon feʼli va uning shakllari mavzusi boʻyicha oʻrgangan nazariy bilimlaringizni yozma bayon eting hamda ularga bir nechta gap misol keltiring.

4. Quyidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Выполнение домашних заданий не оставляйте на завтра. 2. В центре сада стоит красивое здание. 3. Днём люди работают, а вечером отдыхают, веселятся и танцуют. 4. Вы собираетесь на экскурсию в горы? 5. Человек должен стремиться к цели.

5. Nuqtalar o‘rniga kishilik olmoshlari, tegishli egalik va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shing va ko‘plikda davom ettiring. Gaplarni ko‘chiring.

1. Men ishdan so‘ng o‘rtog‘im bilan dam olyapman.

2. Sen ishdan so‘ng o‘rtoq... bilan dam olyap... .

3. . . .ishdan so‘ng o‘rtoq... bilan dam olyap... .

6. Quyidagi so‘zlarning omonimik ma’nolarini aniqlang.

Burun:	1.	2.	3.
Oq:	1.	2.	3.
Suz :	1.	2.	3.
Toy:	1.	2.	3.
Tom:	1.	2.	3.
Tuman:	1.	2	3.
Tup:	1.	2.	3.
Uch:	1.	2.	3.

Namuna: **Ot:** 1. *Ism.* 2. *Fe’l.* 3. *Suz turkumi.* 4. *Hayvon.*

7. Quyidagi she’riy parchadan fe’llarni aniqlang, qo‘shimchalarini izohlang.

Hamma narsa meni qarshilar,	“Mana senga olam-olam gul,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz,	Etagingga siqqanicha ol,
Men yurganda bog‘larga to‘lar	Bunda tole har narsadan mo‘l,
Faqat baxtni maqtagan ovoz.	To o‘lguncha shu o‘lkada

qol.”

Umrida hyech gul ko‘rmay, yig‘lab

O‘tganlarning haqqi ham senda,

Har bahorni yig‘lab qarshilab

Ketganlarning haqqi ham senda...

Derazmning oldida bir tup

O‘rik oppoq bo‘lib gulladi. (**Hamid**

Olimjon)

17-VARIANT

1. Atoqli adib Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Cho‘lpon yashagan davr. 2. Cho‘lpon tahsil olgan o‘quv yurtlari. 3. Cho‘lpon ijodining boshlanishi. 4. Cho‘lpon she’riyatida yurt ozodligi mavzusi. 5. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani. 6. Cho‘lpon hikoyalari. 7. Cho‘lpon – qatag‘on qurboni. 8. Cho‘lpon asarlari asosida yaratilgan filmlar. 9. Cho‘lponning ezgu orzusi va O‘zbekiston mustaqilligi. 10. Cho‘lpon xotirasining abadiylashtirilganligi.

2. Dalolatnoma namunasini yozing.

3. Hozirgi zamon fe'li va uning shakllari mavzusi bo'yicha o'rganganlaringizni yozma bayon eting. Mavzuga doir gaplar tuzib, o'z fikrlaringizni asoslang.

4. Yil fasllari mavzusida matn tuzing.

5. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Учитель советовал нам записывать в словарь все новые слова. 2. Экскурсовод рассказывал туристам о Самарканде и показывал им исторические памятники. 3. Если занимаешься спортом, то будешь сильным и здоровым. 4. Без помощи товарищей я не смог бы хорошо учиться. 5. Все студенты правильно выполнили трудное домашнее задание.

6. Qavs ichidagi fe'llarga o'tgan zamon fe'li va tegishli shaxs-son qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Farhod kecha Surxondaryodan (qaytmoq). 2. Sen ham «To'maris» matnini (tarjima qilmoq)? 3. Nazokat o'qituvchining savollariga to'g'ri (javob bermoq). 4. Biz o'tgan yili Buxoro va Xiva shaharlariga sayohatga (bormoq). 5. Men chet tilidan uyga vazifani kutubxonada (bajarmoq). 6. Dehqonlarimiz bu yil ham sabzavotlardan mo'l hosil (olmoq). 7. Qishlog'imizda yangi maktab, bog'cha, hammom va ikkita do'kon (qurilmoq). 8. Guruhimiz talabalari universitet spartakiadasida (g'olib chiqmoq). 9. Singlim o'tgan yili Samarqand universitetining pedagogika fakultetini (tugatmoq). 10. Biz har kuni o'rtoqlarimiz bilan talabalar oshxonasida (tushlik qilmoq).

7. Quyidagi frazeologizmlarning ma'nosini izohlang va ko'chirib yozing.

Aqldan ozmoq –

Bir pul –

Burnini ko'tarmoq –

Gapni cho'zmoq –

Dam olmoq –

Dunyodan o'tmoq –

Yetti o'lchab bir kesmoq –

Yomon ko'rmoq –

Joniga tegmoq –

Miyasi aynimoq –

Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq –

18- VARIANT

1. Atoqli adib Said Ahmad hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Said Ahmad tug'ilgan davr. 2. Said Ahmad tahsil olgan o'quv yurtlari va ishlagan muassasalar. 3. Said Ahmad ijodining boshlanishi. 4. Said Ahmad hikoyalari mavzularining rang-barangligi. 5. Said Ahmad hajviyalari.

6. Said Ahmad romanlari. 7. Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi. 8. Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kuyov” komediyalari. 9. Said Ahmad asarlarida mustaqillik mavzusi.

2. Buyruq namunasini yozing.

3. Fe‘l mayllari mavzusi bo‘yicha o‘rgangan nazariy fikrlaringizni yozma ravishda bayon eting va ularga misollar keltiring.

4. Qavs ichidagi fe‘llarni zamon, shaxs va sonda tuslab, gaplarni ko‘chiring.

a) o‘tgan zamonda:

1. Ko‘p o‘tmay eshikdan yana to‘rt kishi (kirib elmoq). 2. Kichik singlim shu yil o‘rta maktabni “a‘lo” baholarga (tugatmoq). 3. Siz biror arta viloyat gazetasiga talabalar hayoti haqida maqola (yozmoq)? 4. Biz bu yil qishki ta‘til paytida beshtadan badiiy asar o‘qishga (bahs boylamoq).

b) hozirgi zamonda:

1. Men guruhingizdagi barcha talabalarni ertaga soat 14-00 da fakultetimizda o‘tkaziladigan “Navro‘z bayrami” kechasiga (taklif etmoq). 2. Siz darslardan so‘ng bo‘sh vaqtingizni qanday (o‘tkazmoq)? 3. Ular Samarqandda o‘tkazilayotgan respublika talabalari ilmiy anjumaniga (kelmoq). 4. Sen nechanchi avtobusni (kutmoq)?

d) kelasi zamonda:

1. Biz kursdoshlarimiz bilan ertaga “Sharq yulduzi” kinoteatrda “O‘tgan kunlar” filmini (ko‘rmoq). 2. Sen bu yil talabalar spartakiadasida qaysi sport turi bo‘yicha (ishtirok etmoq). 3. U yangi yilni biz bilan Samarqandda (kutib olmoq). 4. Men sizlarni erta kechqurun mashinamda aeroportgacha (kuzatib qo‘ymoq).

5. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. 22 декабря – самый короткий день и самая длинная ночь. 2. Чего не знаешь, того не говори. 3. Учитель объяснил, как надо писать сочинение. 4. По обеим сторонам улицы нашего города строились многоэтажные дома. 5. Попрашавшись с гостями, мы вернулись домой.

6. O‘zingiz tug‘ilib o‘sgan shahringiz haqida kichik hajmli matn tuzing.

7. Quyidagi parchadan notanish so‘zlarni ajratib yozing va ularni lug‘at yordamida tarjima qilib, parcha mazmunini og‘zaki hikoya qiling.

Uch soatcha yo‘l yurgandan keyin Tepaguzar degan bir mavzega yetdik. U yerda bir chol baqqol endigina do‘konini ochgan ekan. Undan yo‘l xarajatlarini, safar anjomlarini oldik. Chunonchi: bir qadoq tuz, ikki qadoq turshak, oltita zog‘ora non, ip, nina, ikkita ichi tushgan bosvoldi. Hammasi yetti paqir bo‘ldi. To‘rt paqirni domla ust yaktagining bahyasiga yashirgan joydan olib to‘ladi. Uch paqirni biz to‘ladik.

(G‘afur G‘ulom).

1. 1. Atoqli shoir Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Erkin Vohidov tug‘ilgan davr. 2. Erkin Vohidov tahsil olgan o‘quv yurtlari. 3. Erkin Vohidov ijodining boshlanishi. 4. Erkin Vohidov she‘riyatida mavzular rang-barangligi. 5. Erkin Vohidov g‘azalnavis shoir. 6. Erkin Vohidov dostonlari. 7. Erkin Vohidov – mohir tarjimon. 8. Erkin Vohidovning “Oltin devor” komediyasi. 9. Erkin Vohidov she‘riyatida mustaqillik mavzusi.

2. Erkin Vohidovning quyidagi she‘rini o‘qib, mazmunini hikoya qiling.

ASAL OYI

Asal oyi qisqagina dam,	Bizning hayot oshiq ahlining
Bir oygina etadi davom.	Tillarida g‘azal bo‘ladi.
Bizda esa yillar o‘tsa ham	Sevgi bilan qurilgan umr
Asal oyi bo‘lmaydi tamom.	So‘ngigacha asal bo‘ladi.

2. Bildirishnoma namunalarini yozing.

3. Fe‘l nisbatlari mavzusi bo‘yicha o‘rgangan nazariy fikrlaringizni yozma bayon eting va ularga misollar keltiring.

4. Quyida berilgan so‘zlardan avval biologiyaga, keyin matematikaga va oxirida o‘zbek tiliga oid atamalarni ajratib yozing.

Qo‘shuv, kelishik, to‘qima, unli tovush, ayiruv, poya, undosh tovush, ko‘paytirish, oqsil, bo‘lish, sifat, botanika, aylana, fe‘l, olmosh, gulkosa, gap, oddiy kasr, darak gap, irsiyat, so‘roq gap, qo‘shma gap, o‘simlik, na‘matak, ega, kesim, tenglama, lolagullilar, to‘ldiruvchi, o‘nlik, aniqlovchi, birlik, hol, olabug‘a.

Namuna:

T.r.	Biologiyaga oid so‘zlar	Matematikaga oid so‘zlar	O‘zbek tiliga oid so‘zlar	Izoh
1.				

5. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Узбекское народное творчество разнообразно и богато. 2. Студенты не должны опаздывать на уроки. 3. Мой однокурсник успешно участвовал в республиканской олимпиаде по русскому языку. 4. Поэт прочитал стихотворение, посвященное матери. 5. Большой Ферганский канал был прорыт в 1939 году за сорок пять дней.

6. Nuqtalar o‘rniga tegishli zamon qo‘shimchalarini qo‘yib ko‘chiring.

1. Uning amakisi avval Farg‘onada yasha...? 2. Ukam mahallamizdagi shaxmat to‘garagiga yozil... . 3. Har yil bahorda bog‘imizga, yo‘lak atroflariga gullar ek... . 4. 5. Farida, bu yil yozgi ta‘tilni qayerda o‘tkaz...? 6. O‘qishni tugatsam o‘zim o‘qigan maktabga ishga bor... . 7. “Turkiston” gazetasida sizning ekologiyaga bag‘ishlangan maqolangizni o‘qi... . 8. Tushliqdan so‘ng fakultet

qiroatxonasida birga dars tayyorla... . 9. Akangiz qishloq xo‘jalik institutida o‘qi....? 10. Har kuni darsdan so‘ng “Yangi yil kechasi”ga tayyorlan... .

7. Quyidagi olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing.

Hamma, hech kim, nima, o‘zingiz, biz, har qaysi, siz, qayerda.

20-VARIANT

1. Atoqli shoir Abdulla Oripov hayoti va ijodi haqida matn tuzing.

Matn uchun reja: 1. Abdulla Oripov tug‘ilgan davr. 2. Abdulla Oripov tahsil olgan o‘quv yurtlari. 3. Abdulla Oripov ijodining boshlanishi. 4. Abdulla Oripov she‘riyatida mavzular rang-barangligi. 5. Abdulla Oripov – mohir tarjimon. 6. Abdulla Oripov – jamoat arbobi. 7. Abdulla Oripov dramatik dostonlari. 8. Abdulla Oripov she‘riyatida mustaqillik mavzusi.

2. Majlis bayoni namunasini yozing.

3. Kelasi zamon fe‘li va uning shakllari mazusi bo‘yicha o‘rgangan nazariy fikrlaringizni yozma bayon eting hamda bir nechta gap misol keltiring.

4. Quyidagi gaplarni tarjima qiling.

1. Во вчерашней газете опубликована интересная статья о спорте. 2. Новые города появились на карте нашей независимой Родины. 3. Весной долины покрываются зелеными травами, алыми тюльпанами, белыми, синими и жёлтыми цветами. 4. Анвар – самый близкий друг Рустама. 5. Охотники увидели на снегу следы волка и лисы.

5. Quyidagi fe‘llarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

заблудиться	удивляться	обвинять	спорить
крутить	отравлять	видеть	мучить
выполнять	кричать	оценивать	руководить
связывать	разрушить	кушать	закрывать
отвечать	скучать	доказывать	верить

6. Oilangiz haqida kichik hajmli matn tuzing. Unda quyidagi qarindosh-urug‘likni bildiruvchi so‘zlardan foydalaning:

ota	opa	amma	jiyan
amaki	bo‘la	bola	ona
aka	tog‘a	bobo	yanga
buvi	o‘g‘il	nevara	uka
qiz	singil	chaqaloq	xola

7. Qavs ichidagi fe‘llarga o‘tgan yoki hozirgi zamon fe‘llarining hamda tegishli shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shib gaplarni ko‘chiring.

1. Siz V.Shekspirning “Otello” tragediyasini (tomosha qilmoq)? 2. Bugundan viloyatimizda havoning harorati keskin (pasaymoq). 3. Bu yilgi talabalar spartakiadasining natijalari bizni (quvontirmoq). 4. Tolib akasini tug‘ilgan kuni bilan (tabrikلامoq). 5. O‘rtog‘im bobosi bilan dam olgani “Baxmal” sanatoriyasiga (ketmoq). 6. Qishda hamma yoq oppoq qorga (burkanmoq). 7. Ular ertaga amalga oshiriladigan ishlar haqida (suhbatlashmoq). 8. Sen o‘zbek fantast yozuvchilarining asarlarini (o‘qimoq)? 9. Biz besh yildan beri Navoiy shahrida (yashamoq). 10. Men do‘stlarim bilan kuzda Zarafshon daryosida baliq ovlashni (yaxshi ko‘rmoq).

MUSTAQIL O'RGANISH UCHUN MATNLAR

O'ZBEKISTON

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. U 447,4 ming kv. km. maydonni egallaydi. O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahri bo'lib, davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil respublika deb e'lon qilindi. O'zbekistonning o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi, pul birligi, qurolli kuchlari bor. 1992-yil 8-dekabrda mustaqil davlatimizning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unda O'zbekistonda yashovchi xalqlarning o'qish, mehnat qilish, dam olish va boshqa huquqlari kafolatlangan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi dunyoning qariyb barcha davlatlari bilan o'zaro elchixonalar ochib, mustahkam aloqalar o'rnatgan.

O'zbekiston yoshlari yangi ochilgan universitetlar, institutlar, kollej, litsey va boshqa o'quv yurtlarida ta'lim olmoqdalar. Yoshlar bilim olish, malaka oshirish, tajriba almashish uchun chet ellardagi nufuzli oily o'quv yurtlariga borib kelmoqdalar.

Respublikamizda o'zbeklar bilan bir qatorda qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar, qirg'izlar, tatarlar, tojiklar, ruslar, yahudiylar va boshqa yuzdan ortiq millat va elat vakillari bir oila farandalaridek yashaydi. Shuningdek, o'zbeklar ham yaqin qo'shni davlatlardan tashqari, Afg'oniston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Xitoy, Suriya, Iordaniya, Eron, Iroq, Birlashgan Arab Amirli, Misr, Germaniya, Gollandiya, Fransiya, Italiya, Angliya, AQSH, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Tayvan kabi mamlakatlarda yashaydilar.

O'zbekiston qadimiy va boy tarixga ega. Har yili Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi tarixiy obidalarni ko'rish uchun millionlab sayyohlar tashrif buyurishadi.

Bu yurtdan yetishib chiqqan Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Ismoil Buxoriy, Zamaxshariy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Rumiy kabi yuzlab qomusiy allomalarning ilmiy, ijodiy meroslari faqat O'zbekistonda emas, butun dunyo ilm maskanlarida o'rganiladi.

Respublikamizda 12 viloyat, bir suveren respublika, 130 ga yaqin shahar, minglab qo'rg'on va qishloqlar mavjud.

Vatanimiz tuprog'i bebaho konlarga boy, tabiati go'zal, xalqi mehmondo'st. Neft, gaz, ko'mir, oltingugurt, ozokerit, osh tuzi, rux, qo'rg'oshin, mis, volfram, oltin konlari muntazam ishlab turibdi.

O'zbekistonning asosiy ekini paxta va g'alladir. Shuningdek, makkajo'xori, meva, uzum, tamaki va poliz mahsulotlari ham ko'plab yetishtiriladi. Keng

yaylovlarda zotdor qo'y va echkilar, qoramol, yilqi, tuya podalari boqiladi. Pillachilik va polizchilik ham rivojlangan sohalardir.

O'zbekiston sanoati rivojlangan mamlakatga aylanmoqda. Elektr quvvati ishlab chiqarish, paxta tozalash, ip, ipak va jun gazlamalar tayyorlash, meva-sabzavotlarni qayta ishlash, yog'-moy kombinatlari, madaniy o'g'itlar ishlab chiqarish, turli xil traktorlar, mashinalar, yengil avtomobillar, samolyot, mebel, neftni qayta ishlash, ro'zg'or buyumlari ishlab chiqaradigan yuzlab zavodlar, korxonalar mavjud. O'zbekiston o'tmishigina emas, kelajagi ham buyuk mamlakatdir.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. O'zbekiston Respublikamizning yer maydoni qancha?
2. O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikni qo'lga kiritgan?
3. Respublikamizda o'zbeklar bilan bir qatorda yana qaysi millat vakillari yashaydi?
4. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy tuzilishi qanday?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMZLARI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MADHIYASI**

Abdulla Oripov so'zi,
Mutal Burhonov musiqasi.

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod.
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni.
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroqda aks etgan moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Geraldika tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg‘uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishning timsollari.

3. Yashil rang – tabiatning yangilanishi ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an‘analarimiz bilan bog‘liqdir. Ayni paytda qo‘lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

6. Yulduzlar barcha xalqlar uchun ruhoniy, ilohiy timsol sanalgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an‘analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir. Bizning o‘n ikki yulduzga bo‘lgan e‘tiborimiz O‘zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida “Nujum ilmi” taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog‘imizdagi o‘n ikki yulduz tasvirini o‘zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i qachon qabul qilingan?
2. Bayrog‘imizda qaysi ranglar o‘z aksini topgan?
3. Bu ranglar qanday ramzlarga ega?

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi xalqimizning ko‘p asrlik milliy davlatchilik tajribasi asosida yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o‘ng tomonida bug‘doy boshqolari, so‘l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir.

Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir.

Gerb markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, osoyishtalik, yaxshilik, baxt-saodat, eson-omonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog‘ini ifodalovchi uch rangdagi chamber bandida “O‘zbekiston” so‘zi bitilgan.

“Gerb” so‘zining tarixi haqida qisqacha ma’lumot:

“Gerb” so‘zi nemischa “Erbo” so‘zidan olingan bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho‘zilgan ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O‘g‘uzxon davrida ham turkcha “Tamg‘a” so‘zi aynan shu ma’noni bildirar edi.

XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy “Tanlangan tarixlar” nomli kitobida shahodat berishicha, O‘g‘izxon o‘z mol-mulkini o‘g‘illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo‘lib, in’om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o‘zlarining xonlik tamg‘alariga ega edilar. Ko‘rinib turibdiki, “Tamg‘a” so‘zining ma’nosi nemischa “Erbo” so‘zining ma’nosiga to‘la mos keladi.

Gerb muallifi rassom Anvar Mamajonov.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Gerb so‘zining ma’nosi nima?
2. O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi qachon qabul qilingan?
3. Gerbimizda nimalar tasvirlangan?
4. Bu tasvirlar qanday ramzlarga ega?

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI. DAVLAT TILI HAQIDA.

(yangi tahrirda)

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa – ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta‘minlanadi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tillida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta‘minlaydi, shu jumladan unga hamma e‘tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta‘minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e‘lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul

qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra - boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda

ogʻzaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va eʼlon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tillidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yoʻriqnomalar, etiketkalar bilan taʼminlanadi.

22-modda. Respublikaning maʼmuriy-hududiy birliklari, maydonlari, koʻchalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning oʻzida boshqacha qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. Oʻzbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning oʻzaro muomala, tarbiya va taʼlim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga toʻsqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar boʻladilar.

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr.

OʻZBEK TILI – DAVLAT TILI

Oʻzbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIV asrga kelib mustaqil oʻzbek adabiy tili darajasiga koʻtarildi. Faqat ushbu davrda turkiy til yoki turk tili kabi nomlar bilan atalib kelingan. Hozir turkiy tillarda soʻzlashuvchi turk, ozarbayjon, qozoq, qirgʻiz, turkman, tatar, uygʻur, qoraqalpoq, chuvash, yoqut, nugʻay, gagauz va boshqa xalqlar, shu jumladan, oʻzbeklarning ajdodlari XI asrgacha qadimgi turkiy tilda gaplashganlar. Qadimgi turkiy tilda yaratilgan Oʻrxun-Enasoy yodgorliklari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu biligʻ”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” kabi asarlari bizgacha yetib kelgan.

Oʻzbek tili asrlar davomida jamiyat hayoti bilan chambarchas bogʻliq holda rivojlanib keldi. Bu tilda juda koʻp badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar yaratildi.

Oʻzbek adabiy tilining rivojlanishida buyuk shoir, mutafakkir olim Alisher Navoiyning xizmatlari juda katta. Alisher Navoiy oʻzining badiiy va ilmiy asarlari bilan oʻzbek tilining dunyodagi boy tillardan biri ekanligini nazariy isbotlab, amaliy jihatdan asoslab berdi. Alisher Navoiygacha Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroiy, Durbek, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi mashhur soʻz ustalari oʻzbek tilida ijod etishgan boʻlsa, undan soʻng bu tilda ijod etuvchilarning soni yanada ortib bordi. Oʻzbek adabiy tilining rivojida Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodira, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz Oʻtar, Usmon Nosir, Choʻlpon, Qodiriy, Oybek, Gʻ.Gʻulom, A.Qahhor va boshqa koʻplab shoir, yozuvchilarning xizmati kattadir.

1989-yil 21-oktabrda Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Oʻzbek tiliga Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili huquqi berildi. Har yili oʻzbek tiliga davlat tili huquqi berilgan 21-oktabr sanasi Oʻzbek tili kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. Oʻzbekistonning 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil davlat deb eʼlon qilinishi bilan mazkur Qonunning davrdan ortda qolayotgan ayrim moddalarini qayta tahrir qilishga toʻgʻri keldi. 1995-yil 21-

dekabrda “Davlat tili haqidagi” Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur Qonun 24 moddadan iborat. Uning 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi ta’kidlangan.

1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunlarga binoan O‘zbekiston Respublikasidagi barsha o‘rta umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarida 2005-yil 1-sentabrdan e’tiboran davlat tilida yangi alifboda o‘qish-o‘qitish ishlari va ish qog‘ozlari yuritishga to‘liq o‘tildi.

Mazkur Qonunlarga binoan respublikamizdagi o‘rta umuta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarining boshqa tillarda ta’lim-tarbiya olub boriladigan guruhlari o‘quvchilari va talabalariga ham o‘zbek tili chuqur o‘rgatilmoqda. Korxonalarda ham ish yuritish davlat tilida lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda olib borishga bosqichma-bosqich o‘tilmoqda.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. O‘zbek tili tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni achon qabul qilindi?
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qachon yangi tahrirda qabul qilindi?
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni necha moddadan iborat?
5. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilindi?

ALP ER TUNGA

Alp Er Tunganing miloddan oldingi VII asrda yashab o‘tgan g‘oyat jasoratli, g‘ayrat-shijoatli, vatanparvar turk hukmdori bo‘lganligi haqida ko‘plab rivoyatlar mavjud. Forslar Alp Er Tungani Afrosiyob deb ataganlar. Afrosiyob va Alp Er Tunganing aslida bir kishi ekanligidan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarlari ham guvohlik beradi. Alp Er Tunga haqida xalq orasida doston ham yaratilgan bo‘lib, bizgacha to‘liq holda yetib kelmagan. Dostondan parchalar “Devonu lug‘otit turk” asarida so‘zlarni asoslash uchun misol tariqasida keltirilgan. Unda tasvirlanishicha, Alp Er Tunga turk beklari orasida nomi mashhuri, baxt-saodatlisi, katta bilim, ko‘p hunar egasi bo‘lgan hukmdordir.

Alp Er Tunganing ismi va qahramonliklari haqida turli tarixiy manbalar, badiiy asarlarda har xil fikrlar yuritilgan. Ammo bu manbalar Alp Er Tunganing shaxsi, hukmronlik qilgan davlati, yuritgan siyosati to‘g‘risida yetarlicha ma’lumot bera olmaydi.

Samarqandda Afrosiyob nomi bilan bog‘liq shahar xarobalari saqlanib qolgan.

Bu xarobalar Samarqandning miloddan oldingi VI asrdan melodiy XIII asrgacha bo'lgan hududi hamda o'sha davr hayotidan darak beradi. Afrosiyob xarobalaridan uy-joy qoldiqlari, turli-tuman ro'zg'or buyumlari, zargarlik bezaklari topilgan. Ayniqsa, Samarqand hukmdori saroyining xarobalari, uning devorlariga ishlangan ajoyib suratlar diqqatga sazovordir.

Alp Er Tunga vafoti haqida xalq orasida mashhur bo'lgan marsiyadan olingan quyidagi parchalar ham uning buyuk hukmdor bo'lganligidan dalolatdir:

Alp Er Tunga hoqon o'ldimi,
Yovuz ochun ortda qoldimi.
Falak undan o'chin oldimi,
Endi g'amgin yurak yonadir!
Zamon qurg'ur fursat poylaydi,
Unga maxfiy tuzoq shaylaydi.
Beklar begin yerga joylaydi,
Qochib qaydan imkon topadir?
Endi putur ketdi zamondan,
Ellar azob chekar yomondan.
Mehr-u shafqat kutma nodondan
Jahongir Er o'tar olamdan.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Alp Er Tunga qaysi davrda yashab o'tgan?
2. Forslar Alp Er Tungani qanday nom bilan deb ataganlar?
3. Alp Er Tunga haqidagi dostonidan parchalar bizgacha qaysi asar orqali yetib kelgan?

SPITAMEN

Spitamen O'rta Osiyo xalqlari tarixida Aleksandr Makedonskiyga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni rahbari sifatida nom qoldirgan. Qo'rqmas xalq qasoskori boshchiligidagi qo'zg'olonchilar makedoniyaliklarni ko'plab marta janglarda mag'lub etganlar.

Grek va Rim tarixchilari asarlarida Spitamenning qaysi shahar yoki qisloqdan ekanligi aniq yozilmagan. Ammo u asosan Politamet (hozirgi Zarafshon) daryosi bo'ylarida, Samarqand shahri atroflarida kechgan voqealar tasvirida ko'plab tilga olinadi.

Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari qancha-qancha shaharlarni, yurtlarni osongina bosib olgan, ammo Sug'diyonani egallash ularga oson bo'lmaydi. Ular bu yerda xalqning qattiq qarshiligiga uchrab, ko'pdan-ko'p talofat ko'radilar. Spitamen boshchiligidagi jangchilar hech kutilmagan paytda va joylarda paydo bo'lishar, dushmanga qaqshatqich zarba berishar va yana tutqich bermay, qutulib ketishar edi. Spitamen jasur, farosatli, tadbirkor, ayni choqda juda hushyor va

ziyrak edi. Uning qo'shinida O'rta Osiyoning mahalliy aholisi bo'lgan massagetlar, skiflar, daklar, shaklar, sug'dlar o'zaro birikib hamjihatlik bilan harakat qilar edilar. Ular Spitamenni o'zlarining haqiqiy xaloskori deb bilardilar.

Spitamen boylikka qiziqmas, qo'lga tushgan o'ljalarni jangchilarga teng bo'lib berar edi. U nafaqat dushmanlarni, balki sotqinlik qilgan yurtdoshlarini ham ayamas edi. Spitamen Aleksandrga O'rta Osiyo qabilalarining nimalarga qodirligini amalda ko'rsatdi. Vatanini, xalqini sevishni, o'z qishlog'ini, shahrini, yurtini ardoqlashni o'rtaosiyoliklardan o'rganish kerakligini isbotladi.

Spitamening o'limi haqida ham turli xil rivoyatlar mavjud. Ba'zi rivoyatlarda u o'z xotini tomonidan o'ldirilgan deyilsa, ayrimlarida sotqin qabiladoshilari tomonidan qatl etilgan deyiladi.

Sharqning jasur, yengilmas, vatanparvar, mard o'g'loni Spitamenning nomi, uning dushmanga qarshi ko'rsatgan qahramonliklari necha asrlardan beri tildan tilga, avloddan avlodga o'tib kelmoqda. U haqida, uning qahramonliklari haqida ko'plab badiiy asarlar, filmlar yaratilgan.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Spitamen boshchiligidagi qasoskorlar kimlarga qarshi kurashgan?
2. Politimet qaysi daryoning avvalgi nomi?
3. Spitamen qanday shaxs bo'lgan?
4. Spitamen qaysi qabilalarni birlashtirgan?



T O ' M A R I S

Eng qadimgi zamonlarda Araks (hozirgi Amudaryo) yoqalarida boshqa qabilalar qatori massagetlar ham yashar edi. Ularga marhum massagetlar podshosining bevasi – malika To'maris boshchilik qilar edi. Tabiati nihoyatda go'zal bu yurtga va uning g'am-anduh nimaligini bilmaydigan ozod xalqiga egalik qilmoqchi bo'lgan Eron shohi Kir malika To'marisga uylanmoqchi bo'ladi. Malika To'maris uning asl maqsadini fahmlab, uylanish haqidagi taklifini rad etadi. Bundan g'azablangan Kir esa massagetlar yurtiga qo'shin tortib keladi. Malika To'maris uni bu mudhish niyatidan qaytarishga urinadi. Kirning o'z fikridan qaytmasligiga ishonch hosil qilgan malika To'maris a'yonlari bilan kengashib, uning o'z qo'shinlari bilan daryodan massagetlar yurtiga o'tishiga imkon beradi. To'maris o'z yurtdoshlari bilan daryodan uch kunlik yo'lga borib turadi. Kirning qo'shini massagetlar yurtiga o'tib olgach, urush tadbirlarini ko'radi. O'z sarkardalari bilan maslahatlashgan Kir hiyla ishlatib, To'marisning o'g'li Sparganisni jangchi yigitlari bilan asir qilib oladi. Hiyla bilan asir tushganligini fahmlagan Sparganis uyatdan o'limni afzal ko'rib, o'zini o'ldiradi. Bu mudhish voqeadan xabar topgan To'maris Eron shohi Kirning qo'shini bilan urushga chiqadi.

Malika To'maris bosqinchi Kirga qarshi jangga borar ekan: "Sening qonga

tashnaligingni qondiraman”, deb ont ichadi.

Malika To‘maris qo‘shini bilan Kir jangchilari o‘rtasida dahshatli to‘qnashuv bo‘ladi. Jangda o‘z yurti, o‘z ozodligi, xalqi baxt-saodati uchun o‘limdan ham qaytmaydigan massagetlar dushman qo‘shinini tor-mor etib, g‘olib chiqadi. Eron shohi Kir massaget jangchilari tomonidan o‘ldiriladi. Uning qolgan-qutgan jangchilari qurol-aslahalarini jang maydonida qoldirib, yurtiga qarab qochadilar. O‘z qasamiga sodiq malika To‘maris esa ayovsiz jangda o‘ldirilgan bosqinchi Kirning boshini kestirib, qon bilan to‘ldirilgan meshga soldiradi.

O‘z yurtini, xalqini sevgan, uning ozodligi uchun erkaklar kabi janglarda mardonavor qatnashgan malika To‘marisdek mard xotin-qizlar bu yurtda ko‘plab o‘tishgan. Shuning uchun ham xalq ularning qahramonliklari haqida qo‘shiqlar, dostonlar, rivoyatlar to‘qigan.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Araks hozirda qaysi daryoning nomi?
2. To‘maris kimning qo‘shiniga qarshi kurashgan?
3. Sparganis kim?
4. Nega u o‘zini o‘ldirdi?
5. Kir va uning qo‘shini nega tor-mor bo‘ldi?
6. Kam sonli bo‘lsa ham nima uchun massagetlar g‘olib chiqishdi?



SHIROQ

O‘rta Osiyo xalqlari qadim-qadim zamonlardan o‘zlari tug‘ilib o‘sgan yurtni tashqi dushmanlardan mardonavor himoya qilganlar. Bu janglarda qo‘shni qabilalar – skiflar, massagetlar, sug‘dlar, shaklarning qo‘rquv bilmas yigitlari, hatto qiz-juvonlari ham beqiyos mardlik va jasorat ko‘rsatganlar. Tarixda ba‘zan bir kishining butun bir qo‘shinga bas kelgan hollari ham bo‘lgan. Bunga sak qabilasining oddiy cho‘pon yigiti Shiroqning ko‘rsatgan qahramonligi misoldir.

Qo‘shni mamlakatlar yer-suviga ko‘z olaytirgan Eron shohi Doro qo‘shini bilan saklar o‘rtasida qaqshatqich urush borar edi. Tish-tirnog‘igacha qurollanib olgan Eron qo‘shini jang-u jadal bilan mamlakat ichkarisiga harakat qilmoqda edi. Shunday paytda sak podachilaridan biri – Shiroq o‘z podsholari Sakesfor Omarg va To‘marislar huzuriga kelib, agar ruxsat berilsa, bir o‘zi hiyla bilan Eron qo‘shinini halok etajagini aytadi. Buning evaziga podsholardan o‘zining oilasi, bolalari, avlodiga g‘amxo‘rlik qilish to‘g‘risidagi va‘dalarini oladi. Shundan so‘ng Shiroq ular oldida o‘zining quloq, burunlarini kesib, butun a‘zoyi badaniga ozor yetkazadi. O‘zini rosa qiynab, azoblangan holatga keltirgach, Eron qo‘shini joylashgan tomonga jo‘naydi.

Hamma yog‘i qonga belangan Shiroq Eron qo‘shini sarkardalariga uchrashib, uni podshoh Doro huzuriga eltishlarini iltimos qiladi. U podshoh Doroga arz qilib, qabiladoshlariga “Eron qo‘shiniga bas kela olmasliklarini, yaxshisi taslim bo‘lish kerakligini” aytganligi uchun uni qabiladoshlari shunday ahvolga solganliklarini aytadi. U qabiladoshlaridan o‘ch olish maqsadida Doro qo‘shinini ular yashiringan joyga yaqin yo‘ldan boshlab borishga ahd qilganligini bildiradi. Uning hiylasidan bexabar Doro qo‘shini bir haftalik oziq-ovqat, suv olib yo‘lga tushadi. Uzoq yo‘l yurishgach, Doro qo‘shinining oziq-ovqatlari, suv va otlarga beradigan yemishlari tugaydi. Atrof esa suvsiz quruq qum va hech narsa o‘smagan sahro edi. Shunda Doro jangchilari jasur cho‘pon yigit Shiroqning hiylasidan voqif bo‘ladilar va g‘azablangan dushman jangchilari uni vahshiylarcha qatl etadi.

Shunday qilib, cho‘pon Shiroqning bir o‘zi qabiladoshlarini, vatandoshlarini halokatdan saqlab qoladi va bosqinchi Eron qo‘shinining ochlik, suvsizlikdan qirilib ketishiga sabab bo‘ladi.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Shiroq kim bo‘lgan?
2. U massagetlar podshohi huzuriga qanday taklif bilan boradi?
3. Shiroq qanday hiyla ishlatadi?
4. Shiroq Eron qo‘shinini qayerga boshlab boradi?
5. Eron qo‘shinining taqdiri nima bo‘ldi?

HADISSHUNOS VATANDOSHLARIMIZ

Hadis – islom dini ta’limoti bo‘yicha Qur’ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi. Unda Muhammad(s.a.v.)payg‘ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek, uning diniy va axloqiy ko‘rsatmalari bayon etiladi. Mana shunday ko‘rsatmalar to‘g‘risidagi rivoyatlarga hadis deyiladi.

Hadis ilmining olti yirik targ‘ibotchilaridan uchta eng mashhuri vatanimizdan yetishib chiqqan olimlardir. Bular – Dorimiy as-Samarqandiy (797-868), Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom at-Termiziy (824-892).

Muhammad payg‘ambarning hayoti, faoliyati, uning diniy va axloqiy qarashlari bayon etilgan hadislarni og‘zaki an‘analardan kitob holiga keltirish VIII asrdan boshlab keng tus oladi. Bu davrga kelib islom olamining turli joylaridan hadis ilmining yirik targ‘ibotchilari va mualliflari yetishib chiqadi. Ana shunday mashhur hadischilar ichida vatandoshimiz, favqulodda noyob iste’dod egasi Imom Ismoil Buxoriy eng oldingi o‘rinda turadi.

Imom Ismoil al-Buxoriy 810-yil 20-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. U o‘n yoshidan hadis ilmiga ishtiyoq sezib, eshitgan har bir hadisni yodlab borgan.

O‘ olti yoshga yetganida o‘sha davrning eng mashhur hadischi olimlarining hadis to‘plamlarini yod olgan. Imom Buxoriy o‘n sakkiz yoshida “Qazoyi as-sahobat vat-tobi’in” (“Sahobatlar va tobi’in masalalari”) hamda “Tarixi kabir” (“Katta tarix”) kitoblarini Madinada – Muhammad payg‘ambarning maqbarasi yonida yashab turib yozgan. Makka, Madina shaharlaridan tashqari, Shom, Qohira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi rivojlangan madaniyat markazlariga boradi, olim-u ulamolardan ta’lim oladi, toliblarga dars beradi.

Imom Buxoriy bir eshitgan darsini bir umr xotirasiga muhrlab olish qobiliyatiga ega edi. U chet el safarlaridan qaytgach, Buxoro ulamolari undan tahsil ola boshlaydilar. Ammo Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhayl bilan orasi buzilib, Samarqandning Xartang qishlog‘idagi qarindoshlarinikiga ko‘chib keladi. Ulug‘ hadischi olim Imom Ismoil al-Buxoriy 870-yil 10-sentabrda 62 yoshida vafot etadi. Uning yashab vafot etgan joyi – Samarqand viloyati Chelak tumanida Xo‘ja Ismoil nomi bilan mashhur ziyoratgoh bor. Uni ziyorat etish uchun dunyoning barcha musulmon mamlakatlaridan har yili necha minglab ziyoratchilar kelib turishadi. Imom Buxoriydan axloq-odob, din va madaniyatga oid o‘nlab qimmatli asarlar meros qoldi. Uning “Al-Jomi’ as-sahih” (“Ishonarli to‘plam”) nomli 4 jildidan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa mualliflar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng ishonarli va eng mukammalidir. Unga bobokalonimiz to‘plagan 600 ming hadisdan eng ishonarli 7275 tasi kiritilgan.

Hadis ilmi bilimdonlaridan biri **Imom at-Termiziy** 824-yili Termiz shahrida tug‘ilgan. U ham yoshlik chog‘laridan ilmga katta qiziqish va ishtiyoq bilan qaraydi. Samarqand, Buxoro, Marv, Termiz va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi mashhur ulamo va hadischi olimlarining asarlarini qunt bilan o‘rganadi. U hadis o‘rganish maqsadida islom dunyosining turli shahar va mamlakatlariga safar qiladi. Hijoz, Iroq, Xuroson va boshqa joylarda mashhur hadischi, ulamolar bilan muloqotda bo‘ladi, ulardan ta’lim oladi. Imom Termiziy ham umri davomida ko‘plab asarlar yozib, islom dini haqida, payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) to‘g‘risida ulkan ilmiy meros qoldirdi. Uning asarlari ham Muhammad payg‘ambar to‘g‘risida mukammal ma’lumot beruvchi eng muhim qo‘llanmalardir.

Hadislar faqat diniy xarakterga ega bo‘lib qolmasdan, ularda tarbiya, axloq, odob, o‘zaro do‘stona munosabatlar, qarindoshlar, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibatlari, halollik, poklik, adolat, insof-diyonatni targ‘ib qilish, razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg‘onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nafrat tuyg‘ulari o‘z ifodasini topgan. Hadischi vatandoshlarimizning amalga oshirgan ishlari musulmon olami uchun ulkan ahamiyatga ega.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Hadis – so‘zining ma’nosi qanday?
2. Hadis ilmi bilan kimlar shu‘ullangan?
3. Imom Buxoriyning mashhur asari qanday nomlangan?
4. Bu asarda qancha hadis bor?



Abu Nasr al-Forobiy 873-yili Shosh (hozirgi Toshkent) shahriga yaqin Forob qishlog'ida harbiy turkiy oilada tug'ilgan. U boshlang'ich ta'limni Shosh, Buxoro shaharlaridagi maktab va madrasalarda olib, boshqa shaharlarga ham borib mashhur olimlardan tahsil olishni davom ettirdi. U Bag'dodda falsafiy ilmlarni, ayniqsa yunon olimlarining falsafiy merosini, ko'plab boshqa fanlarni chuqur egalladi. Forobiy ko'p yillar Damashqda yashab, ilm bilan shug'ullanadi va 950-yili shu yerda vafot etadi.

Forobiy matematika, tibbiyot, astronomiya, kimyo, mantiq, musiqashunoslik, falsafa va boshqa fanlarga doir 160 dan ortiq ilmiy asarlar yozib qoldirgan. Ammo ularning atigi qirqqa yaqini bizgacha yetib kelgan, xolos.

Forobiy asarlarida ijtimoiy masalalar – jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, davlatni boshqarish usullari, san'at, musiqa, etika, siyosat, psixologiya, tabiatshunoslik hamda falsafaga doir nodir ilmiy qarashlar keng yoritilgan. Forobiy tarixda Aristoteldan so'ng "ikkinchi muallim" deb tan olingan qomusiy olimdir. Uning asarlari XII asrdan boshlab qadimgi yahudiy va lotin tiliga, keyinroq ingliz, fransuz, nemis, fors, turk, rus, urdu, o'zbek, qozoq va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Forobiy arab mamlakatlarida mashhur arab mutafakkiri sifatida e'zozlansa, Turkiyada mashhur turkiy olim sifatida yuksak qadrlanib kelingan. Forobiy til o'rganishdan, kitob mutolaa qilishdan hech charchamagan. Ma'lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilda erkin so'zlashgan. Bir asarni tushunib yetmagunicha yuz marta o'qishdan ham zerikmagan.

Forobiy Aristotelning barcha falsafiy, tibbiy, ilmiy-nazariy asarlariga, Ptolomeyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiziyning ruh va psixologiyaga oid, Evkledning geometriyaga, Galenning tibbiyotga, Platon va Gippokratning asarlariga ilmiy talqinlar yaratgan. XII-XIII asrlarning yirik tarixchisi Boyhaqiy: "Abu Nasr o'z ta'limoti evaziga "ikkinchi muallim" deb nom olgan. Islomda unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas", – deb yozgan edi.

1970-71-yillarda Forobiyning ona yurti – O'rta Osiyoda uning 1100 yillik qutlug' sanasi keng nishonlandi. Uning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar o'tkazilib, ko'plab ilmiy ishlar, kitoblar nashr etildi. Hozirgi paytda uning ilmiy merosi oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida chuqur o'rganilmoqda.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Forobiy qancha asari bizgacha yetib kelgan?
2. Uning asarlari qaysi tillarga tarjima qilingan?
3. U ilmda erishgan yutuqlari uchun qanday nom olgan?
4. Forobiy qancha til bilgan?
5. Forobiy tavalludining 1100 yillik yubileyi qachon nishonlangan?

ABU RAYHON BERUNIY

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973-yili Xorazmda tug'ildi. Beruniy yashagan davr Xorazmning va butun O'rta Osiyoning arablar hukmdorligidan ozod bo'lgan paytiga to'g'ri keladi. U dastlabki chuqur va keng qamrovli ma'lumotni Xorazmning yirik madaniyat hamda savdo markazi bo'lgan Urganch shahrida oladi. Beruniy arab, sug'd, fors va qadimgi yahudiy tillarini yaxshi bilgan. U buxorolik buyuk olim Abu Ali ibn Sino bilan yaqin do'st bo'lib, ilmiy aloqada bo'lgan. Beruniy o'n sakkiz yoshidan boshlab Xorazm rasadxonasida ilmiy kuzatishlar olib borgan. O'n to'qqiz yoshida esa "Ajdodlarimiz xotirasi" nomli birinchi asarini yozgan. Shohlarning o'zaro urushlari iste'dodli olimning bir joyda yashab, ilmiy ish bilan shug'ullanishiga to'sqinlik qilgan. U o'z yurtidan uzoqlarda – Bag'dodda, Hindiston va boshqa mamlakatlarda yashab, dunyo ilm ahlini hayratda qoldirgan ilmiy asarlarini yaratgan.

Beruniy barcha ko'rgan narsalari va kuzatgan hodisalari, olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari asosida 150 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Ularda matematika, astronomiya, fizika, geografiya, kartografiya, umumiy geologiya, mineralogiya, botanika, farmakologiya, tibbiyot, iqlimshunoslik, etnografiya, tarix, falsafa, filologiya kabi ko'plab fanlarga oid qimmatli ilmiy xulosalar yoritilgan.

Beruniy birinchi bo'lib Yerning Quyosh atrofida aylanishini ilmiy asoslagan. Yer aylanasing uzunligini aniqlab bergan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida ko'pgina xalqlarning islom dinigacha bo'lgan tarixi, madaniyati, kalendarlari haqida ajoyib ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, uning "Hindiston" asari Hindistonning ilk o'rta asrlar tarixiga doir muhim manba hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy 1048-yili 75 yoshida vafot etdi. Beruniy o'zining o'lmas asarlari bilan jahonning eng buyuk olimlari safidan o'rin oldi. U Sharqda birinchi bo'lib Yerning yumaloq shaklda ekanligini aniqladi, uni 5 metr keladigan globus yasadi, dunyo xaritasini chizdi. Oy va Quyoshning tutulishi sabablarini izohladi, dunyoning qayerida qanday boyliklar borligini aytib berdi. Uning asarlari dunyoning ko'pgina tillariga tarjima qilingan hamda ko'plab nusxalarda nashr etilgandir. Buyuk olimning tug'ilganiga ming yil to'lishi butun jahon fani va madaniyati tarixidagi katta voqea sifatida 1973-yilda keng nishonlandi.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Abu Rayhon Beruniy o'n sakkiz yoshida qanday asar yozgan?
2. Uning qancha asari mavjud?
3. "Hindiston" asarining tarixiy, ilmiy ahamiyati.
4. Beruniy yaratgan kashfiyotlar.
5. Beruniy asarlarining jahon ilm-fanidagi o'rni.

ABU ALI IBN SINO

Tabobat ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino 980-yili Buxoro shahri yaqinidagi Afshona(hozirgi Peshku tumani) qishlog'ida tug'ildi. Uning bolalik va o'smirlik yillari Buxoro shahrida o'tdi. U yoshligidanoq o'z davrining buyuk olimlari asarlarini o'qib-o'rgangan. O'n olti yoshida ilm-fanning ko'pgina sohalarini egallab, iste'dodli tabib sifatida taniladi. Og'ir dardga chalingan Buxoro shohi Mansurni davolab, buning evaziga saroyning boy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yosh tabib bu yerda o'z bilimini yanada boyitadi.

Ibn Sino Buxoroda uzoq yashamadi. Zamonning notinchligi tufayli u Urganch, Nishopur, Hamadon, Ray, Isfahon kabi shaharlarda yashashga majbur bo'lgan. Ibn Sino zamonasining buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy bilan tanishadi va ular orasida do'stlik hamda ilmiy aloqa bog'lanadi.

Abu Ali ibn Sino buyuk tabib, matematik, faylasuf va shoir sifatida dunyoga mashhur olimdir. U umri davomida 280 dan ortiq qimmatbaho asarlar yozib qoldirgan. Uning asarlari tibbiyot, yulduzlar ilmi, matematika, kimyo, geografiya, musiqa, falsafa, mantiq, psixologiya va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangandir. Ibn Sinoni dunyoga mashhur qilgan asari "Tib qonunlari"dir.

Ibn Sinoning besh qismdan iborat "Tib qonunlari" kitobi ko'p asrlar davomida Yevropa va qator Sharq mamlakatlarida tibbiyotdan asosiy darslik bo'lib keldi. Bu asar juda ko'p tillarga tarjima qilinib, ming-minglab nusxalarda nashr etilgan. Faqatgina lotin tilida 30 marta nashr etilganligi ma'lum.

Butun kuch-g'ayratini ilmga bag'ishlagan, xalq xizmati yo'lida o'z sog'ligini ham o'ylamagan buyuk mutafakkir olim 1037-yil 18-iyun kuni olamdan o'tdi.

1980-yil butun insoniyat qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning ming yillik qutlug' sanasini keng nishonladi. Uning asarlari qayta-qayta nashr etilib, xalqqa yetkazilmoqda. Uning muborak nomi jahonning barcha mamlakatlarida hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi.

IBN SINO SHE'RLARIDAN NAMUNALAR

Otalik xizmati nimadir bilsang:
Bor-yo'g'in farzandga bermak beminnat.
Lek otadan o'pka qilmasun farzand,
Zamona keltirsa boshiga kulfat.

Qaro yer qa'ridan to avji Zuhul –
Koinot mushkulin barin qildim hal.
Ko'p mushkul tugunni angladim, yechdim,
Yechilmay qolgani birgina ajal.

Olamning sayriga qo'ydimki qadam,
Qarshimda namoyon bo'ldi har ne bor.

Hayratimda qo‘lim tutgan soqoldan
Boshqa biror narsa bo‘lmadi oshkor.
May mastga dushman-u hushyorga yordir.
Ozi taryok, ko‘pi bir zahri mordir.
Ko‘p bo‘lsa zarari oz emas uning,
Oz bo‘lsa undan ko‘p manfaat bordir.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Ibn Sino necha yoshida tabib sifatida taniladi?
2. Uning mashhur asari qaysi?
3. Ibn Sino tavalludining ming yilligi qachon nishonlangan?
4. “Tib qonunlari” necha tilga tarjima qilingan?
5. Ibn Sino qancha ilmiy asar yozib qoldirgan?



Turkiy tillarni o‘rganishga asos solgan mashhur olim Mahmud ibn Muhammad Koshg‘ariy XI asr boshlarida Balasog‘unda dunyoga keldi. Uning bobosi asli qoshg‘arlik bo‘lib, Balasog‘unga ko‘chib kelgan edi. Mahmud Koshg‘ariy yoshligidanoq ilmga qiziqdi. U til va adabiyot ilmiga alohida muhabbat bilan qarardi. U dastlab Qoshg‘ar, keyin Samarqand, Buxoro, Nishopur, Marv va Bag‘dodda tahsil oladi, turli ilmlar bilan shug‘ullanadi. Mahmud Koshg‘ariy fan olamiga tilshunos olim sifatida kirib keldi. Davrining eng iste‘dodli olimlaridan hisoblangan Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarga bag‘ishlab ikki nodir asar yozib qoldirgan. Uning “Turkiy tillarning sintaksis durdonalari, qoidalari” nomli asari hozirgacha topilgani yo‘q. Uning nomini olamga tanitgan “Devonu lug‘otit turk” nomli ikkinchi asari 1914-yili Turkiyaning Diyorbakir shahrida topilgan.

“Devonu lug‘otit turk” asari 1076-77-yillarda yozib tugallangan. Olim yashagan davrda ilmiy asarlarni arab tilida yozish an‘anaga aylangan edi. Shunga ko‘ra bu asar turkiy tillar haqida bo‘lishiga qaramay, arab tilida yozilgandir. Asar muqaddima va lug‘at qismlaridan iborat. Muqaddimada asarning yaratilish sabablari, ish usuli, lug‘atning tuzilishi, turkiy qabilalar haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Lug‘at qismida esa olti mingdan ziyod turkiy so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolari arab tilida izohlangan. Undagi so‘zlar va grammatik xususiyatlar boshqa turkiy tillar qatori o‘zbek tiliga ham aloqadordir. Bu asar faqat tilshunoslar uchun muhim manba bo‘lib qolmasdan, turkiy tillar tarixi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odati, geografiyasi, tabiiy sharoiti, etnografiyasi, og‘zaki ijodi to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar beradi.

Mahmud Koshg‘ariyning hayoti va ilmiy merosi haqida bizgacha juda kam ma‘lumotlar yetib kelgan. Uning “Devonu lug‘otit turk” asari nemis, turk va o‘zbek tillarida uch tomlik kitob holida nashr etilgan. Respublikamizda ilmiy muassasalar, korxonalar, bir qancha ko‘chalar buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariy nomi bilan ataladi.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DAN NAMUNALAR

Bordi qadim donolar,
Tog‘day yuksak bilimda.
Eslab o‘gitlarini
Quvonch ortar dilimda.
Buzildi bu zamonlar,
Avj oldi ko‘p yomonlar.
Kamayib bilimdonlar,
Ilm-u hikmat yo‘qoldi.
Kelsa birov yo‘qlashib,
Bergil yaxshi ozuq, non.
Qarg‘ab ketar mehmonlar,
Kutar bo‘lsang gar yomon.
Boqmas jahon sovuq so‘z,
Shilqim, yuzsiz baxilga.
Yoqimli bo‘l, xushxilq bo‘l,
Qolsin noming ko‘p yilga.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Mahmud Qoshg‘ariyning qanday asarlar yaratgan?
2. “Devoni lug‘ati turk” asari nima haqida?
3. Devonda badiiy asarlardan ham foydalanilganmi?
4. “Devoni lug‘ati turk” asari qaysi tillarga tarjima qilingan?
5. Asarning lug‘at qismida qancha so‘zning lug‘aviy ma‘nosi keltirilgan?



Sohibqiron(bu so‘z baxtli bo‘lib tug‘ilgan, yulduzi charaqlagan dagan ma‘nolarni anglatadi) Amir Temur ibn Tarag‘ay Muhammad Bahodir 1336-yil 9-aprelda Kesh (hozirgi Shahrizabz) shahrida barlos urug‘ining nufuzli begi oilasida tug‘ilgan. U amaldor oilasida tug‘ilganligi tufayli dastlab maktabda, so‘ng madrasada o‘qib, o‘z davrining barcha ilmlaridan bahramand bo‘lgan. Ayniqsa, Qur‘on-u hadislarni, fiqh, falakiyot, handasa, riyoziyot, tarix va jug‘rofiya ilmlaridan chuqur xabardor bo‘lgan. She‘riyat va shatranjni sevgan. Amir Temurni harbiy ta‘lim ko‘proq qiziqtirgan. O‘rta Osiyoda mo‘g‘illar zulmiga barham bergan Amir Temur 1370-yili Movarounnahr amiri deb e‘lon qilinadi va Samarqand shahri

u tuzgan yangi davlatning poytaxti bo'lib qoladi.

Amir Temur feodal tarqoqlikka barham berib, o'rta asrlarning eng yirik davlatini barpo etdi. Uning ulkan davlati sarhadiga Turon, Eron, Rum(Onado'li), Mag'rib, Suriya, Misr, Iroqi Arab, Iroqi Ajam, Mozandaron, Qeylon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jidda, Buyuk Tatariston, Xorazm, Xo'tan, Qobuliston, Boxtar, Zomin, Hindiston, Dashti Qipchoq, Oq O'rda, Gurjiston, Armaniston, Oltin O'rda – jami 27 mamlakat kirar edi.

Amir Temur o'z davlatini adolat bilan boshqardi. U saltanat ishlarini olib borishda besh asosiy manbaga tayanadi: mashvarat, shariat, to'ra-tuzuk, diplomatiya va qattiqqo'llik. Mojar olimi Herman Vamberi o'zining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" kitobida "...Temurni Chingiz ila bir safga qo'yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir", – deb haqiqatni yozgan edi. Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiy jihatdan kuchaydi, fan va madaniyat rivojlandi. Xalq hayoti uchun zarur qurilishlar, madrasa ta'limi uning e'tiborida bo'ldi. U o'zi zabt etgan mamlakatlarning podsholarini yana taxtga o'tqazgan yoki zurriyotidan podsho tayinlagan. Saltanatning tashqi va ichki siyosatida noiblar, beklar, umuman amaldorlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatgan.

Sohibqiron Amir Temurning davlat va qo'shinni boshqarishga bag'ishlangan "Temur tuzuklari" nomli kitobi dunyoga mashhur. Tuzuklar Amir Temurning o'z davri uchun davlat Konstitutsiyasi edi. Bu asar ko'pgina sarkarda va davlat arboblari uchun muhim qo'llanma vazifasini o'tab kelgan.

Amir Temurning 4 o'g'li va 2 qizi bo'lgan: G'iyosiddin Jahongir, Umarshayx, Jaloliddin Mironshoh, Shohruh, Og'a begim, Sulton Baxt begim. Amir Temur avlodlaridan ulug' davlat arboblari, mashhur olimlar, iste'dodli shoirlar yetishib chiqqan.

Sohibqiron Amir Temur hayotining so'nggi kunlari qabuliga shahzodalar, amur-u ulamolarni chaqirib shunday vasiyat qiladi: "O'g'illarim, millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardiga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. "Adolat va Ozodlik" dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin ..."

Amir Temur 1405-yil 18-fevral kuni O'tror shahrida shamollashdan vafot etadi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi sohibqiron Amir Temur o'z poytaxti Samarqand shahrida qurilgan Go'ri Amir maqbarasiga, ustoz Mir Sayid Barakaning oyoq uchiga dafn etilgan.

Sohibqiron Amir Temur haqida chet ellarda ham, mamlakatimizda ham yuzlab badiiy va ilmiy asarlar, filmlar yaratilgan, haykallar o'rnatilib, muzeylar tashkil etilgan. Uning tug'ilganligiga 660 yil to'lishi munosabati bilan 1996-yil O'zbekistonda "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. Toshkent va Samarqandda, tug'ilgan yurti – Sahrisabzda unga mahobatli haykallar o'rnatilib, muborak qadamjolari, maqbara va machitlari ta'mirlandi, ziyoratgoh joylari ko'paytirildi.

“TEMUR TUZUKLARI”DAN

Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim.

Hech kimdan o‘ch olish maqomida bo‘lmadim. Tuzimni totib menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. Ish ko‘rgan, shijoatli er-yigitlarni qoshimda tutdim. Soddil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko‘ngli buzuv qo‘rqoqlarni majlisimdan quvib yubordim .

Kimniki huzurimga kiritgan bo‘lsalar va ko‘zim unga tushgan bo‘lsa, holiga yarasha hurmatlab, sovg‘a-in‘omlar bilan kuzatsinlar. Har qanday odam mening adolat devonimda panohtopgan ekan, gunohi bo‘lsa ham kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi yana gunoh qilgudek bo‘lsa, uchog‘da gunohiga yarasha jazolasinlar.

Qaysi bir sipohiy tuz haqqi va vafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o‘z sohibidan yuz o‘girib, mening oldimga kelgan bo‘lsa, unday odamlarni o‘zimga eng yomon dushman deb bildim.

Biron mamlakatda jabr-zulm va firq-fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o‘rnatib, firq-fasodni, zulmni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim. Tangri taolo shu niyatining sharofati bilan mamlakatni zolimning qo‘lidan tortib olib, odil podshoga topshiradi.

Yana amr qildimki, g‘anim tomondan bizning qo‘limizga har qanday sipohiy asir bo‘lib tushsa, uni o‘ldirmasinlar, unga ixtiyor bersinlar. Agar navkarlikni qabul qilsa, navkar qilsinlar, yo‘qsa uni ozod etsinlar. Bunga misol men (Qaysar bilan urushda) to‘rt ming rumlik askarni ozod qildim.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Amir Temurning qayerda tavallud topgan?
2. Amir Temurning nechta farzandi bo‘lgan?
3. Amir Temurning “Temur tuzuklari” nomli kitobi nima haqda?
4. Amir Temur qachon va qaysi shaharda vafot etgan?
5. Temuriylar sulolasi haqida nima bilasiz?



Sohibqiron Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruh mirzoning to‘ng‘ich farzandi Muhammad Tarag‘ay 1394-yil 22-mart kuni Sultoniya shahrida dunyoga keladi. Amir Temur nevarasi Muhammad Tarag‘ayni g‘oyat ziyrak, zehnlil bo‘lganligi hamda unga otasining ismi qo‘yilganligi uchun uni Ulug‘bek, ya‘ni beklarning ulug‘i, kattasi deb ataydi.

Ulug‘bek 1411-yil oktabrda 17 yoshida Movarounnahr va Turkiston sultoni etib tayinlanadi va u o‘ttiz to‘qqiz yil hukmronlik qiladi. Otasi vafotidan so‘ng

temuriylar sulolasining boshlig'i bo'lib qoladi.

Ulug'bek yoshligidan ilmga qiziqadi, ko'p vaqtini saroy kutubxonasida o'tkazadi, tarix va she'riyat bilan shug'ullanadi. Astronomiya uning eng yaxshi ko'rgan fani edi.

Ulug'bek harbiy yurishlarni unchalik yoqtirmaydi. Uning harbiy yurishlari yaqinlashib kelayotgan xavf-xatarni bartaraf etishga qaratilgan edi. U ko'p vaqt ilm-fan bilan shug'ullangan, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, machit-u madrasalar qurish bilan band bo'lgan. O'z hukmronlik yillarida zamonasining ko'pgina mashhur olimlari, shoirlarini Samarqandga to'playdi. Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda o'sha davrning oliy o'quv yurtlari – madrasalar qurirdi. “Bibixonim” masjidi, “Go'ri Amir” maqbarasi, “Shohizinda” ansambllari ham Ulug'bek zamonasida nihoyasiga yetkaziladi. 1420-1429-yillari Samarqandda butun dunyoga mashhur rasadxona qurdiradi. O'sha davrda va hatto undan keyin ham Ulug'bek qurdirgan rasadxonadek ilm maskani dunyoda bo'lmagan. Ulug'bek bu yerda birinchi o'zbek akademiyasini tashkil etib, uning nomini butun dunyoga mashhur qilgan “Ziji Ulug'bek” (“Ulug'bek jadvali”)ni yaratdi. Ulug'bek bir guruh olimlar bilan birgalikda o'zidan avvalgi astronomlarning ishlarini qayta tekshirib, ularga katta aniqliklar kiritdi. Ulug'bek “Ziji”ning astronomiya tarixi uchun ahamiyati beqiyos va bebahodir. Sayyoralar, Quyosh, Oy harakatlari to'g'risidagi yulduzlar jadvali va qo'llanilgan matematik usullarga ko'ra bu kitob o'rta asrlarda yozilgan astronomik asarlarning eng mukammalidir. Ulug'bek jadvali g'oyat aniqligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Unda astronomiyaning nazariy asoslari bilan bir qatorda, 1019 yulduzning holati ham ifodalangan.

Ulug'bekning bu asari, eng avvalo, musulmon mamlakatlarida astronomiyaning rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. XVII asrdan boshlab Yevropa olimlari o'z tadqiqotlari darajasi aniqligini unga solishtirib bilganlar. Bu asar o'rta asrlar astronomiyasininggina emas, balki matematikasining ham yuqori cho'qqisi edi.

Ulug'bek “Zij”dan tashqari, “Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola”, “Risolayi Ulug'bek”, “To'rt ulus tarixi” kabi nodir ilmiy asarlar ham yozib qoldirgan. Ular ham hozirgi zamon fanlari uchun katta ahamiyatga egadir.

Buyuk olim, davlat arbobi Mirzo Ulug'bek 1449-yil 25-oktabr kuni 56 yoshida Samarqand yaqinidagi kichik bir qishloqda vahshiylarcha qatl etiladi. Mirzo Ulug'bek ham Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasiga dafn etilgan.

Muhammad Tarag'ay – Mirzo Ulug'bek insoniyat tarixida ulug' sulton sifatida o'chmas iz qoldirmagan bo'lsa-da, tengsiz astronom va matematik olim sifatida jahoniy shuhrat topdi. Shuning uchun tavalludiga 600 yil to'lishi munosabati bilan 1994-yil O'zbekustonda Ulug'bek yili deb e'lon qilindi.

Ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy Mirzo Ulug'bekni quyidagicha madh etgan:

Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.
Oning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,
Ki davr ahli biridan aylamas yod.
Valek ul ilm sori topdi chun dast,

Ko'zi olinda bo'ldi osmon past.
Rasadkim bog'lamish zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.
Bilib bu nav ilmi osmoniy,
Ki ondin yozdi "Ziji Ko'ragoniy".
Qiyomatga deguncha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Mirzo Ulug'bek qayerda tug'ildi?
2. Ulug'bek qanday asarlar yozib qoldirgan?
3. Qachon Mirzo Ulug'bek yili deb e'lon qilindi?
4. "Ziji Ulug'bek"da qancha yulduz haqida ma'lumot berilgan?
5. Mirzo Ulug'bek qayerlarda masjid va madrasalar qurdirgan?



O'zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi, ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot(hozirgi Afg'onistonda) shahrida tug'ildi. Uning otasi G'iyosiddin Bahodir zamonasining ziyoli kishilaridan bo'lgan. Alisher ziyrak va favqulodda qobiliyat egasi bo'lganligidan o'qishga barvaqt havas qo'ydi. Shuning uchun otasi uni to'rt yosh-u to'rt oyligida maktabga berdi. U adabiyot va musiqani sevganligidan tez orada 50 ming baytdan ortiq she'rni yod oladi. Alisher 10-12 yoshidan boshlab g'azallar yoza boshlaydi. Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Farididdin Attorning "Mantuqut-tayr" asarlarini sevib o'qigan va hatto to'liq yodlab olgan. Yosh shoir o'z davridagi barcha turkiy, fors-tojik va arab tillaridagi asarlarni chuqur o'rgangan.

Turkiy adabiyotning mashhur namoyandasi, mavlono Lutfiy yosh shoirning birgina g'azaliga o'zining butun ijodini almashtirishga tayyorligini aytib, Alisherning kelgusida ulkan shoir bo'lib yetishishini bashorat qilgan edi. Alisher Navoiy o'z ona tili bilan bir qatorda, fors-tojik tilida "Foniy" taxallusi bilan ham asarlar yozdi. Mutafakkir shoir 40 dan ortiq badiiy, ilmiy, falsafiy, tarixiy asarlar yozib qoldirdi. Uning "Xamsa"si 51230 misradan, "Xazoyinul-maoniy" asari 50000 misradan iboratdir. Alisher Navoiy o'zining "Muhokamatul-lug'atayn", "Majolisun-nafois", "Mahbubul-qulub", "Mezonul-avzon", "Lisonut-tayr", "Xamsa", "Xazoyinul-maoniy" kabi bebaho asarlari bilan o'zbek adabiy tilini nazariy jihatdan asoslab, amaliy jihatdan isbotladi, o'zbek adabiyotini ko'klarga ko'tardi. Mamlakatda fors va arab tillari yuqori mavqega ega bo'lgan paytda o'z ona tilining qimmatini yuksaklikka ko'tardi, uning fors va arab tillaridan qolishmasligini isbotlab berdi.

Alisher Navoiy muttasil ijod etish bilan birga, yoshlikda birga o‘qigan do‘sti sulton Husayn Boyqaro saroyida uning iltimosiga binoan davlat ishlarini ham vijdonan olib bordi. Muhrdor, bosh vazir, hokim bo‘lganida mamlakatni obodonlashtirish, xalq hayotini farovon etish, oddiy mehnatkashlardan olinadigan soliqlarni kamaytirishga katta ahamiyat berdi, yangi ariqlar qazdirdi, shifoxonalar, kutubxonalar, hammom-u machitlar qurdirdi.

Alisher Navoiy o‘zining rang-barang g‘azallari, ruboiylari, qit‘a, tuyuq, muxammas, muammo, fard, chiston kabi janrlardagi sermazmun asarlarida hayot go‘zalligini, nozik insoniy tuyg‘ularni, tabiatni kuylaydi. Uning ko‘p g‘azallari qo‘shiqqa aylangan, ular har kuni radio va televizorda yangrab turadi. Shoirning badiiy va ilmiy asarlari dunyoning ko‘pgina tillariga tarjima qilingan.

Ulug‘ mutafakkir shoir Alisher Navoiy 1504-yil 3-yanvarda og‘ir betoblikdan so‘ng vafot etgan. Shoirning qabri Hirot shahridadir. 1991-yil O‘zbekistonda Alisher Navoiy yili deb e‘lon qilindi va uning 550 yillik to‘yi keng nishonlandi. Shu yubiley munosabati bilan uning 20 tomli, keyinroq esa 10 tomli mukammal asarlari to‘plami nashr etildi.

Alisher Navoiyning nomi abadiylashtirilgan. Hozirgi paytda respublikamizda katta bir shahar, Samarqand davlat universiteti, Toshkentdagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Adabiyot muzeyi, katta opera va balet teatri, ko‘pgina kutubxonalar, xo‘jaliklar, ilmiy muassasalar, korxonalar, maydonlar, bog‘lar va ko‘chalar Alisher Navoiyning muborak nomi bilan atalgan.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topdi?
2. Alisher Navoiyning o‘zbek tili va dabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi
3. Navoiy “Xamsa”si dostonlarini tartib bilan ayting.
4. Navoiy asarlari necha jildda chop etilgan?
5. Nechanchi yil “Alisher Navoiy yili” deb e‘lon qilingan?
6. Qayerlarga Alisher Navoiy nomi berilgan?



Ulug‘ rassom Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirotida hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Ota-onadan yosh yetim qolgan Kamoliddinni Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo(Mirak Naqqosh) o‘z tarbiyasiga oladi. Mirak Naqqosh oilasida har tomonlama ilmiy, odobli bo‘lib tarbiyalangan Kamoliddin naqqoshlik va miniaturasozlik san‘atini ham egallaydi.

Behzodning buyuk musavvir, naqqosh va miniaturosoz bo‘lib yetishishida muhim omillaridan biri – mutafakkir shoir Alisher Navoiyning nazariga tushib, uning homiyligidan bahramand bo‘lganligidir. San’at va nafosatga ishtiyoqi nihoyatda baland bo‘lgan Behzod g‘oyatda mehnatsevarligi, zahmatkashligi, o‘tkir aql-u zakozati tufayli iste’dodi kundan-kunga ortib boradi va tez orada Hirotida mashhur musavvir bo‘lib taniladi. Husayn Boyqaro Behzodni o‘z saroyiga jalb qiladi, unga saroydan maxsus joy ajratib, ijodiy ishlar bilan shug‘ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. 1483-yildan Behzod Sulton Husayn Boyqaroning farmoni bilan saltanat kutubxonasiga boshliq qilib tayinlanadi.

1507-yilda Shayboniyxon Hirot taxtini egallaydi. Kamoliddin Behzod uch yilcha Hirotida Shayboniyxon saltanatiga qarashli saroyda ijodiy ish bilan shug‘ullanadi. Shayboniyxon ham uning uchun qulay sharoit yaratadi. 1512-yilga kelib Hirotni Shoh Ismoil Safaviy o‘z tasarrufiga oladi. U Hirotidagi iste’dodli san’atkorlarni Tabrizga olib ketadi. Ular orasida Kamoliddin Behzod ham bor edi. Bu vaqtga kelib Behzod va uning Hirotidagi musavvirlik maktabining dovrug‘i butun Sharqqa tarqalgan edi. Behzodning san’atini yuksak qadrlagan Shoh Ismoil Safaviy ham unga zarur sharoitlarni yaratib beradi. Behzod Tabrizda Hirotidan keyingi nafis tasviriy san’atning yana bir ulkan maktabini yaratdi.

1512-1522-yillar Behzod hayotida og‘ir va musibatli yillar bo‘ldi. Bu yillar orasida u ahyon-ahyonda ona yurti – Hirotga borib-kelib turgan. 1522-yilda Shoh Ismoil Safaviy maxsus farmon chiqarib, Behzodni Tabrizdagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlaydi.

Kamoliddin Behzod 1537-yili Hirotida 82 yoshida vafot etadi. Hirotliklar uni chuqur izzat va motam bilan Kuhi Muxtor tog‘i yonbag‘riga dafn etadilar.

Kamoliddin Behzod Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Abdurahmon Jomiyning “Salomon va Absol”, Amir Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”, Sa’diyning “Bo‘ston” va “Guliston”, Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”, Abdulloh Xotifiyning “Temurnoma”siga yuzlab miniatyuralar, Sulton Husayn Boyqaroning 40 dan ortiq majlisleri tasviri, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Taxmasp, Shoir Abdulloh Xotifiylarning suratlari, “Tuyalar jangi”, “Darvishlar raqsi”, “Samarqandda madrasa qurilishi” kabi noyob suratlarni chizib qoldirgan.

Behzod o‘ta saxiy va mehribon ustoz sifatida juda ko‘plab atoqli miniaturosoz, musavvir va naqqoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazdi.

Kamoliddin Behzod nafaqat Sharq xalqlari musavvirchiligi tarixida, balki jahon rasm san’ati tarixida, o‘zining ajoyib va qimmatbaho miniatyuralari bilan butun dunyo madaniyati tarixida katta o‘rin tutgan buyuk va zabardast san’atkordir.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Kamoliddin Behzod kim bo‘lgan?
2. Mashhur qanday suratlari chizib qoldirgan?
3. Kamoliddin Behzod kimning farmoni bilan Hirot kutubxonasiga boshliq etib tayinlanadi?
4. Kamoliddin Behzod qanday janr rivojiga ulkan hissa qo‘shdi?
5. Kamoliddin Behzod qaysi podshohlar saroyida xizmat qildi?

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

XIV-XV asrlar o'zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri, shoir, olim, yirik markazlashgan davlat podshosi, taniqli sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ilgan. Otasi Umarshayx mirzo Amir Temur avlodidan bo'lib, Farg'ona viloyati hokimi edi. Bobur saroy muhitida tarbiyalanib, zamonasining ilm-ma'rifati, adabiyoti va san'atini chuqur o'rgandi. Otasi bevaqt vafot etgandan so'ng 12 yoshli Bobur Andijon taxtiga o'tirdi. Temuriylar o'rtasida, shuningdek Shayboniynxon qo'shini o'rtasida bo'lib turgan urushlar tufayli mamlakat notinch edi. Bobur yurtida tinchlik o'rnatish, tartib joriy qilish uchun butun kuchini sarflaydi.

1504-yili Shayboniynxon qo'shinidan yengilgan Bobur oz sonli lashkari bilan Afg'onistonga ketishga majbur bo'ladi. Bobur Afg'onistonda hokimiyatni qo'lga kiritadi va adolatli shoh sifatida shuhrat qozonadi. 1519-1526-yillarda hind imperatori Ibrohim Ludiy qo'shinini yengib, Hindistonni egallaydi. Bobur Hindistonda ulkan davlatga asos soldi. 1529-yilga kelib Bobur asos solgan davlatga Afg'oniston, Panjob, Gang vodiysi (Bengaliya chegarasigacha) kirar edi. Boburiylar hind yurtida qariyb 300 yil adolat bilan davlatni boshqardilar, ulkan tarixiy obidalar qurdirdilar. Shulardan Tojmahal (Shoh Jahon va malika Mumtoz Mahal maqbarasi) me'moriy yodgorligi oq marmardan qurilgan bo'lib, 5 gumbaz, 4 minora, balandligi 74 metrdan iborat muhtasham binodir. Atrofi bog' va devorlari rangli toshlar bilan bezatilgan. Bu kabi obidalar hozir ham o'z go'zalligini saqlab qolgan va butun dunyo sayyohlarining eng ko'p ziyorat qiladigan maskanalaridan hisoblanadi.

Bobur katta davlat arbobi, taniqli sarkarda bo'lishi bilan birga, iste'dodli olim, tengsiz shoir ham edi. Bobur o'z atrofiga zamonasining eng mashhur shoirlari, olimlarini jamlab, ularga homiylik qildi. O'zi ham ilmiy, ijodiy ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. U o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy an'alarini davom ettirib, ko'plab ilmiy, g'oyat go'zal badiiy asarlar yozib qoldirdi. Bobur garchand vatandan yiroqda umr kechirgan bo'lsa-da, o'zbek adabiy tilining, o'zbek adabiyoti va she'riyatining rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning g'azal va ruboiylari takrorlanmasligi, mazmundorligi, jarangdorligi hamda tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Uning dilrabo g'azallari san'atkorlar tomonidan kuylab kelinadi.

Boburning huquqshunoslikka oid "Mubayyin", aruz vazni va qofiya haqida "Mufasssal", musiqaga doir "Musiqiy", harbiy yurishlar haqida "Harb ishi" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan. Uning asarlari orasida "Boburnoma" nomli memuar asari dunyoga mashhur. Bu asar zamonasining eng mukammal nasriy asari hisoblanib, jahon adabiyotiga qo'shilgan bebaho durdonadir. Unda xalqimiz tarixiga doir, Sharq xalqlari tarixi, geografiyasi, urf-odatlar va boshqa ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. Bu asar dunyoning ko'p tillariga tarjima qilinib, katta nusxalarda nashr etilgan.

Boburning ijodiy ishlari farzandlari Gulbadanbegim, Komron mirzo, shuningdek avlodlari Zebuniso va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 47 yoshida Hindistonning Agra shahrida vafot etdi. O'z vasiyatiga ko'ra keyinchalik uning jasi Kobulga keltirib dafn etilgan. Shunday qilib, boburiylar sulolasi Hindistonda 1526-yildan 1858-yilgacha davom etdi. Hindistonda hozir ham boburiylar sulolasi vakillari yashaydi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng qadimgi aloqalar yana tiklandi.

Bobur haqida ko'plab ilmiy, badiiy asarlar, filmlar yaratilgan. Taniqli o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" ("Humoyun va Akbar") romanlarini Bobur va uning avlodlari hayotini yoritishga bag'ishlagan. Yurtimizda uning nomini abadiylashtirishga ham katta e'tibor berilmoqda.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Bobur necha yoshida Andijon taxtiga o'tiradi?
2. Boburning mashhur memuar asari qanday nomlanadi?
3. Bobur aruz vazni haqida qanday asar yozib qoldirgan?
4. Bobur haqida qanday asarlar yaratilgan?
5. Boburiylar yaratgan moddiy va ma'naviy meros.



Nodira 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga keldi. Uning asl ismi Mohlaroyim bo'lib, yoshligidan o'qishga, adabiyotga qiziqdi. U o'tkir zehni, nozik tabiati, yaxshi fazilatlar bilan juda erta tanilda. Nodira otinoyi qo'lida ta'lim olgan. O'z bilimi va dunyoqarashini mustaqil mutolaa bilan boyitib borgan.

O'zbek, fors-tojik adabiyotining eng mashhur vakillari merosidan bahramand bo'lgan Nodira yoshligidanoq she'rlar yoza boshlagan. Husnixat bilan jiddiy shug'ullangan.

1808-yilda Qo'qon xoni Norbo'tabiyning o'g'li Umarxon bilan turmush qurgandan keyin ikki yil Marg'ilonda, 1810-yildan umrining oxirigacha Qo'qonda yashadi. Nodiraning mana shu davrdagi hayoti bevosita shoirlar, adabiyot va ilm ahli davrasida o'tdi. Shoir o'z asarlarida muhabbat, adovat, saxovat, insof, muruvvat, firoq mavzularini katta mahorat bilan yoritadi. Nodira bir tomondan shoh, ikkinchi tomondan o'z davrining taniqli shoiri bo'lgan Umarxonni xalqparvarlikka, vatanparvarlikka, ilm-fan ravnaqiga homiylik qilishga undadi.

Nodira asarlari o'zbek she'riyati xazinasining g'oyat go'zal namunalaridan hisolanadi. U o'z asarlarida Nodira, Komila, Maknuna kabi taxalluslarni qo'llagan. Shoir o'zbek va tojik tillarida yozgan g'azal, muxammas, musaddas, tarje'band, tarkibband, firoqnoma kabi janrlardagi asarlarini to'plab, devon tuzgan.

Nodira 30 yoshga yetmay ikki bola bilan beva qoladi. Shundan so‘ng badiiy ijod bilan bir qatorda saltanat ishlari bilan ham shug‘ullana boshlaydi. Bu davrda shoira ijodining mavzu doirasi kengaya boradi. U o‘z she‘rlarida ayollarning ichki kechinmalari, iztiroblari, olijanoblighi, vafodorlighi, insoniy muhabbatini kuylaydi.

Nodira madaniy hayotda homiylik va rahbarlik qilar ekan, atrofiga olimlar, shoirlar, fozillarni to‘pladi, madrasa, karvonsaroy, bozor-rastalar qurdirib, xalq farovonlighi, tinchligi uchun ko‘pgina ishlarni amalga oshiradi.

O‘zbek va tojik tillarida o‘n ming misradan ko‘proq nazmiy asarlar yaratgan iste’dodli shoira Nodira hayotida katta fojia yuz berdi. Buxoro amiri Nasrullo 1842-yili Qo‘qonni bosib olgach, Nodira va uning yaqinlarini shariatni buzganlikda ayblab, yuzlab begunoh kishilarni, shu jumladan, Nodirani, uning o‘g‘illarini va hatto 12 yashar nevarasi Muhammad Aminni ham vahshiylarcha qatl ettiradi.

O‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan shoira Nodira haqida ko‘plab ilmiy ishlar, badiiy asarlar, drama va kinofilmlar yaratilgan.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Nodira qayerda tavallud topgan?
2. Uning she‘rlarida nimalar kuylanadi?
3. Nodira qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?
4. Nodira xon saroyiga kimlarni jalb etgan edi?
5. Nodira she‘riyatning qaysi janrlarida ijod qilgan?



Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida bog‘bon oilasida tug‘ilgan. U avval eski maktabda, keyinroq yangi ochilgan yangi maktabda ta‘lim oldi. Abdulla Qodiriy o‘z ijodini she‘r yozishdan boshladi. Bo‘lg‘usi ijodkor mahalliy gazeta va jurnallarda dolzarb mavzulardagi ommabop maqolalari, feletonlari bilan faol qatnashdi. Abdulla Qodiriy birinchi o‘zbek satirik jurnali “Mushtum”ning tashkilotchisi va birinchi muharriridir. Shuning uchun ham uning hikoyalari, feletonlari, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarga oid maqolalari, xabarlar bu jurnalda tez-tez bosilib turgan.

Abdulla Qodiriy tez orada mohir nosir sifatida respublikada taniladi. Adib o‘zining hajviy asarlariga Julqunboy, Dumbulboy, Sovrinboy, Dumbulboy o‘g‘li, Kalvak Mahzumning jiyani, Jiyan, Toshpo‘lat Tajang, Ovsar, Shapaloq, Mahzum, Moshxo‘rdachi, Shoshiy kabi ellikdan ortiq taxalluslarni qo‘llagan. A.Qodiriy ko‘plab hikoyalar, qissalar bilan bir qatorda, XX asr o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” kabi romanlar yozib qoldirdi. Bu asarlari bilan nafaqat o‘zbek adabiyotida, O‘rta Osiyo xalqlari adabiyotida ham

birinchi bo‘lib zamonaviy romanchilikka asos soldi. Shuning uchun ham sharqshunos olim Y.Y.Bertels: “Dunyoda beshta, ya’ni fransuz, ingliz, rus, nemis va hind romanchilik maktablari bor edi. Endi oltinchi, ya’ni o‘zbek romanchiligi maktabi paydo bo‘ldi. Bu maktabni Abdulla Qodiriy yaratib berdi”, – deb yozgan edi.

Abdulla Qodiriy nafaqat iste’dodli nosir, shu bilan bir qatorda mohir tarjimon ham edi. U N.V.Gogolning “Uylanish” dramatik asarini, A.P.Chexovning “Buqalamun” hikoyasini yuksak mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Yosh yozuvchi XX asrning 30-yillarida stalincha qatag‘on ta’qibiga uchradi. U asossiz ravishda qatag‘on qilinib, shafqatsizlarcha qatl etildi. Yozuvchi va tarjimon A.Qodiriy o‘limidan so‘ng oqlandi. Abdulla Qodiriy asarlari dunyoning ko‘pgina tillariga tarjima qilingan bo‘lib, uning hikoyalari, romanlari kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi. Uning romanlari asosida ajoyib badiiy filmlar yaratilgan.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Abdulla Qodiriy o‘z asarlariga qanday taxalluslar qo‘llagan?
2. Qodiriyning asarlari haqida ma’lumot bering.
3. U qanday asarlarni tarjima qilgan?
4. U XX asar o‘zbek adabiyotiga qanday yangilik olib kirdi?
5. Abdulla Qodiriy qaysi jurnalning dastlabki muharriri bo‘lgan?



Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 1897-yili Andijonning Qatortarak mahallasida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Otasi Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o‘g‘li dehqonchilik bilan, hunarmandchilik, bazzozlik bilan shug‘ullangan. “Rasvo” taxallusi bilan she’rlar yozgan ijodkor Sulaymonqul o‘z o‘g‘li Abdulhamidning ham ilmi kishi bo‘lib yetishishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratgan. Onasi uy bekasi edi.

Abdulhamid avval eski maktabda, keyin Andijon va Toshkentdagi madrasalarda ta’lim oldi. U turk, arab, fors va rus tillarini mukammal o‘rgangan. Firdavsiy, Sa’diy, Hofiz, Dehlaviy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy, Bobur asarlarini chuqur o‘rgangan Abdulhamid 16 yoshidan boshlab o‘zi ham she’rlar ijod qila boshlaydi. U Qalandar, Mirzaqalandar, Andijonlik taxalluslari bilan matbuotda tez-tez ko‘rina boshlaydi. Keyinroq Cho‘lpon taxallusi bilan ijod etdi.

Cho‘lpon Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi o‘z davrining ilg‘or ma’rifat targ‘ibotchilariga ergashib, ma’rifatparvar ijodkor sifatida tanildi. Uning dastlabki asarlari ‘Sadoyi Turkiston’, “Sadoyi Farg‘ona”, “Sho‘ro” gazetalarda bosilib chiqadi.

Cho'lpon 1917-yilgi oktabr to'ntarilishidan keyingi yillarda xalq hayotida sodir bo'layotgan xush va noxush o'zgarishlarni o'z asarlariga mavzu qilib oldi. 1922-1926-yillarda uning "Tong sirlari", "Uyg'onish", "Buloqlar" kabi she'riy to'plamlari nashr etiladi. 30-yillarga kelib "Soz" va "Jo'r" kabi she'riy to'plamlari nashrga tayyorlanadi. Ammo mamlakatda ro'y bergan qatag'on to'zoni shoir ijodiga ham salbiy ta'sir qiladi. "Soz" to'plami nashr etiladi-yu, "Jo'r" to'plami o'quvchilar qo'liga yetib bormaydi.

Shoir davrining faol ijodkori sifatida "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston", "Buxoro adabiyoti" gazetalarida mas'ul lavozimlarda xizmat qiladi.

Cho'lpon yetuk lirik shoirgina emas, yirik nosir sifatida ham o'nlab publitsistik maqolalar, ocherklar, hikoyalar, qissalar("Qor qo'ynidagi lola", "Yov") va bir roman("Kecha va kunduz") muallifidir. U dramaturg sifatida "Xalil farang", "Cho'rining isyoni", "O'rtoq Qarshiboyev", "Mushtumzo'r", "Yorqinoy" kabi sahna asarlari yozgan. Cho'lpon qalami o'tkir adabiyotshunos, mohir tarjimon ham edi. U Shekspirning "Hamlet", Pushkinning "Boris Godunov", "Dubrovskiy", Gogolning "Tergovchi", Frankoning "Feruza", Gorkiyning "Ona", Andreyevning "Osilgan yetti kishining hikoyasi" va boshqa ko'plab asarlarni tarjima qilib, zamonaviy o'zbek tarjima maktabiga asos soldi.

Cho'lpon ham Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi o'nlab ijodkorlar qatorida qatag'on davrining qurboni bo'ldi. U 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabrida otib tashlangan. 1956-yilda oqlanib, 1991-yili mustaqillik sharofati bilan "Yana oldim sozimni" nomli she'riy va nasriy asarlari to'plami nashr etildi. 1991-yili 25-sentabrda shoirning mazkur to'plami Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. 1997-yil Cho'lpon tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Andijonda uning nomida bog' tashkil etilib, uy muzeyi ochildi, haykali o'rnatildi.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Cho'lpon necha yoshdan she'rlar ijod qila boshlaydi?
2. Shoir qanday taxalluslar bilan ijod qildi?
3. Cho'lpon qanday asarlar yozib qoldirdi?
4. Cho'lpon qaysi gazetalarda ishlagan?
5. Cho'lpon qanday asarlarni tarjima qilgan?



Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yili 10-yanvarda Toshkentda to'quvchi kosib oilasida tug'ilgan. Oybek – yozuvchining adabiy taxallusi. Oybek

avval eski maktabda, so'ngra hozirgi zamon maktablarida tahsil oldi. Oybek eski maktabda o'qib yurgandayoq Qur'on, hadislardan xabardor bo'ldi, Alisher Navoiy, Bedil, Hofiz, So'fi Olloyor kabi shoirlarning g'azallarini sevib o'qidi. O'zi ham she'rlar yoza boshladi.

Oybek 1930-yili O'rta Osiyo davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetini bitiradi va 1935-yilgacha shu yerda siyosiy iqtisoddan dars beradi. U O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan, "Sharq yulduzi", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishlagan.

Oybek adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan. Uning "Cholg'u tovushi" nomli birinchi she'ri "Armug'on" jurnalida 1922-yili bosilib chiqqan. U 30-yillardayoq iste'dodli shoir sifatida tanilgan edi. Oybek o'zbek nasriga ham ulkan hissa qo'shdi. "Qutlug' qon", "Navoiy", "Oltin vodiya shabadalar", "Quyosh qoraymas", "Ulug' yo'l" kabi romanlari, "Nur qidirib", "Bolalik", "Alisherning yoshligi" kabi qissalari buning yorqin namunalari.

Oybekning adabiyotshunoslik va badiiy tarjima sohasidagi xizmatlari ham buyukdir. U A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, Henrix Hayne, V.N.Belinskiy va boshqalarning ko'plab asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Atoqli yozuvchi og'ir betoblikdan so'ng 1968-yil 1-iyulda 63 yoshida vafot etdi. Uning qabri Toshkentdagi Forobiy qabristonidadir.

Oybekning adabiyot va fan sohasidagi xizmatlari munosib taqdirlangan. U O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, O'zbekiston Xalq yozuvchisi faxriy unvoni egasi, o'sha davrning yuksak orden va medallari sohibi, bir necha Davlat mukofotlari sovrindori bo'lgan. O'zbek adiblari orasida birinchi bo'lib uning 20 tomli mukammal asarlari to'plami nashr etilgan.

2005-yil akademik adib Oybek tavalludining yuz yilligi mamlakatimizda keng nishonlanib, uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar, kitobxonlar kechalari, uchrashuvlar o'tkazildi, zamondoshlarining yozuvchi haqidagi xotiralari nashr etildi.

Oybek xotirasi abdiylashtirilgan. Respublikamizdagi o'quv yurtlari, ko'plab xiyobonlar va ko'chalar, korxonalar uning nomi bilan atalgan. Toshkentda Oybekning uy-muzeyi tashkil etilgan. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Oybek nomida mukofot ta'sis etgan. Toshkent metropolitenining ko'rkam bekatlaridan biri uning nomi bilan ataladi.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Oybek qayerda tavallud topdi?
2. Oybekning 100 yilligi nechanchi yilda nishonlangan?
3. Oybek qanday romanlar yozgan?
4. Oybek nomini abdiylashtirish uchun nima ishlar qilingan?

ABDULLA QAHHOR

Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo‘qonning Ko‘mir bozori mahallasida temirchi kosib oilasida dunyoga kelgan. Bo‘lg‘usi yozuvchining bolalik davri og‘ir yillarga to‘g‘ri keldi. Uning bu og‘ir yillar haqidagi xotiralari “O‘tmishdan ertaklar” qissasida mahorat bilan tasvirlangan.

Abdulla Qahhor Buvaydadagi eski maktabda savod chiqaradi. Oqqo‘rg‘onda jadid yo‘nalishidagi maktabda, keyinroq Qo‘qondagi maktab-internatda o‘qishni davom ettiradi. 1922-1924-yillarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlaydigan bilim yurtida tahsil oladi. Uning ijodi bilim yurtida o‘qib yurgan kezlari boshlanadi. 1925-yildan sobiq “Qizil O‘zbekiston”, “Yangi yo‘l” gazetalari, “Mushtum” jurnalida Norin Shilpiq, Mavlono Kufur, Guliyor, Erkaboy, E-boy, Nish taxalluslari bilan asarlari bosilib chiqqan boshlaydi.

O‘rta Osiyo davlat universitetining avval ishchilar fakultetini, keyin pedagogika fakultetini tugatadi. Uning “Qishloq hukm ostida” nomli qissasi 1932-yili kitob holida bosilib chiqadi. 1934-yilga kelib “Sarob” romani nashr etiladi.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotida kichik hikoyalar ustasi sifatida tanildi. Uning tarixiy mavzulardagi “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Anor”, “Dahshat”, zamonaviy mavzulardagi “Asror bobo”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Ming bir jon”, hajviy xarakterdagi “Mayiz yemagan xotin”, “Adabiyot muallimi”, “To‘yda aza”, “Nutq” kabi asarlari o‘zbek hikoyachiligining eng nodir namunalari sanaladi. Uning dehqonlar hayotiga bag‘ishlangan “Qo‘shchinor chiroqlari” romani 1951-yili bosilib chiqadi. U o‘zbek dramaturgiyasiga ham katta hissa qo‘shgan adibdir. U komediya janrida “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” kabi sahna asarlari yaratib, jamiyat rivojiga to‘siq bo‘layotgan illatlar ustidan kuladi.

Abdulla Qahhor ijodi o‘zbek qissachiligida ham muhim o‘rin egallaydi. Uning “Sinchalak”, “O‘tmishdan ertaklar”, “Muhabbat”, “Zilzila” kabi qissalarida o‘zbek xalqining hayoti yorqin ifodasini topgan.

Abdulla Qahhor jahon miqyosidagi ulkan yozuvchilarning mahorat sirlarini o‘rgandi, ularning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. U A.S.Pushkinning “Kapitan qizi”, N.V. Gogolning “Uylanish”, “Revizor” komediyalari, L.N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” roman-epopeyasini o‘zbek tiliga o‘girdi.

Abdulla Qahhor og‘ir betoblikdan so‘ng 1968-yil 25-mayda 61 yoshida Moskvada vafot etdi. U O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, qator orden va medallar sohibi, bir necha bor Davlat mukofotlari sovrindori bo‘lgan. Uning nomi mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlari, teatr, kutubxona, xiyobon va ko‘chalarga qo‘yilib abadiylashtirilgan.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. Yozuvchi qanday avtobiografik asar yozgan?
3. Adib asarlarini qanday taxalluslar bilan gazeta va jurnallarda nashr ettirgan?
4. Adibning dehqonlar hayotiga bag‘ishlangan asari qaysi?
5. Yozuvchining tarjimachilik sohasidagi ishlari.



ERKIN VOHIDOV

Taniqli o'zbek shoiri Erkin Vohidov 1936-yil Farg'ona viloyatining Oltiariq timanida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. Uning otasi tarix o'qituvchisi bo'lib, ikkinchi jahin urushida boshidan og'ir yaralanib, 1945-yili vafot etadi. Ko'p o'tmay uning onasi ham vafot etadi. To'qqiz yoshli Erkin Vohidov adliya xodimi bo'lgan tog'asi qo'lida tarbiya topadi.

Erkin Vohidov 7-sinfda o'qib yurgan paytlaridayoq she'rlar yoza boshlaydi. Uning birinchi she'ri "Mushtum" jurnalida bosilib chiqadi. Shoir 25 yoshida "Tong nafasi" nomli birinchi she'rlar to'plamini nashr ettirdi. Shundan keyin uning birin-ketin "Yoshlik devoni", "Muhabbat", "Tirik sayyoralar", "Ruhlar isyoni", "Saylanma", "Yaxshidir achchiq haqiqat" kabi kitoblari, "Oltin devor", "Istanbul fojiasi" kabi dramatik asarlari bosilib chiqdi.

Erkin Vohidov she'riyati o'zbek adabiyotida ming yillik an'analarni davom ettiruvchi noyob hodisadir. Uning har bir she'ri xalq qalbiga chuqur kirib borgan.

Shoirning "O'zbekiston", "O'zbekim" she'rlari tarixiy faktlar, xalqimiz turmushi bilan bog'liq yorqin tasvirlarga boyligi bilan boshqa asarlaridan ajralib turadi. "O'zbekim" qasidasi el orasida shu qadar mashhur bo'ldiki, sobiq sho'rolar imperiyasi himoyachilarini cho'chitib yubordi. Uning qo'shiq qilib aytilishiga, hatto yig'inlarda she'ning ijro etilishiga ochiqdan-ochiq to'siqlar qo'yildi.

Erkin Vohidov ijodida g'azal janri alohida o'rin tutadi. Uning to'plamlariga kiritilgan she'rlarining aksariyati yangicha mazmundagi g'azallardir. Shoir ularda o'zbek mumtoz adabiyotidagi ko'p asrlik an'analarni davom ettirmoqda.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi Erkin Vohidovning ilhomiga ilhom, jur'atiga jur'at qo'shdi. Shoirning keyingi yillarda yozgan asarlari jamiyatimiz va odamlarimizning barkamol bo'lishiga xalaqit beruvchi illatlarni fosh etishga qaratilgan. Erkin Vohidov ko'pgina chet ellik shoirlarning eng sara asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Bular ichida Gyotenning "Faust" asari eng yaxshi tarjimalardan sanaladi.

Erkin Vohidov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Erkin Vohidov qayerda va qachon tug'ilgan?
2. Shoirning birinchi she'ri qachon va qaysi jurnalda bosilib chiqqan?
3. Uning birinchi she'rlar to'plami qachon nashr etilgan?
4. Erkin Vohidov qanday to'plamlar nashr ettirdi?
5. Shoir xalqimiz o'tmishi tasvirlangan qanday she'rlar yozgan?
6. Erkin Vohidov Gyotenning qaysi asarini tarjima qilgan?



ABDULLA ORIPOV

Iste'dodli shoir Abdulla Oripov 1941-yili 21-martda Qashqadaryo viloyatidagi Koson tumanining Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. Uning otasi dono, ochiq ko'ngil kishi bo'lib, uzoq yillar o'zlari yashagan qishloqqa rahbarlik qilgan.

Abdulla Oripov o'rta maktabni bitirib, Toshkent davlat universitetiga o'qishga kirdi. Uning "Uchqun" nomli birinchi she'ri 1957-yilda bosilib chiqqan. 1965-yili "Mitti yulduz" nomli ilk she'rlar to'plami nashrdan chiqdi. Shundan keyin deyarli har yili uning bitta she'riy kitobi nashr etib kelinmoqda.

Abdulla Oripov universitetni bitirgach, "Yosh gvardiya", G'afur G'ulom nomli nashriyotlarda mumharrirlik qildi, "Sharq yulduzi", "Gulxan" jurnallarida ishladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga kotiblik qildi.

Abdulla Oripov ijodining mavzusi – Vatan, xalq, muhabbat, inson va haqiqatni kuylash. Abdulla Oripov qayta qurish davrida va respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, katta kuch va g'ayrat bilan ijod qildi. Uning she'rlarida ozod Vatan, mehribon ona, rizq-u ro'z yaratuvchi tanti dehqon, mehnatkash va ahdiga sadoqatli ayol, barkamol inson, poklik, samimiylik, muhabbat, yaxshilik mavzulari barilla yangradi.

Shoirning "Onajonim", "Yurtim shamoli", "O'zbekiston", "Yuzma-yuz", "Yillar armoni", "Ishonch ko'priklari", "Haj daftari" va boshqa kitoblari xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanib qolgan. U mustaqillikka erishgan respublikamizning yangi madhiyasi muallifi hamdir.

Shoir mashhur chet el ijodkorlarining ko'plab asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Shulardan Dantening "Ilohiy komediya"si shoirga katta shuhrat keltirdi. Abdulla Oripov Hamza nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, O'zbekiston Qahramoni. Uning rang-barang mavzularda yaratilgan she'rlari xalqimizning o'zligini tanishiga ko'maklashibgina qolmasdan, halol, pok yashashga, sabr-qanoatli bo'lishga, mol-dunyoga hirs qo'ymaslikka da'vat etadi.

Bir so'z bilan aytganda, Abdulla Oripov o'zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo'shgan va qo'shayotgan nodir so'z san'atkoridir. Shoirning muxlislari uning har bir she'rini intiqlik va katta quvonch bilan kutib oladilar.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Abdulla Oripov qayerda va qachon tug'ilgan?
2. Shoirning birinchi she'ri qachon va qanday nom bilan chop etilgan?
3. Abdulla Oripovning birinchi to'plami qachon chop etilgan?
4. Shoir qanday asarlar arjimon qilgan?
5. Abdulla Oripovning to'plamlari qanday nashr etilgan?



Toshkent shahri qadimda “Choch”, “Shosh” nomlari bilan atalgan. XI asrdan Toshkent deb yuritila boshlagan. Toshkent geografik jihatdan qulay yerda joylashgan, iqlim sharoiti ham mo‘tadil bo‘lganligi uchun dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Qadimgi Toshkentning atrofi baland va qalin devorli qo‘rg‘on bilan o‘ralgan edi. Shaharning bo‘yi ham, eni ham 6-7 kilometr ga teng bo‘lgan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar shaharning yoshi 2000 yildan ortiq ekanligini tasdiqlaydi.

Shahar devoridan tashqarida eng sersuv yerlar o‘zlashtirilib, obod etilgan. Aholi meva, sabzavot va g‘allaga zoriqmagan.

Toshkent o‘zaro urushlar, qo‘zg‘olonlar, ko‘chmanchi qabilalar hujumlari natijasida bir necha marta vayron qilinib, qayta tiklandi. XIII asrgacha Toshkent qal’a, ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lib, atrofi bir necha qator mudofaa devori bilan o‘rab olindi. Shaharda kulolchilik, o‘q-yoy, gazlama, charm mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlanadi. XV-XVI asrlarda Toshkentda yirik tarixiy ansambllar qad ko‘taradi. XVIII-XIX asrlarga kelib, shahar yanada kengaydi va hududi 15 ming gektarga yetdi. Shahar to‘rt daha va yuzlab mahallalarga bo‘lingan. Shaharga 12 darvoza orqali kirilgan.

Toshkent 1930-yildan O‘zbekistonning poytaxti bo‘ldi. Shu yillar ichida Toshkentning qiyofasi tubdan o‘zgardi. Tor, qing‘ir-qiyshiq ko‘chalar o‘rniga keng va elektrlashtirilgan yorug‘ xiyobonlar barpo etildi, ko‘p qavatli binolar qurildi. Ayniqsa, 1966-yilgi zilziladan so‘ng Toshkent tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. Shahar maydoni kengaydi, uning chegarasidan 67 kilometrli aylanma yo‘l o‘tkazildi. 1977-yili O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan Toshkent metrosi ishga tushdi. 1985-yili bo‘yi 375 metrli ulkan teleminora qurildi. Ma‘muriy bino, Matbuot uyi, “Paxtakor” stadioni, “O‘zbekiston”, “Chorsu” kabi mehmonxonalar, Navoiy, Muqimiy, Hamza teatrlari, Xalqlar do‘stligi saroyi, Rassomlar uyi, Oliy Majlis, Senat, Milliy bank binolari, A.Temur va adabiyot muzeylari Toshkentni yanada ulug‘vor ko‘rsatadi.

Yirik ilmiy va ma‘rifat markazi hisoblangan poytaxtimizda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, o‘nlab ilmiy tekshirish institutlari, 30 ga yaqin oliy o‘quv yurtlari, 20 ga yaqin muzey, 700 ga yaqin kutubxona, o‘ndan ortiq teatr, o‘nlab madaniyat saroylari, yuzlab kinoteatrlar mavjud.

Toshkent mamlakatimizning ulkan sanoat markazi bo‘lib, bu yerda 300 dan ortiq yirik zavod va fabrikalar muntazam ishlab turibdi. Toshkentda mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati tez rivojlanmoqda. Poytaxtimizdagi to‘qimachilik, trikotaj kombinatlari, traktor, samolyotsozlik zavodlari, boshqa davlatlar bilan hamkorlikda ochilayotgan qo‘shma korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar jahon bozorida o‘z xaridorini topmoqda.

Toshkent Sharqda rivojlangan shaharlardan biri bo‘lib, bu yerda har yili ijtimoiy taraqqiyot, tinchlik, ekologiya, fan va texnika, madaniyat, san‘at va

boshqa sohalarga bag'ishlangan o'nlab xalqaro anjumanlar, sport musobaqalari o'tkaziladi. Toshkent ko'p millatli ulkan shahar bo'lib, hozir unda 3 milliondan ortiq aholi yashaydi. Uning chiroyi kundan-kunga ortib boryapti.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Toshkent shahri qadimda qanday nomlar bilan yuritilgan?
2. Toshkent qachondan boshlab O'zbekistonning poytaxti bo'ldi?
3. Toshkent metrosi qachon ishga tushdi?
4. Toshkent teleminorasi haqida nimalar bilasiz?
5. Toshkentda qanaqa oliy o'quv yurtlari va zamonaviy inshootlar bor?



Samarqand ham dunyoga mashhur tarixiy Bobil, Afina, Rim shaharlari kabi boy o'tmishga ega. Uning yoshi 2750 yildan ortiq.

Samarqand dastlab Siyob daryosi sohilida qad ko'targan. U o'n yarim kilometrli mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, shaharga uchta darvoza orqali kirilgan. Samarqandni miloddan avval 329-yili Aleksandr Makedonskiy, VIII asrda arab sarkardasi Qutayba, XIII asrda Chingizxon qo'shinlari bosib olib, vayron qilishgan. Qadimgi Samarqand shahri xarobalari hozir Afrosiyob nomi bilan yuritiladi.

XV asrlarga kelib Samarqand Afrosiyob xarobalaridan janubroqda qayta tiklandi. Tez orada yana dunyoga dong'i ketgan go'zal shaharga aylandi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylangandan so'ng shaharda ma'muriy binolar, masjidlar, madrasalar, hammomlar, savdo markazlari, karvonsaroylar ko'plab qurildi. Shahar atrofi olti darvozali mudofaa devori bilan o'rab olindi. Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansambllarining qurilishi shaharni yanada go'zallashtirdi. Shahar atrofida Bog'ishamol, Bog'idilkusho, Bog'ibaland, Bog'imaydon, Bog'ibehisht, Bog'izag'on kabi 12 ta ko'rkam bog' barpo etildi.

Amir Temurdan so'ng Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandni obodonlashtirish ishlari davom ettirildi. Ulug'bek rasadxonasi, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari qurildi. O'sha davrda qurilgan Ko'ksaroy va Bo'stonsaroyga davlat idoralari, qurol-yarog' ustaxonalari, xazina, zarbxona va qamoqxona joylashtirildi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqandda zamonaviy binolar qurila boshladi.

1924-1930-yillarda Samarqand O'zbekiston Respublikasining poytaxti bo'ldi. Hozirgi paytda Samarqand shahri aholi soni va sanoat korxonalari ko'pligi jihatidan respublikamizda ikkinchi o'rinda turadi. Samarqand kengayib, yanada

obodonlashib bormoqda. Barcha sharoitlarga ega turar joylar ko'paydi, yangi jamoat binolari, maishiy xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq majmualari, ko'pqavatli keng va ko'rkam binolar, maktablar, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, ko'plab favvorali istirohat bog'lari, xiyobonlar, maydonlar, ko'chalar, zamonaviy vokzal, aeroport qurilib, ma'muriy binolar barpo etildi. Tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, yangilarini qurishga e'tibor kuchytirilmoqda. Shaharda Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abulqosim Rudakiy kabi ulug' bobokalonlarimizga mahobatli haykallar o'rnatilgan.

Samarqand rivojlangan sanoat shahri. Bu yerda avtobus va yuk mashinalari, muzlatgichlar, liftsozlik, avtomobilsozlik, chinni buyumlar, kino asbob-uskunolari, burg'ulash asboblari, motor qismlari ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar, poyabzal, shohi va baxmal to'qish, trikotaj, galanteriya fabrikalari va ko'plab milliy hunarmandchilik korxonalari mavjud.

Samarqand respublikamizning yirik ilm-fan markazlaridan biri. Universitet, qishloq xo'jalik, savdo va servis, tibbiyot, chet tillari, me'morchilik-qurilish institutlari, Toshkent davlat axborot texnologiyalari universitetining filiali, o'nlab kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda yoshlar fan sirlarini qunt bilan o'rganmoqdalar.

Samarqand shahri va viloyati hududida joylashgan Doniyol payg'ambar, Imom Ismoil Buxoriy, Maxdumi A'zam, Moturudiy, Xo'ja Ahrori Valiy, Qusam ibn Abbos, Amir Temur maqbaralarini ziyorat qilish uchun har yili butun dunyodan millionlab sayyohlar kelishadi.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Samarqand dunyoning qaysi shaharlari bilan tengdosh?
2. Qadimgi Samarqand qaysi qo'shinlar tomonidan vayron etilgan?
3. Samarqandning qanday tarixiy qadamjolarini bilasiz?
4. Samarqand qachon O'zbekistinning poytaxti bo'lgan?
5. Samarqandda kimlarga haykal va yodgorliklar o'rnatilgan?

DAM OLISH KUNI

Bir yil o'n ikki oyga bo'lingan. Yangi yil yanvar oyidan boshlanadi. Dekabr yilning so'nggi oyi hisoblanadi. Bir oy 30 yoki 31 kundan iborat bo'ladi. Har bir oy to'rt haftadan tashkil topadi. Hafta esa yetti kundan iborat. Biz dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma va shanba kunlari o'qiymiz yoki ishlaymiz. Bu kunlar ish kunlari hisoblanadi. Yakshanba – dam olish kuni. Biz yakshanba kunida bajariladigan ishlarimizni oldindan rejalashtirib qo'yamiz. Dam olish kunini har kim har xil o'tkazadi.

Men dam olish kunini oilamiz a'zolari bilan uyda o'tkazishni yaxshi ko'raman. Bahor va kuz paytlari toqqa chiqamiz. Bahorda qirlar va tog' etaklari yam-yashil maysalar, qip-qizil lolalar, qizg'aldoqlar bilan bezanadi. Kuzda soy

bo'ylaridagi o'tlar va daraxtlarning yaproqlari oltindek sarg'ayib, mevalar pishadi. Biz kechgacha sayr etib uyga qaytamiz. Boshqa paytlari hovlida turli ishlar bilan band bo'lamiz.

Odatda dam olish kunlari uyqudan kechroq turamiz. Nonushta qilib bo'lgach, bajariladigan ishlarni bo'lib olamiz. Men hovlidagi ariqlarni tozalayman, daraxtlar va gullarni butayman, ularni sug'oraman. Singlim onamga yordam beradi. U ertalab turib hovlini supuradi, eshik va deraza oynalarini artadi. Dadam bilan ukam bozordan oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavot va mevalar sotib olib kelishadi. Onam chang yutqich bilan xonalarni, gilamlarni tozalaydi, kir yuvish mashinasida kiyimlarni yuvadi, ularni dazmollaydi. Singlim pollarni yuvadi, kitob va kiyim javonlari, stol, televizor, deraza tokchalarining changlarini artadi. Keyin biz birgalashib tushlikka ovqat pishiramiz. Tushlik tayyor bo'lguncha, televizordan qiziqarli ko'rsatuvlarni tomosha qilamiz. Tushlikdan so'ng dadam va onam buvimlarnikiga borishadi. Biz – men, ukam va singlim birgalikda dars tayyorlashga o'tiramiz.

Kechqurun barchamiz kechki ovqat oldidan dasturxon atrofida yig'ilamiz. Kechki ovqatdan so'ng men do'stlarim bilan uchrashaman. Ular bilan suhbatlashamiz, shaxmat, shashka, bilyard o'ynaymiz. Ukam va singlim badiiy asar o'qishni yoqtiradi. Otam va onam televizor tomosha qiladilar, gazeta va jurnal o'qiydilar, ertangi ishlar haqida suhbatlashadilar. Biz dam olish kunini mana shunday juda maroqli o'tkazamiz.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Bir oy necha kundan iborat?
2. Ish yoki o'qish kunlarini qanday o'tkazasiz?
3. Dam olish kunlarini qanday o'tkazasiz?
4. Dam olish kuni ota-onangizga yordamlashasizmi?
5. Dam olish kuni bajaradigan ishlaringini gapirib bering.

MENING ISH KUNIM

Men Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining fizika fakultetida o'qiyman. Men hafta davomida qiladigan ishlarimni oldindan rejalashtirib olaman. Ana shunday qilganligim uchun rejalashtirilgan ishlarim qolib ham ketmaydi yoki rejadan tashqari ishlar bo'lganda ham shoshib qolmayman.

Men har kuni ertalab soat 6 da turaman. 30 daqiqa davomida badan tarbiya bilan shug'ullanaman, turli mashqlar bajaraman. Ipda sakrayman, yuguraman, turnikda tortilaman, tosh ko'taraman. Mashqlar bajarib terlagach, dushda yuvinib olaman. Soat 7 da nonushta qilishga o'tiraman. Men nonushtaga sut, murabbo, sariyog', non, qahva yoki choy ichishni yoqtiraman. Nonushtadan so'ng soat 7 dan 30 daqiqa o'tganda uydan chiqaman. Darsga o'rtoqlarim bilan ertalabki toza

havoda piyoda boraman. Universitetda darslar soat 8 da boshlanadi. Har kuni 3-4 fandan dars o'tamiz. Darslarimiz soat 2 dan 20 daqiqa o'tganda tugaydi. Uchinchi va to'rtinchi darslar oralig'ida tushlik uchun 40 daqiqalik katta tanaffus bo'ladi. Bu vaqtda biz universitet talabalar oshxonasida tushlik qilib olamiz. Oshxonamiz ikki qavatli. Birinchi qavatda o'qituvchilar ovqatlanishadi. Biz ikkinchi qavatda tushlik qilamiz. Oshxonada milliy va boshqa taomlarni juda lazzeatli tayyorlashadi. Tushlikdan so'ng yana bir fandan dars o'tib, uyga qaytamiz.

Uyga kelib bir soat dam olaman. Keyin universitet axbotor-resurs markaziga borib, amaliy va ma'ruza mashg'ulotlariga tayyorlanaman. Elektron adabiyotlarni kompyuterimga yuklab olaman. Tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qib, kerakli joylarini yozib olaman. Kechqurun soat oltalarda yana uyga qaytaman. Haftada ikki kun – chorshanba va shanba kunlari darsdan so'ng voleybol bo'yicha to'garak mashg'ulotlariga qatnashaman. Darslardan bo'sh vaqtimda onamga uy ishlarida ko'maklashaman. Kechki ovqatga soat 19 dan 30 daqiqa o'tganda o'tiramiz. Onam juda pazanda, ajoyib, shirin taomlar pishiradi. Kechki ovqatdan so'ng men idish-tovoqlarni, piyolalar, qoshiq va sanchqilarni issiq suvda yuvib, tozalayman, artaman, joy-joyiga terib qo'yaman. So'ng birgalashib televizor tomosha qilamiz. Kechqurun men ko'proq badiiy asar, gazeta va jurnallar o'qish bilan band bo'laman. Internetdan kerakli manbalarni topib, ularni o'rganaman. Soat 11 da yotib uxlayman.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Siz qayerda o'qiysiz?
2. Siz kunlik ish tartibiga rioya qilasizmi?
3. Qanday gazeta va jurnallarni sevib o'qiysiz?
4. Internetdan qanday maqsadlarda foydalanasiz?



Mamlakatimiz hududida to'rt mingdan ortiq o'simlik turi mavjud. Ularning ko'pchiligi yovvoyi, ayrimlari madaniy holda va ba'zilar madaniy o'simliklar orasida begona o't sifatida o'sadi.

O'zbekiston tabiati nihoyatda xilma-xil va go'zaldir. Baland tog'lar, lalmikor qir-adirlar, qumloq cho'llar, suv omborlari, daryolar, serhosil dalalar, ko'm-ko'k o'rmon va mevazor bog'lar O'zbekistonning ko'rkidir.

Cho'llarda suvsizlikka chidamli tikanli o'simliklar bilan bir qatorda, namni kam bug'lantiruvchi saksovul daraxtlari o'sadi. Yurtimiz tog'larini bog'ga qiyos qilish mumkin. Chunki bu yerlarda archa, tol, terak kabi turli manzarali daraxtlar

bilan yonma-yon yong‘oq, bodom, yovvoyi olma, nok, anor, do‘lana, tog‘olcha, pista kabi o‘nlab turdagi mevali daraxtlar ham o‘sadi.

Insoniyat hayoti o‘simliklar olami bilan uzviy bog‘liq. O‘simliklar insonni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta‘minlaydi, havoni tozalaydi, xo‘jalik va qurilish materiali bo‘ladi, tuproqni eroziyadan saqlaydi, namlikni ushlab turadi, tuproqni oziqlantiradi, qumloq va toshloq yerlarni serunum tuproqli ekin maydonlariga aylantiradi.

O‘zbekistonda eng ko‘p ekiladigan madaniy o‘simliklar sirasiga paxta, makkajo‘xori, bug‘doy, sholi, mosh, loviya, no‘xat, zig‘ir, kunjut, arpa, javdar, tariq, qovun, tarvuz, qovoq, oshkadi, kartoshka, pomidor, piyoz, shirin va achchiq qalampir, turp, bodring, sholg‘om, sarimsoq va boshqalar kiradi. O‘zbekistonlik bog‘bonlar har yili olma, nok, o‘rik, shaftoli, anor, behi, olcha, gilos, yong‘oq, olxo‘ri, shotut, xurmo, jiyda, chilonjiyda, uzum, anjir, pista, bodom, ko‘ksulton kabi mevali daraxtlarning o‘nlab navlaridan yuqori hosil yig‘ishtirib oladilar.

O‘simliklarning eng ajoyib xislatlaridan biri – ularning shifobaxshligidir. O‘zbekiston shifobaxsh o‘simliklar maskani sifatida ham mashhurdir. Serquyosh dala va bog‘larimizda yetishtirilayotgan shirin-sharbat mevalar, darmon dorilar manbayi bo‘lgan sabzavotlar, poliz mahsulotlari o‘zlarining shifobaxshligi bilan boshqa joylarda yetishitirilgan mahsulotlardan ajralib turadi. Qishin-yozin dasturxondan meva va sabzavotlarning uzilmasligi salomatligimizning garovidir.

O‘zbekiston yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarga ham juda boy. Bunday o‘simliklar qatoriga quyidagilar kiradi: arpabodiyon, atirgul, bo‘yimodaron, gulxayri, dalachoy, jambil, jag‘jag‘, zira, isiriq, ismaloq, momaqaymoq, nargis, sedana, seldir, semizo‘t, suvqalampir, tog‘rayhon, chayono‘t, chirqanoq, chuchukmiya, ermon, qora zirk, qo‘shirnoq, yalpiz va boshqalar.

Shuni esda tutish kerakki, ko‘pchilik o‘simliklarning tarkibida zaharli moddalar ham bo‘ladi. Bunday dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar bir oz ortiqroq bo‘lsa ham oadamni kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo‘liqtiradi. Adonis, angishvonagul, bangidevona, belladonna, isiriq, kuchala, marvaridgul, mingbosh, mingdevona kabilar zaharli dorivor o‘simliklardir. Bunday o‘simliklarni og‘izga olmaslik, ularni yig‘ib olayotganda qo‘lni ko‘zga urmaslik va ish tugagach, qo‘lni yaxshilab sovunlab yuvish kerak.

O‘simliklar bo‘lmasa hayotning o‘zi ham bo‘lmaydi. Shuning uchun o‘simliklarni asrab-avaylashimiz, ularning o‘sib, ko‘payishiga yordam berishimiz lozim. Yashil olam insoniyatning eng yaqin do‘sti ekanligini hech qachon unutmaylik.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. O‘simliklar inson hayotida qanday ahamiyatga ega?
2. Mamlakatimizda qancha o‘simlik turi mavjud?
3. O‘zbekistonda eng ko‘p ekiladigan madaniy o‘simliklarni bilasizmi?
4. O‘zbekistonda yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarni bilasizmi?
5. Qanday yovvoyi mevali daraxtlarni bilasiz?
6. Qanday o‘simliklardan chuchvara yoki ko‘k somsa, manti tayyorlanadi?

O'ZBEKISTONNING HAYVONOT OLAMI

O'zbekistonning hayvonot dunyosi ham juda boy va turli-tumandir. Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi, Zarafshon daryosi, qator suv omborlari va ko'llarda oltmishdan ortiq baliq turlari, yuzlab turdagi suv qushlari yashaydi. Oqqayroq, tovonbaliq, zog'orabaliq, laqqa, ilonbosh, olabug'a, cho'rtan kabi baliqlar ko'plab ovlanadi. Ondatra, qunduz, suvsar, nutra, tulki kabi hayvonlar chiroyli mo'ynasi uchun ov qilinadi.

Bepoyon cho'llarda, ulkan tog' tizmalarida, vohalarda 60 turga yaqin sudralib yuruvchilar, 90 turdan ortiq sut emizuvchilar, 410 dan ortiq turdagi qushlar tarqalgan.

O'zbekiston hayvonot dunyosi juda qadimiydir. Hayvonlarning ayrim turlari faqat shu yerning o'zida paydo bo'lgan. Bunday hayvonlarga orol shipi, katta kurakburun baliq, turkiston agamasi, turkiston gekkoni, qum bo'g'ma iloni, xo'jasavdogar, qo'shoyoq, ko'k sug'ur, ingichka barmoqli yumronqoziq va boshqalar kiradi. Tekisliklarda sirtlon, bo'ri, chiyabo'ri, tovushqon, asalxo'r, tulki, jayra, tipratikon, jayron, to'ng'iz, bug'u, qulon, toshbaqa, kaltakesak, ilon va echkemarlarni uchratish mumkin. Yaqingacha to'qaylarda yo'lbars na'ralarini ham eshitish mumkin bo'lgan.

Tog'lar va uning atroflaridagi o'rmonlar, chakalakzorlarda ayiq, bo'ri, olmaxon, burgut, kalxat, qarchig'ay, qumoy, tasqara, boltayutar, miqqiy, lochin, itolg'i, qarg'a, quzg'un, kaklik, qirg'ovullar yashaydi. Ayrim qushlar odamlar bilan qishloq va shaharlarda yonma-yon yashashga odatlanganlar. Bularga qaldirg'och, chumchuq, musicha, mayna, kaptar, laylak kabilarni kiritish mumkin.

Odamlar eng qadimgi davrlardan boshlab yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirganlar. Xonakilashtirilgan hayvonlar sirasiga tuya, ot, sigir, qo'y, echki, cho'chqa, eshak, it, mushuk, quyon, tovuq, kurka, g'oz, o'rdak, kaptarlar kiradi. Asalari, ipak qurti kabi hasharotlar ham juda qadimdan xonakilashtirilgan.

Hayvonlar qadimdan har xil xomashyo, go'sht va mo'yna manbayi bo'lib kelgan. Hozir ham tirik tabiat mahsulotlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Har yili yurtimizdagi baliqchilik xo'jaliklarida baliqlar ko'paytiriladi, daryo va ko'llardan ming sentnerlab baliqlar ovlanadi, sanoat uchun minglab mo'ynali hayvonlar terisi tayyorlanadi. Qirg'ovul, kaklik, bedana kabi parrandalar ovlanib, ulardan parhez go'sht tayyorlanadi.

O'zbekiston hududida zaharli ilonlarning besh turi uchraydi. Ularning zaharidan qimmatbaho dori-darmonlar tayyorlanadi. Ilon zahri tayyorlashda O'zbekiston dunyoda yuqori o'rinda turadi.

Har yili respublikamizda eksport uchun bir necha o'n minglab dasht toshbaqalari, tibbiy tajribalar uchun yuz mingdan ortiq ko'l baqalari tutiladi.

Hayvonlar tabiatda va qishloq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega. Hasharotxo'r hayvonlar va parrandalar zararkunanda hasharotlarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymay, qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l hosil olishda dehqonlar, bog'bonlarga ko'maklashadi.

Yovvoyi hayvonlardan foydalanish bilan bir qatorda, ularni ayovsiz ov qilish, ba'zi hollarda butunlay yo'q bo'lib ketishdan saqlash lozim. O'zbekistonda yashayotgan sut emizuvchilarning 22 turi, qushlarning 31 turi, sudralib yuruvchilarning 5 turi, baliqlarning 5 turi Qizil kitobga kiritilgan. Ularni muhofaza qilish zarur.

Hayvonot dunyosini muhofaza qilishda qo'riqxonalar muhim o'rin tutadi. Hozir respublikamizda o'ndan ortiq qo'riqxona mavjud. Ularda tabiatning mazkur burchagidagi tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi tabiiy holda saqlanib qolishi kerak.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Yurtimizda qanday sudralib yuruvchi hayvonlar uchraydi?
2. Qanaqa yovvoyi sut emizuvchi hayvonlarni bilasiz?
3. Yurtimizda qushlarning qancha turi bor?
4. O'zbekistonda zaharli ilonlarning necha turi uchraydi?
5. Yurtimizda qaysi hayvonlar eksport va tibbiy tajriba uchun tutiladi?
6. Qizil kitobga qaysi hayvonlar turlari kiritilgan?



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

Dunyoning barcha mamlakatlarida salomlashish yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi. Ko'chaga chiqqanda uchragan birinchi tanishga, do'stlarga, o'qish yoki ish joyiga kiriboq hamsaboqlar, hamkasablarga, uyga qaytganda esa oila a'zolariga salom beriladi, salomga alik olinadi. Salom-alikning ma'nosi, eng avvalo, bir-biriga sog'liq, tinchlik, omonlik tilashdir. Shundan ham ko'rinadiki, inson uchun sog'liq, omonlik, tinchlikdan qimmatroq boylik yo'qdir. Shuning uchun ham bir-birimiz bilan uchrashganda "Assalomu alaykum! Salomatmisiz? Sog'liqlaringiz yaxshimi? Sog'-omonmisiz?" – desak, xayrlashayotganda esa, albatta, "Sog' bo'ling! Xayr, salomat bo'ling!" – deymiz.

Doim sog' bo'lish mumkinmi? Ha, mumkin. Buning uchun o'z vaqtida ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, o'qish yoki ishni qat'iy tartib asosida yo'lga qo'yish, ertalab badantarbiya qilish, tanani, o'qish yoki ish joyini doim toza-ozoda saqlash, asabiylashishdan o'zni tiyish, ko'proq quvnoq kishilar davrasida bo'lish, o'z vaqtida dam olish, turli meva, sabzavot va ko'katlardan doimiy ravishda iste'mol qilib turish lozim.

Afsuski, har doim ham vaziyat biz istagandek bo‘lavermaydi. Doim ham bir-birimizni to‘g‘ri tushunavermaymiz. Oqibatda kishi asabiylashadi. Asabiylashish esa o‘qish yoki ishdagi dilxiraliklarga, eng yomoni, salomatligimizning yomonlashuviga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ob-havoning tez-tez o‘zgarishi, quyosh yoki tabiatdagi muvozanatning o‘zgarishi, o‘qish, ish yoki yashash joyimizdagi turli noqulayliklar ham salomatligimizga salbiy ta’sir etadi. Oqibatda kishi tanasi o‘zining doimiy muvozanatini saqlab tutolmay, tashqi yordamga muhtojlik sezadi. Shunda biz shifokorlarga murojaat etishga majbur bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati aholi sog‘ligini mustahkamlash uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratmoqda. Aholi sog‘ligini mustahkamlash yo‘lida alohida xizmat ko‘rsatgan kishilar uchun ”Sog‘lom avlod uchun” ordeni ta’sis etilgan. Mamlakatimizda xalq hayotini farovonlashtirish, atrof-muhitning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik borasida bir qancha qonunlar qabul qilingan. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga qat’iy amal qilinadi. Ko‘pchilik korxonalarining profilaktoriyalari, dam olish pansionatlari mavjud. Aholi sog‘ligini tiklash va mustahkamlash uchun qishloq vrachlik punktlari, ambulatoriyalar, oilaviy poliklinikalar, shifoxonalardan tashqari, o‘nlab sanatoriyalar, dam olish uylari yil bo‘yi ishlab turadi.

Sog‘ligini asrash har kimning o‘z qo‘lidadir. Buning uchun uyda, o‘qishda va ishdagi bir-birimizga xushmuomala bo‘lishimiz, rashk, ig‘vo, fitnalarga barham berishimiz, bir-birimizga mehribon va g‘amxo‘r bo‘lishimiz, ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi illatlarni tag-tubi bilan yo‘q qilishimiz, chang, tutun va shovqin-so‘ronsiz sharoitda yashash, o‘qish va ishlash imkoniyatini yaratishimiz, ovqatlanish va dam olishni to‘g‘ri tashkil etishimiz, asabga tegadigan har qanday omillardan voz kechishimiz, doimiy ravishda sport bilan shug‘ullanib chiniqishimiz, qisqasi – sog‘lom hayot tarzini yaratishimiz lozim. Ana shundagina dunyoning barcha boyliklaridan ham qimmatroq bo‘lgan sog‘ligimizni asrab, baxtli hayot kechirishimiz mumkin.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Salom-alikning ma’nosini bilasizmi?
2. O‘zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. ”Sog‘lom avlod uchun” ordeni nima maqsadda ta’sis etilgan?
4. Inson sog‘lom bo‘lishi uchun nimalarga e’tibor berishi kerak?

YIL FASLLARI

Biz Quyosh tizimiga kiruvchi sayyoralardan biri – Yerda yashaymiz. Yer Quyoshdan taxminan 150 million kilometr masofada joylashgan bo‘lib, uning

atrofida aylanadi. Yerning Quyosh atrofida bir marta to'liq aylanib chiqishi yil deb ataladi. Yer 365 kunda Quyosh atrofini to'liq aylanib chiqadi. Yer bir sutkada o'z o'qi atrofida to'liq aylanadi.

Yer Quyosh atrofini aylanib chiqayotganda uning nurlari sayyoramiz yuzasini turlicha yoritadi. Natijada doimiy almashinib turuvchi yil fasllari vujudga keladi.

Quyosh osmonda Yerga nisbatan tik ko'tarilganda, uning nurlari sayyoramizga to'g'ri tushib, uni qizdiradi. Shunda Yer yuzi issiq bo'ladi. Quyosh baland ko'tarilmay, uning nurlari qiyalab tushganda, sayyoramiz yuzasi yaxshi qizimaydi va natijada havo sovuq bo'ladi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida – Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida joylashgan. Faqat Toshkent va Namangan viloyatlari Sirdaryoning o'ng tomonida, Xorazm va Qoraqalpog'istonning bir qismi Amudaryoning chap tomonida joylashgan. O'zbekistonning sharqiy va janubiy-sharqiy qismida Tyan-shan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog'lari joylashgan. Uning g'arbiy va shimoliy-g'arbiy qismiga qarab tog'lar pasayib boradi, tekisliklar va vodiylarga ulanib ketadi. Vodiylar tugab, cho'l va qumliklar boshlanadi. O'zbekiston serquyosh o'lka. Bu yerda yilning deyarli 250-300 kunida havo ochiq, quyosh charaqlab turadi. Mana shuning uchun ham O'zbekistonda bahor erta – mart oyidan boshlanadi.

Har yili 21-martda kecha bilan kunduz tenglashadi. Shu kundan boshlab kechalar qisqarib, kunduzi esa uzaya boradi. Quyoshning tik ko'tarila borishidan tuproq qizib, o'simliklar, daraxtlar uyg'onadi. Barcha jonivorlar harakatga keladi. Dehqon, bog'bon, chorvadorlar bahorgi ishlarga kirishadilar. Qir-adirlar, dalalar ko'm-ko'k o'simliklar, rang-barang gullar bilan bezanadi. Tabiatdagi bunday o'zgarishlar aprel-may oylarigacha davom etadi. Iyun oyidan issiq yoz fasli boshlanadi. 22-iyunga kelib kunduzlari juda uzayadi, kechalari nihoyatda qisqaradi. Mevalar qiyg'os pishadi, sabzavot va poliz ekinlari yetiladi. Kechalari 20-25 daraja, kunduzlari 40-45 darajagacha isiydi. Bolalar, hatto kattalar ham ko'llar, daryolar, cho'milish havzalaridan chiqishmaydi. Yoz fasli sentabr oyigacha davom etadi.

Sentabr oyidan kuz boshlanib, daraxtlar va o'simliklarning yaproqlari sariq tusga kiradi. 22-sentabrda kecha va kunduzning kuzgi tenglashishi yuz beradi. Bu tenglashishdan so'ng kechalar uzaya boshlaydi. Kuzgi mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlarini yig'ishga kirishiladi. Ayniqsa, bu davrda "oq oltin" yig'im-terimi avjiga chiqadi. Yetishtirilgan hosilni yig'ib-terish dekabr oyigacha davom etadi.

Dekabr qish faslining dastlabki oyidir. Endi kunlar soviydi, yomg'ir, ba'zan qor yog'adi. Turna, laylak, ko'kqarg'a, qaldirg'och, bedana, bulbul kabi issiqsevar qushlar janubiy o'lkalarga uchib ketadi. Shudgorlangan yerlar, yaproqlarini to'kkan daraxtlar dam oladi, ayiq, toshbaqa, ilon va qurbaqa kabi ba'zi hayvonlar qishki uyquga kiradi. Yanvar oyidan boshlab kunlar uzaya boshlaydi. Bolalar issiq kiyimlarga o'ranib qorbo'ron o'ynaydilar, qorbobo yasaydilar, yaxmalak otib, chanada uchadilar. Fevral oyining oxirlariga borib bahorning ilk elchisi – boychechaklar qor ostidan chiqib, gullay boshlaydi. Mana shu taxlit yil fasllari birin-ketin almashaveradi, biz esa yana bir yosh ulg'ayaveramiz.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Yerning Quyosh atrofida aylanishidan nima hosil bo'ladi?
2. Qaysi oylarda kecha va kunduzning tenglashishi yuz beradi?
3. Yil fasllarining almashish hodisasini tushuntirib bering.
4. Qaysi fasl sizga yoqadi?

MILLIY VA ZAMONAVIY BAYRAMLAR

Bayram – muhim tarixiy voqea, hodisa sharafiga shodlik, rasmiy tantana o'tkazish uchun belgilangan muborak kun. Bunday muborak kunlar xalq tomonidan quvonch, shodlik, tantana, o'yin-kulgi bilan kutib olingan va tantanavor tarzda nishonlangan.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, ardoqlab-e'zozlaydigan o'ziga xos bayramlari, tantanalari, an'analari bo'ladi. Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab xalq hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

Bayramlarda xalqning qadimiy udumlari, an'analari, tarixi, madaniyati o'zining yorqin ifodasini topadi. Bayramlarda kishilarning diniy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy yutuqlari namoyish etiladi. Bayram arafasida, bayram kunlari kishilar bir-birlarini tabriklaydilar, bir-birlariga yaxshi niyatlar izhor etib, muvaffaqiyatlar tilaydilar.

O'zbek xalqi eng qadimgi davrlardan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Shuning uchun ham xalq orasida Navro'z, gul sayli, ekin ekishga kirishish, qovun sayli, uzum sayli, hosil bayrami kabilarni nishonlash keng tus olgan. Keyinchalik islom dini bilan bog'liq Ramazon va Qurbon hayitlari ham keng nishonlanadigan bayramga aylangan.

Mustaqil O'zbekistonda bayramlar dam olish kuni deb e'lon qilingan. Quyidagi sanalar qonuniy bayram kunlari hisoblanadi: 1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro'z, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr – Mustaqillik kuni, 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni, Ramazon va Qurbon hayitlari hijriy hisobga ko'ra har yili o'n kun farq bilan nishonlanadi. Bulardan tashqari, mamlakatimizda 14-yanvar – respublika qurolli kuchlari kuni, 1-aprel – hazil-mutoyiba, kulgi va shodlik kuni, 1-iyun – bolalarni himoya qilish kuni, 21-oktabr – o'zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan tarixiy sana sifatida nishonlanib kelinadi.

Bayramlar ichida Navro'z va Yangi yilni bolalar ham, kattalar ham intizorlik bilan kutadilar. Bu bayramlarga imkon qadar jiddiy tayyorgarlik ko'rishadi.

Sharq xalqlari qadimdan Navro'zni Yangi yilning birinchi kuni sifatida keng nishonlab kelishgan. Navro'zda kecha bilan kunduz tenglashib, hayvonlar nomi bilan ataluvchi yil – muchal almashadi. Buyuk bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Nosiriddin Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqalar Navro'zni bahor, uyg'onish, yoshlik, go'zallik bayrami sifatida tasvirlaganlar.

Navro‘z bayramida uylar, hovli-joylar, choyxonalar, sayilgohlar, bozorlar, qabristonlar tozalangan. Daraxt va gul ko‘chatlari ekilgan. Marhumlarning qabrlari ziyorat qilingan. Kishilar ota-onalari, qarindoshlari, do‘stlari bilan diydorlashganlar. Bu kun xonadonlarda sumalak, yalpiz somsa, ko‘k chuchvara, halim, go‘ja, palov, g‘ilmindi kabi tansiq taomlar, turli shirinliklar pishirilgan. Qadimda ham Navro‘zda kishilar bir-birlariga tortiqlar ulashganlar, urushlar to‘xtagan, mahbuslar ozod etilgan, katta xalq sayillari uyushtirilib, uloq, poyga, kurash musobaqalari o‘tkazilgan.

Navro‘zdan keyin dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik ishlari jonlangan. Bu bayram barchani mehnat va ijodga chorlovchi baynalmilal bayramlardan biridir.

Rim imperatori Yuliy Sezar kalendari bo‘yicha Yangi yilni nishonlash bizda bir asrdan ko‘proq tarixga ega. Aslida bu bayram miloddan oldingi 46-yildan beri nishonlanib kelinadi. Uzoq vaqtlardan beri davom etib kelayotgan an‘analarga muvofiq yangi yilni kutib olish uchun archa va u o‘rnatilgan bino rang-barang elektr chiroqchalari bilan, bayram dasturxon esa turli taomlar, shirinliklar bilan bezatiladi. Tantanaga qorbobo bilan qorqiz taklif etiladi. Bayram marosimi tungi soat 24 dan so‘ng – yangi yil kimgach, yana davom ettiriladi.

Bayramlar kishilar o‘rtasida mehr-muhabbat, bir-biriga g‘amxo‘rlik, o‘zaro hurmat-e‘tiborni kuchaytirishda muhim ahamiyatga egadir.

Matn ustida ishlash bo‘yicha savollar:

1. Bayram – so‘ziga ta‘rif bering.
2. O‘zbekistonda qanday bayramlar nishonlanadi?
3. Qaysi fasl bayramlarga boy?
4. Siz va oilangiz uchun qaysi bayramlar qadrli?.



SHARAFLI KASB

Ibtidoiy jamiyat davridayoq odamlar ovchilik, keyinroq esa chorvachilik, dehqonchilik, kosibchilik bilan shug‘ullanganlar. Jamiyat rivojlangani sari ortib borayotgan ehtiyoj va talabni qondirish uchun kasblar ham ko‘payib borgan. Bugungi kunda jamiyatimizni novvoy, uchuvchi, huquqshunos, konstruktor, sartarosh, operator, oshpaz, soatsoz, shaxtyor, etikdo‘z, haydovchi, traktorchi, g‘isht teruvchi, suvoqchi, ekskavatorchi, buldozerchi, payvandchi, aktyor, bo‘yoqchi, xonanda, rassom, shifokor, musiqachi, sotuvchi, bastakor, duradgor, temirchi, hisobchi, naqqosh, chilangar, broker, yozuvchi, menenjer va hokazo kabi yuzlab kasblarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ko‘pchiligimiz hali maktabga bormasimizdanoq, ayrimlarimiz esa maktabda o‘qiy boshlagach, o‘zimizga kasb tanlaganmiz. Kimdir mashhur sportchi, kimdir taniqli jurnalist, yana kimdir mohir tikuvchi, tergovchi, quruvchi, kosmonavt, harbiy mutaxassis bo‘lishni orzu qiladi. Har birimiz tanlagan ezgu orzuyimizga

erishish, tanlagan kasbimizni egallash uchun tinmay o'qiymiz, izlanamiz, intilamiz.

Dunyoda shunday sharaflı kasb egalari borki, ular ming yillardan beri barcha xalqlar orasida el-yurt hurmatiga sazovor bo'lib keladi. Bu kasb ko'pchiligimiz sevadigan o'qituvchilikdir. Bu kasbning naqadar sharaflı ekanligini miloddan oldin o'tgan buyuk yunon faylasufi Arestotelni "birinchi muallim", X asrning ulug' qomusiy olimi Abu Nasr Forobiyni "ikkinchi muallim" deb ataganliklaridan ham bilsa bo'ladi.

O'qituvchi endigina atrof-olamni ko'rib, uning ajoyibotlaridan hayratlanayotgan 7-8 yoshdagi bolalarga mo'jizalar yaratishni: yozish, o'qish, hisoblash, go'zallikni his qilish va o'z taassurotlarini hikoya qilish, tasvirlash, kuylash orqali boshqalarga yetkazishni o'rgatadi.

Ota-ona o'z farzandini sog'lom qilib o'stiradi, kiyim-kechak, oziq-ovqat, o'quv qurollari va boshqalar bilan ta'minlaydi, odob-axloq o'rgatadi. O'qituvchi ham har bir o'quvchini o'z farzandidek yaxshi ko'rib, unga ta'lim-tarbiya beradi. O'z o'quvchisining tarbiyasi, madaniyatli, bilimli, hunarli, hozirjavob, mehribon inson bo'lib kamol topishi uchun bor bilimi hamda kuchini sarflaydi. U shogirdlarining har bir muvaffaqiyatidan o'zi erishgan g'alabadek quvonadi. Muvaffaqiyatsizligidan qayg'uradi.

Kishining jamiyatda o'z o'rnini topib olishida ota-ona va bilimdon o'qituvchilarning xizmatlari beqiyosdir. Shuning uchun ham xalqimiz otani ulug'lab "ota rozi – xudo rozi" desa, ustozlarni ulug'lab "ustoz otangdan ulug'" deydi.

Mamlakatimizda ustoz-murabbiylarga hurmat-e'tibor katta. Har yili birinchi oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni sifatida mamlakatimizda keng nishonlanadi. Har safar o'quv yili tugashi bilan hurmatli ustozlarimiz ikki oylik mehnat ta'tiliga chiqadilar. Respublikamiz va xorijdagi sanatoriyalar, kurortlarda, dam olish uylarida salomatliklarini tiklash va dam olish uchun yo'llanmalar olishadi. Davlat tomonidan yaratilgan turli imtiyozlardan foydalanadilar. Ko'pchilik o'qituvchilarimiz ijodkorligi, tashabbuskorligi, ta'lim-tarbiya berishdagi alohida xizmatlari uchun orden va medallar, "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan o'qituvchi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" va boshqa shu kabi faxriy unvonlarga sazovor bo'lganlar.

Savod o'rgatgan, ta'lim tarbiya bergan, ilm cho'qqilariga yo'l ko'rsatgan muhtaram ustozlarimizni hech qachon unutmaymiz.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Zamonaviy kasblarni sanang.
2. Siz qaysi kasbni sharaflı kasb deb hisoblaysiz?
3. Birinchi o'qituvchingiz haqida gapirib bering.
4. Mamlakatimizda o'qituvchilik kasbiga munosabat qanday?
5. O'zingiz tanlagan kasbingiz haqida gapirib bering.

O'ZBEK KURASHI

Sog'lom bo'lishni istagan har qanday inson muntazam ravishda badantartibiya bilan, biror bir sport turi bilan shug'ullanishi lozim. O'zbek xalqining ota-bobolari qadim zamonlaridan beri ko'plab sport turlari bilan shug'ullanib kelishgan. Bu sport turlaridan poyga, uloq chopish, chavgon, kurash, merganlik, shatranj, tosh ko'taish, arqon tortish kabilar xalq orasida keng tarqalgan. Bu sport turlari bo'yicha bayramlarda, to'ylarda musobaqalar o'tkazilganligi haqida o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida, "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarda, tarixiy kitoblarda ko'plab ma'lumotlar mavjud. Hozir ham bayramlar, to'ylar qiziqarli kurash, ko'pkari musobaqalarisiz o'tmaydi.

O'zbek kurashi haqida chet elliklarga birinchi marta 1992-yilda Kanadada dzyudo bo'yicha bo'lib o'tgan jahon chempionatida hamda xalqaro dzyudo fediratsiyasi kongressida ma'lumot berilgan edi. O'zbek kurashi, uning qonun qoidalari haqida to'liq ma'lumotlar Yaponiya, Hindiston, Buyuk Britaniya va Monakoda bo'lib o'tgan xalqaro forumlarda e'lon qilingan. Shu tariqa, bizning milliy kurashimiz chet ellik sportchilar va sport mutaxassislarining diqqatini jalb etdi.

1998-yil 6-7-sentabr kunlari Toshkentda kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun I xalqaro turnirda 20 dan ortiq mamlakat vakillari qatnashdi. Shu kunlari Toshkentda o'zbek kurashi ta'sis kongressi bo'lib o'tdi va unda Xalqaro kurash assotsiatsiyasining faxriy Prezidenti saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 1-fevralda assotsiatsiyani qo'llab-quvvatlash to'g'risida chiqargan farmoni o'zbek kurashining nafaqat respublikamizda, butun jahon bo'ylab keng tarqalishiga turtki bo'ldi. 1999-yil 1-mayda Toshkentda o'zbek kurashi bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda dunyoning ellikka yaqin mamlakati vakillari ishtirok etishdi. Bungacha o'tkazilgan biror sport turi bo'yicha birinchi jahon chempionatida bunchalar ko'p mamlakat vakillari ishtirok etishmagan. Hamyurtlarimiz T.Murodov, A.Qurbonovlar o'z vaznlari bo'yicha bu musobaqalarning birinchi chempionlari bo'lishdi

Bugungi kunga kelib dunyoning turli burchaklarida jahon miqyosida o'tkaziladigan o'zbek kurashi musobaqalarida **polvon, kurash, yonbosh, chala, tanbeh, dakki, halol, g'irrom** kabi bir qancha o'zbekcha atamalar barchaning havasini keltirib, jaranglaydigan bo'ldi. Biz dunyo miqyosiga chiqqan o'zbek kurashi bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. O'zbeklar qadimgi davrlardan qaysi sport turlari bilan shug'ullanib kelgan?
2. O'zbek kurashi haqida chet elliklarga qayerda va qachon ma'lumot berilgan?
3. Toshkentda o'tkazilgan xalqaro turnirda necha mamlakat vakillari qatnashgan?
4. O'zbek kurashining jahon bo'ylab tarqalishiga nima turtki bo'ldi?
5. Toshkentda 1-jahon chempionati qachon bo'lib o'tdi?
6. O'zbek kurashiga oid qanaqa o'zbekcha atamalarni bilasiz?

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Samarqand shahri Osiyoning eng qadimgi ilm-fan o'choqlaridan biri hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxti bo'lgan Samarqand shahri o'rta asrlarda yuksak taraqqiy etgan madaniy markaz darajasiga ko'tarildi. Bu qadimiy shahardan yetishib chiqqan o'nlab olimlar dunyo ilm-faniga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shishgan.

Har yili minglab mutxassisslar yetishtirayotgan Samarqand davlat universiteti 1927-yil 22-yanvarda tashkil etilgan. Dastlab bu yerda ijtimoiy-siyosiy, fizika, texnika, tabiatshunoslik, tilshunoslik, bo'limlari ochilib, atigi o'ntagina professor-o'qituvchi 65 nafar talabaga dars o'tish bilan ish boshlagan. Yildan-yilga fakultetlar, mutaxassisliklar ko'payib borgan. Xuddi shuningdek, ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilar, tahsil oluvchi talabalar soni ham yildan yilga ortib borgan.

Samarqand davlat universiteti bakalavriatura yo'nalishida o'zbek filologiyasi, rus filologiyasi, tojik filologiyasi, tarix, arxeologiya, iqtisodiyot, ijtimoiy ish, milliy g'oya va falsafa, geografiya, biologiya, ekologiya, musiqa, fizika, mexanika-matematika, informatika, kimyo, ijtimoiy-siyosiy fanlar, huquqshunoslik, jismoniy madaniyat, boshlang'ich ta'lim, pedagogika, psixologiya, kasbiy ta'lim kabi o'ttizdan ortiq mutaxassisliklar bo'yicha ilmiy hamda pedagog kadrlar tayyorlanmoqda.

Universitetda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqqan holda har tomonlama yetuk mutaxassis-kadrlar tayyorlashga e'tibor kuchaytirilmoqda. Yangicha dasturlar asosida bakalavr va magistrLAR tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Universitet axborot-resurs markazi Samarqand shahridagi eng katta ilm maskanidir. Hozir unda dunyoning ellikdan ortiq tillaridagi uch millionga yaqin qimmatbaho kitoblar, darslik va qo'llanmalar jamlangan. Ayniqsa, kutubxonaning sharq qo'lyozmalari bo'limida dunyo ahamiyatiga molik nodir asarlar saqlanadi. Talabalarga ARMning bir nechta filliali va yigirmaga yaqin qiroatxonalari beminnat xizmat qilmoqda. Universitet axborot-resurs markazi dunyo kutubxonalari tarmog'iga ulangan bo'lib, undan xohlagan tildagi xohlagan elektron kitobni topib o'qish mumkin.

Universitet talabalari uchun bir nechta zamonaviy yotoqxonalar qurilgan. Fakultetlar va yotoqxonalar atrofida o'ndan ortiq oshxona, tamaddixona, choyxonalar professor-o'qituvchilar hamda talabalarga xizmat qiladi.

Samarqand davlat universitetini bitirganlar orasidan o'nlab akademiklar, fan arboblari, davlat arboblari yetishib chiqqan. Bu o'quv dargohida Hamid Olimjon, Oydin, Mirtemir, Amin Umariy, Usmon Nosir, O'tkir Rashidov, Sharof Rashidov, Adham Hamdam, Asqad Muxtor, Shukur Sa'dulla, Dushan Fayziy, Omon

Matchon, Normurod Narzullayev, Barot Boyqobilov kabi mashhur shoir va yozuvchilar ta'lim olishgan.

Bugungi kunda turli yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar mustaqil O'zbekiston ilm-fani, madaniyati, shon-u shuhratini dunyoga tanitish maqsadida tinmay izlanmoqdalar, ijod qilmoqdalar, bobokalonlari ilmiy merosini chuqur o'zlashtirmoqdalar.

Matn ustida ishlash bo'yicha savollar:

1. Samarqand davlat universiteti qachon tashkil etilgan?
2. Dastlab qaysi bo'limlar faoliyat ko'rsatgan?
3. Universitet axborot-resurs markazi fondidan qanday asarlarni olib o'qiysiz?
4. Samarqand davlat universitetida hozirgi kunda nechta fakultet va bo'lim bor?
5. SamDUda ta'lim olgan qanday mashhur yozuvchi va shoirlarni bilasiz?
6. O'zingiz tahsil olayotgan fakultet haqida nimalar deya olasiz?